

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

O'RTA MAXSUS, KASB-HUNAR TA'LIMI MARKAZI

**SOIBJON BEGMATOV**

# **BASTAKORLAR IJODI**

*Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma*

TOSHKENT – «NISO POLIGRAF» – 2017

UO‘K 85.313

KBK 85.313ya721

B 45

### **Taqrizchilar:**

*Rahimova Shahnoza Ergashevna* – Namangan san’at kolleji  
«Musiqa nazariyasi» kafedrasi mudiri;

*Sodiqova Muhabbat Soliyevna* – Namangan san’at kolleji  
«Musiqa nazariyasi», kafedrasi bosh o‘qituvchisi;

*Ahmedova Nilufar Adhamjon qizi* – O‘zbekiston davlat konservatoriysi  
qoshidagi iqtidorli bolalar akademik litseyi o‘qituvchisi;

*Zokirov Aziz Rayimjonovich* – O‘zbekiston davlat konservatoriysi  
«Musiqiy sharqshunoslik» kafedrasi katta o‘qituvchisi.

### **Mas’ul muharrir:**

*Abdullayev Rustambek Samigovich* – san’atshunoslik fanlari doktori,  
professor.

O‘quv qo‘llanma Oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi yo‘nalishlari, musiqa san’ati sohasidagi akademik litsey va kasb-hunar kollejlari talabalari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, «Bastakorlik ijodi» fan dasturi asosida yaratilgan. Unda o‘zbek bastakorlik ijodiyotining shakllanish jarayoni, tarixiy manbalar va namoyandalar, bastakorlik amaliyotining tarixiy shakllanishi va rivojlanishi, ilmiy o‘rganilishi, yaratilgan manbalar, musiqa ijodiyotida samarali faoliyat olib borgan bastakorlarning hayoti, faoliyati va ijodi yoritilgan.

Oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi ilmiy-metodik birlashmalari faoliyatini muvofiqlashtiruvchi Kengash tomonidan nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9943-4870-8-6

© S. Begmatov, 2017

© «NISO POLIGRAF», 2017

---

## KIRISH

O‘zbek xalq mumtoz musiqa ijodiyoti xalqimiz ma’naviy merosining negizlaridan hisoblanadi. Moddiy-ma’naviy boyliklar asosida yuzaga kelgan ulkan merosning zaminida xalqimizning milliy an’analari, qadriyatları mujassam topgan. Ma’naviy merosni o‘rganish, zamonga mos rivojlantirish har bir davr taraqqiyotining asosiy omillaridandir. O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni va Kadrlar tayyorlash milliy dasturida belgilangan asosiy masalalardan biri ham kelajak avlodning kamolotida, ta’lim-tarbiya berishning maqsadi yosh avlodni istiqlol mafkurasi asosida sog‘lom, har tomonlama rivojlangan shaxs sifatida tarbiyalash va musiqa ta’limiga tayyorlashdan iborat ekanligi e’tirof etilgan.

Xalqimizning milliy-ma’naviy merosini musiqa san’atisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Azal-azaldan ajdodlarimiz tomonidan yaratilib, qadriyatlar sifatida shakllanib kelinayotgan milliy urf-odatlarimiz, an’naviy tarzda avlodlardan avlodlarga o‘tib, xalqimizning buyuk ma’naviy dunyosini namoyon etib kelmoqda. Xalq musiqa ijodiyoti, musiqa sohasidagi yozma manbalar, bastakorlik san’ati, kasbiy musiqa ijodiyoti bunga yorqin misoldir. Chunonchi, bu jarayon musiqa san’atining barcha kasbiylik ahamiyatiga ega bo‘lgan tarmoqlari uchun asos bo‘lib xizmat qilib kelmoqda.

Mustaqillik sharofati bilan barcha sohalar kabi milliy musiqa san’ati ham nazariy hamda amaliy jihatdan keng o‘rganilib, har tomonlama ravnaq topib kelayotganligi sir emas. Buning asosiy sabablaridan biri respublikamizda xalqimiz o‘tmishini o‘rganishga, buyuk allomalar yaratgan ilmiy merosni idrok etishga, sohaning amaliyotini o‘zlashtirish bilan birga nazariy mezonlaridan bilim olishga

katta e'tibor qaratilayotganligidir. Asosiy maqsad ham yoshlarimizni komil inson sifatida tarbiyalash, hech kimdan kam bo'limgan barkamol avlodni tarbiyalashdan iboratdir. Zero, «Vatanimizning kelajagi, xalqimizning ertangi kuni, mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi obro'-e'tibori avvalambor farzandlarimizning unib-o'sib, ulg'ayib, qanday inson bo'lib hayotga kirib borishiga bog'liq»<sup>1</sup>.

Darhaqiqat, san'at millatning ma'naviy boyligi, hayotining ko'zgusidir. San'atlar ichida musiqa xalqqa tez yetib boradigan, keng ommalashgan turi hisoblanadi. Musiqa san'ati o'zining qadimiyligi, janrlarga boyligi, mazmun-mohiyatan keng qamrovligi, ommabopligi bilan jamiyat turmush hayotining ajralmas qismiga aylanib ulgurgan.

Musiqa san'atining muhim tarmog'i musiqa ijodiyoti va ijrochiligidir. Musiqiy namunalar yaratilish va ijro etish kabi mezonlarni o'z ichiga oladi. Ularni tugal asar shakliga keltiradigan, ohang va sadolar orqali insonga ruhiy ozuqa beradigan kuy va qo'shiqlarning yaratilishi bastakorlik ijodiyoti bilan bog'liqdir. Bu, albatta, musiqa san'atining eng muhim tarmog'i hisoblanadi. Demak, musiqa yaratuvchilari, ya'ni bastakorlarning ijodiyoti xalq ma'naviyati, madaniyati, tarixi, an'ana va qadriyatları haqida ma'lumot beruvchi axborot manbayi vazifasini ham o'taydi.

Bastakorlik san'ati juda keng tushunchadir. Oddiy qilib aytganda, xalq musiqasi ham xalq tomonidan ommaviy tarzda yaratiladi va ijro etilib kelinadi. Demak, bu ham bastakorlik san'atining bir ko'rinishidir. Faqat ular xalqimizning hayoti, voqelik, marosim va udumlariga bog'liqligi bilan ajralib turadi. Ana shu jarayonning ravnaqi, ya'ni milliylikning rivoji, xalqimizning tafakkuri, ma'naviyati, ma'rifiy kamoli, jamiyat rivoji va buyukligini musiqiy ohanglarda muayyan shakllarga solib tasvirlab berish – bastakorlik

<sup>1</sup> I. Karimov. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: «Ma'naviyat», 2008.

amallari desak to‘g‘ri bo‘ladi. Zotan, bu amal muayyan shaxs, ya’ni musiqa bilimdoni tomonidan amalga oshiriladi. Eng muhimi shundan iboratki, bastakorlik ijodiyotining mahsuli, xalqning ma’naviy dunyosini zamonasiga mutanosib holda aks ettirib, yana xalqqa taqdim etishdan iboratdir. Unda zamon nafasi, milliy an’analar, xalqning dunyoqarashi, ruhiyati, falsafasi, e’tiqodi, estetikasi kabi jihatlar mukammal uyg‘unligini topishi lozim.

Musiqashunoslik ilmida bastakorlik ijodiyotini o‘rganish va tahlil etishga alohida e’tibor berib kelinganligini qayd etish lozim. Ushbu ilm-fan yo‘nalishida, folklor va og‘zaki professional musiqaning o‘ziga xosliklari, yaratuvchi namoyandalari haqida so‘z yuritilgan ilmiy risolalar, monografiya va ilmiy maqolalar orqali bastakorlik ijodiyoti yoritilib kelinadi. Bastakorlik ijodining nazariy va amaliy ildizlari haqida ko‘plab olimlarning ilmiy izlanishlari, ushbu soha tushunchasi hamda qarashlarni kengaytirishga qaratilgan. Shulardan Al-Kindiy, Al-Forobiy, Ibn Sino, Abdurahmon Jomiy, Darvesh Ali Changiy kabi allomalar hamda zamonamizning musiqashunos olimlari I. Rajabov, F. Karomatli, T. Vizgo, M. Ahmedov, K. Olimboyeva, A. Jabborov, T. G‘ofurbekov, O. Matyoqubov, R. Abdullayev, R. Yunusov, A. Nazarov kabilarning ilmiy-tadqiqot ishlarini keltirish lozimdir.

Hozirgi davrga kelib, o‘zbek an’anaviy musiqa ijrochiligi har tomonlama mukammal, teran mazmunli, an’ana va zamonga mos sayqal topayotganiga guvoh bo‘lamiz. Bu, albatta, mustaqillik davrida milliy musiqa ijodiyoti va ijrochiligiga bo‘lgan e’tiborning yuksakligidir. An’anani saqlab, davom ettirish uchun davr yoshlari mohir ijrochi bo‘lishlari barobarida, kelgusida shu sohaning yetuk mutaxassisini, kamolotga yetaklovchi o‘qituvchisi, ya’ni har tomonlama bilimdon ustoz sifatida kamolga yetishishlari lozim.

Ma’lumki, XX asr musiqa ijodiyoti yangi oqimlar bilan boyidi. O‘zbekiston musiqa madaniyati tarkibida Yevropadan ko‘p ovozli kompozitorlik ijodi va ijrochiligi kirib keldi, musiqa ta’limida va

ijodda ustuvor yo‘nalish sifatida unga katta e’tibor qaratildi. Uzoq o‘tmishli, muayyan shakl tarkibiga ega bo‘lgan va ajdodlardan avlodlarga o‘tib kelayotgan an’anaviy bastakorlik ijodiyoti nazardan chetda qoldi. Shunday bo‘lsa-da, bastakorlik ijodiyoti o‘ziga xos tarzda davom ettirilganligi hamda zamonga mos yaratilgan asarlar o‘zining shakl-u shamoyilini asragan holda, ammo uslub jihatidan davrga moslashganligini kuzatish mumkin. Bastakorlarning yangi avlodni, o‘tmish ijodkorlar an’analarni davom ettirgan holda o‘ziga xos uslublarni yaratdilar. Ijod etilgan asarlar ham xalqonaligi, an’anaviyligi va zamonaviyligi bilan ijro amaliyotida ommalashib, rivojlandi. Ijodiyotda *janrlik* xususiyat kengaydi. Qolaversa, bastakorlik ijodiyoti an’anasi zamonaviy musiqa ijodiyoti bilan boyiganligini e’tirof etish mumkin. O‘zbek kompozitorlik ijodiyotining negizida ham bastakorlik an’analari, tafakkuri va musiqa merosiga bo‘lgan munosabatlari o‘z aksini topganligi bunga sababdir.

Oxirgi chorak asr xalq musiqa ijodiyotida o‘ziga xos davr bo‘ldi. Bastakorlik ijodiyotida ushbu davrni qayta tiklanish sinovi desa bo‘ladi. Chunki bastakorlikda turli uslublarning jonlanishi va ularning ichida an’anaga xos uslubning afzalligi isbotini topayotgandek. Bular, asosan, kuylarni qayta ishslash, nag‘ma pardozlikka (aranjirovka), taqlid va ko‘chirmachilikka e’tibor kuchaygan jabhaga taalluqlidir. Mumtoz musiqaga bo‘lgan e’tiborning tiklanishi va qayta inobatga olinishi, ommaviy musiqa madaniyatining kirib kelishi va taqlidchilikning kuchayishi, ularga ergashish va badihago‘ylikka berilib ketishlik o‘z natijasini ko‘rsatdi. Oqibatda, o‘zbek bastakorligining azaly an’analari, ustoz-shogird saboqlarining asosliligi, tarix davomida shakllangan bastakorlik ijodiyoti hamda ta’limi amaliyotda o‘z ijobatini topdi.

Mustaqillik davrida esa, ana shu barcha tarixiy jarayon, ijrochilik amaliyotining bosqichlari, bastakorlik ijodiyotining uslub, yo‘nalish va namoyandalar faoliyatini teran o‘rganish imkoniyatlari

yaratilmoqda. Bu imkoniyatlar ta’lim jarayoniga joriy etilgan, yoshlarning bu boradagi ma’naviy dunyosini rivojlantiradi. Kelajakda milliy musiqa merosimizning rivoji, bastakorlik ijodiyotining kamoloti xalqimizning qadriyatlariga xos, an’analariga mos, zamon talabidagi jihatlar bilan sug‘orilgan holda rivoj topishi begumondir.

Ta’lim jarayonini tarixiy saboqlar bilan amaliy o‘zlashtirish zamon talabidir. An’anaga asoslangan va zamon talabida ijodiy yondashgan amaliyotning natijasi samarali bo‘lishi shubhasiz. Shu bois mazkur fanning o‘quv dasturiga binoan, o‘rta maxsus musiqa o‘quv yurtlarining «An’anaviy ijrochilik», «O‘zbek xalq cholg‘ulari» va «Musiqqa nazariyasi» bo‘limlari ta’limi uchun quyidagi o‘quv qo‘llanma o‘quvchilarga tavsiya etilmoqda. Shu bilan birga bastakorlik, san’atshunoslik, musiqashunoslik va cholg‘u ijrochiligi yo‘nalishlari uchun bastakorlik ijodi bevosita zarur ekanligini ham e’tiborga olish lozimdir.

Asosiy maqsadimiz ma’naviy boyligimiz bo‘lmish mumtoz musiqa ijodkorlari, millatimizning ma’naviy dunyosini ohanglarda ifoda etib kelgan namoyandalar, ko‘p asrli tarixni bosib o‘tib, o‘zining muayyan musiqiy an’analarini avloddan avlodga boyitib kelgan bastakorlik ijodiyoti tarixi va taraqqiyot yo‘lini bilib va unga hissa qo‘sghan avlodlarning ilmiy va ijodiy merosini ardoqlashdir. Kelajak ijodiy ishlarida ushbu an’analarga asoslanish, zamon talabi doirasida ijod etishda zamonaviy va umumbashariy jihatlarni inobatga olgan holda munosabatda bo‘lishdir.

## **I bob. BASTAKORLIK IJODI TARIXI**

### **1.1. ILK O'RTA ASRLAR BASTAKORLIGI**

O'zbek xalq musiqa merosi boy va uzoq o'tmishga ega. Uning ildizlari ming yillik tarixga egaligi manbalarda zikr etib kelinadi. O'zbek bastakorlik ijodiyotini ilmiy tadqiq etgan musiqashunos olim T.B. G'ofurbekovning yozishicha: «Milliy bastakorlik san'ati – yillar va asrlargina emas, balki ming yilliklar davomida barcha sinovlarga bardosh berib, usluban sanog'i yo'q musiqiy bitiklar tevaragida o'z an'analarini yo'qotmay kelmoqda»<sup>1</sup>. Albatta, bastakorlik ijodiyotining ilk qadamlari uzoq o'tmishga borib taqaladi. Bu aslida muqarrar jarayon. Chunki har qanday ijod mahsuli insoniyat tafakkurining mevasi hisoblanadi. Oddiy xalq musiqa namunalari ham sodda bo'lsa-da, insoniyatning yaratuvchanlik harakatlarining mevasidir. Lekin, ijodning mumtozlik, ya'ni kasbiylikka xos bo'lgan namunalari aynan bastakorlik an'analariga xos deb e'tirof etib kelinadi.

Ma'lumki, bastakorlik sohasi ijrochilik an'analarining pirovardi sifatida yuzaga kelgan. Ijrochilik an'analarini mukammal o'zlashtirgan, musiqa merosini idroklagan va merosga nisbatan ijodiy munosabatda bo'lish iste'dodi bo'lgan yetuk xonanda va sozandalarning amaliyotida qaror topgan. Bastakorlik amaliyotining o'zi bir qator tabiiy, hayotiy va ijodiy qoidalarga asoslanib shakllangandir. Ushbu qoidalalar, avvalo, milliy qadriyatga, makon va zamonga, shakl-ushamoyilga, xarakterga va qolaversa, bir qator musiqiy unsurlarni o'zida mujassam etishi bilan xarakterlanadi. Chunki musiqa nazariyasi bilan bog'liq jihatlar, yaratilgan har qanday bastakorlik asarlarini shakliy, lad-tonallik, o'lchov-ritmik, mavzuiy, ohang rivoji, funksionallik kabi xususiyatlari asar tarkibini tashkil

<sup>1</sup> T. G'ofurbekov. Bastakorlik ijodiyoti tarixidan. //Saylanma. – T., 2009. 9-b.

etuvchi unsurlar bilan bog‘liqdir. Bu unsurlar musiqa asarining asosiy negizini ta’minlab beradi.

Musiqa san’atining kasbiylik an’analarida yuzaga kelgan mumtoz namunalar, xalq marosimlari jarayonida yaratilib kelingan kuy va qo’shiqlar o’ziga xos an’analar asosida zamonlar osha yashab, rivojlanib kelmoqda. Odatda, bastakorlik ijodiyoti bir-biridan kelib chiqqan ikki qatlama bo‘linadi. Birinchi qatlam – xalq musiqa ijodiyoti, ya’ni xalq tomonidan yaratilib kelingan folklor musiqasi. Ikkinchisi – musiqa ijrochiligi amaliyoti; meros bo‘yicha muayyan bilimga ega bo‘lgan shaxs, ya’ni bastakorlar ijodiyoti natijasida yaratilgan mumtoz musiqiy asarlaridir. Bastakorlik ijodiyotining eng yirik va mukammal shakli maqomot tizimiga kiruvchi asarlardir. Bastakorlik amaliyotida shakllanib maqomot shakligacha rivojlangan janrlar, manbalarda amal, qavl, parda, nag‘ma, ovoz, naqsh, peshrav, savt, chorzarb, kor, tarona kabi iboralarda tasvirlanib kelingan. Ushbu iboralarning amaliyoti va ijodiyoti xususida, tarixda bitilgan musiqiy risolalar, turli ilmiy va badiiy adabiyotlarda aks ettirilganligini qayd etish lozimdir.

Bastakorlik ijodi va umuman, musiqa san’atining turli yo‘nalishlari bilan bog‘liq masalalar, IX–XVII asrlarda yashab ijod etgan Al-Kindiy, Abu Abdulloh Al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Safiuddin Urmaviy, Abdulqodir Marog‘iy, Abdurahmon Jomiy, Zaynulobiddin Husayniy, Najmaddin Kavkabiy, Darvish ali Changiy kabi allomalarning musiqa ilmiga bag‘ishlangan risolalarida musiqa zamonasi kesimida bayon etilgan. Risolalarda qayd etilishicha, musiqaning nazariyasi va amaliyoti azaldan o‘zaro bog‘liq holda shakllanib kelgan.

Markaziy Osiyo hududida VI asrning ikkinchi yarmi va VII asrning boshlarida yashagan afsonaviy sozanda, xonanda va bastakor Borbad Marvaziying ijodiy ijrochilik merosi kasbiy musiqa ijodiyotining ilk qadamlari deb e’tirof etiladi. Manbalarda bastakorlik ijodiyoti, ajam xalqlarining keyingi tarixiy rivoji yo‘lida

o‘ziga tasnif etilganligining guvohi bo‘lamiz. Bu jarayonni Abul Faraj al-Isfahoni o‘zining «Qo‘sishqlar kitobi» asarida muxtasar qiladi va VII–IX asrlarda yaratilgan 1000 ga yaqin qo‘sishqlar haqida ma’lumotlar bayon etadi.

Bastakorlik ijodiyotining tadrijiy jarayonida «Ilk o‘rta asrlar bastakorligi», «Borbad ijodi», «Abul Faraj al-Isfahoni ijodi va xususan, uning «Qo‘sishqlar kitobi» alohida ahamiyatga egaligi fanda e’tirof etiladi. Shu bois bu mavzularni alohida o‘rganish va o‘zlashtirish maqsadga muvofikdir.

### **Borbad ijodi**



Markaziy osiyolik buyuk san’atkor, xonanda, sozanda, tarixda mumtoz musiqa asoschisi sifatida mashhur bo‘lgan bastakor Borbad eramizning VI asri 60-yillarida tavallud topgan. U Xurosonning qadimiy va markaziy shaharlaridan biri hisoblangan Marvda yashagan.

O‘tmish yozma manbalarida Borbadning yoshlik davrlari xususida ma’lumotlar bayon etilmagan. Uning asli ismi Falaxbod Marvaziydir. «Borbad» Falaxbod Marvaziyning taxallusi bo‘lib, qadimiy borbat cholg‘usi ijrochiligida mohirlikka erishganligi uchun unga shu nom berilganligi ham e’tirof etiladi. Borbad o‘smirlik davridayoq xalq orasida mohir sozanda sifatida tanilgan. Shu bilan birga Marvda musiqa ilmini ham o‘zlashtirganligi xususida ma’lumotlar keltiriladi. Firdavsiyning «Shohnoma», Nizomiy Ganjaviyning «Xusrav va Shirin», Amir Xusrav Dehlaviyning «Shirin va Xusrav» kabi badiiy asarlarida Borbadning xushovoz hofiz, mohir sozanda, betakror bastakor bo‘lganligi xususida ma’lumotlar bayon etilgan.

Betakror iste’dod egasi bo‘lgan Borbad sosoniylar (V–VII asrlar) davrining nomdori hukmdori Xusrav Parviziy saroyida,

591–628-yillar orasida xizmat qilib, o‘zining yorqin faoliyatini olib borgan. Borbadning ijodi haqida xalq orasida ko‘plab afsonalar hamda ma’lumotlar keltirilgan. Abulqosim Firdavsiyning «Shohnoma» kitobida keltirilgan «Borbad qissasi»<sup>1</sup>, Nizomiy Ganjaviyning «Xusrav va Shirin» dostonida «Borbadning 30 ta kuyi» kabilardagi ma’lumotlar alohida ahamiyat kasb etadi<sup>2</sup>.

Xusrav Parviziyning saroyida Sarkash, Bamshod, Nokus, Romtin kabi mashhur xonanda va sozandalar faoliyat olib borganliklari to‘g‘risida manbalarda bir qator ma’lumotlar keltiriladi. Lekin Borbad o‘zining betakror iste’dodi va ijodi bilan san’at sohasida juda mashhur bo‘lgan.

Borbad ijodi davomida 7 ta yirik shakldagi asarlar turkumi «Xusravoniy»larni<sup>3</sup>, 30 ta lahn<sup>4</sup>, 360 ta (alhon) qo‘shiq-dostonlarni yaratishga erishadi va kasbiy musiqa ijodini boshlovchilaridan biri sifatida tarixga nomi muhrlanadi. Borbad yaratgan kuylarning musiqiy ohanglari saqlanib qolinmagan, lekin ularning nomlari turli manbalarda turlicha tarkibda keltiriladi.

Manbalarda qo‘shiqlarning «Yazdan ofrid», «Ganji bod ovar», «Bog‘i Shahriyor», «Nimro‘z», «Sabr dar sabz», «Kini Eraj», «Kini Siyavush», «Xaft ganj», «Rohi Shabdiz», «Bog‘i Shirin» kabi nomlari bilan birga muayyan yo‘nalishga xos qo‘shiqlar ham saqlanib qolgan. Jumladan: Navro‘z marosimi bilan bog‘liq qo‘shiqlar – «Bodi Navro‘z», «Nozi Navro‘z», «Sozi Navro‘z», «Navro‘zi Xurdak»; xalq qahramoni Siyovushga bag‘ishlangan qo‘shiqlar – «Bog‘i Siyovush», «Kini Siyovush», «Siyovushon» va boshqalar.

---

<sup>1</sup> *Firdavsiy. Shohnoma. 3-kitob. – T., 1977. 558–564-betlar.*

<sup>2</sup> *O. Matyoqubov. Oq‘zaki an'anadagi professional musiqa asoslariga kirish. – T.: «O‘qituvchi», 1983. 6-b.*

<sup>3</sup> *Xusravoniy* (xusrav – buyuk, ulug‘ so‘zidan) – ulug‘vor, shohona asar, ya’ni shaklan yirik asar ma’nosida.

<sup>4</sup> *Lahn* – kuy. Alhon uning ko‘plik shakli (kuylar)dir.

Borbad «borbat» cholg‘usini kashf etgan izgar sifatida ham nom qoldirgan. Borbad O‘rta Sharqda mumtoz musiqa san’atining ilk professional namoyandasasi darajasiga ko‘tarilgan va aynan shu soha asoschisi sifatida tarixdan o‘rin olgan.

### **Abul Faraj al-Isfahoniyning «Qo‘shiqlar kitobi»**

Abul Faraj al-Isfahoniy Eronning janubida joylashgan Isfahon shahrida 897-yili tavallud topgan.

Abul Faraj al-Isfahoniy butun o‘zining ijodida bir qator sohalarda ilmiy izlanishlar olib borgan. Xususan, tibbiyat, tarix, falsafa, geografiya, astronomiya va musiqa bo‘yicha 30 dan ortiq risolalar yozib qoldirgan. Faoliyati davomida musiqaga bag‘ishlangan 7 ta risola yozgan. Ularning ichida eng mashhuri «Qo‘shiqlar kitobi» («Kitab ul-ag‘ani») deb nomlangan bo‘lib, oldin yaratgan 6 ta kitobga kirgan ma’lumotlarning aksariyatini qamrab olgan. 6 ta musiqa haqida kitoblarining nomlari quyidagicha: «Faqat qo‘shiqlar haqida kitob», «Tinglash haqida kitob», «Xonandalar kitobi», «Mashhur xonandalar haqida kitob», «Kuy haqida kitob» va «Ashulalar haqida kitob».

Abul Faraj al-Isfahoniy ushbu risolani o‘zidan oldin yashab o‘tgan bastakor va ijrochi Is’hoq Mavsuliy kitobiga asoslanib yozadi. Qo‘shiqlarni o‘tmish xonandalar talqinlaridagi rivoji va o‘zgarishlari, turli ijro maktablari va uslublaridagi ijrosini VII–X asrlar mobaynidagi rivoji kesimida ko‘rsatib beradi. Risolada, asosan, arablar musiqiy estetikasi, musiqaning ahamiyati keng yoritilgan. Risola tarkibidan o‘rin olgan qo‘shiqlarda arablar, ya’ni ko‘chmanchi badaviylarning qo‘shiqlari, xalifalarni madh etuvchi marsiyalar, diniy-dunyoviy musiqalar o‘rin olgan.

«Qo‘shiqlar kitobi»da musiqaning nazariy masalalari yoritilmagan, aksincha, asosan, amaliy jarayon ifoda etilgan. Risola 8 bobdan iborat. Har bir bob o‘z tarkibiga bir nechta qismni qamrab olgan.

Ular asosan ocherklar ko‘rinishidadir. Kitob tarkibidagi qo‘shiqlar uch guruhga bo‘lingan:

- birinchisi: quvnoq, harakatga ega bo‘lgan qo‘shiqlar;
  - ikkinchisi: nazokatli, nozik, ma’yus, xijronli kayfiyatni tarannum etuvchi qo‘shiqlar;
  - uchinchisi: mumtozlik uslubiga yaqin bo‘lgan qo‘shiqlar.
- Ularni ijro etish uchun ijrochida yetarli darajada malaka bo‘lishi talab etilgan.

Risolada arab xalqlarining musiqa madaniyati rivoji qo‘shiqlar misolida berilgan bo‘lib, eng muhimi, kasbiy musiqaning rivoji xususida tartibli ilmiy-amaliy ma’lumotlar bayon etilgan.

**Amaliy mashg‘ulot:** ilk o‘rta asrlarda musiqa ijodiyotining kasbiy yo‘nalishi shakllanishidagi asosiy jarayonlar. Borbad Marvaziy ijodiyoti va kasbiy musiqa namunalarining amaliyotga kirib kelishi. Uning sozandalik, xonandalik va bastakorlik jihatlari. Borbadning musiqa ijodiyotida joriy qilingan yangi namunalari. Musiqa ijodiyotida kasbiylik tafakkur yo‘lini rivojlantirishi hamda uning keyingi rivojga ta’siri. Borbad ijodiyotida turkumiylilikning shakllanishi. Borbad maqomot ijodiyotining asoschisi. Uning ijodi: Xusravoniyilar, 30 ta lahn va 360 ta alhonlar.

Abul Faraj al-Isfahoniyning «Qo‘shiqlar kitobi»dagi ma’lumotlarni o‘zlashtirish va tarix nuqtayi nazaridan zamonaviy musiqiy jarayon bilan solishtirish.

**Tayanch so‘zlar:** Isfahoniy, «Qo‘shiqlar kitobi», arablar, lahn, nag‘ma, qavl, parda, ovoz, naqsh, peshrav, savt, kor, tarona, sosoniyalar.

### Nazorat savollari

1. Abul Faraj al-Isfahoniy haqida so‘zlab bering.
2. «Qo‘shiqlar kitobi» necha bo‘limdan iborat?

3. Abul Faraj al-Isfahoniyning «Qo’shiqlar kitobi» va unda bayon etilgan ma’lumotlar.
4. Ilk o’rta asrlar bastakorligi qaysi davrlardan boshlangan?
5. Borbadning bastakorlik faoliyati va yaratgan asarlari.

## 1.2. RIVOJLANGAN O’RTA ASRLAR BASTAKORLIGI

Ma’lumki, o’rta asrlar ilmda «Uyg‘onish davri» deb yuritiladi. Bu ibora barcha ilmlarga taalluqli bo‘lib, musiqa san’ati, ayniqsa, bastakorlik ijodiyoti ham bundan mustasno emas. Musiqa san’atining barcha yo‘nalishlari, ya’ni musiqa ilmi va amaliyoti, ijodiyoti va cholg‘ushunosligi benihoya rivoj topganligi o‘tmish manbalarida ifodasini topgan. O‘tmish musiqiy risolalarini o‘rganib, tarjima qilinishi va davr allomalari tomonidan musiqa ilmiga bag‘ishlangan risolalar bitilishi musiqa ijodiyotining samaralarini belgilab berdi.

Amir Temur va Temuriylar davri O’rta va Yaqin Sharq xalqlari musiqa san’atining rivojlangan, ya’ni Uyg‘onish (Oltin) davri bo‘lganligi e’tirof etiladi. Ushbu davrda ilm-fan har tomonlama taraqqiy topadi. Musiqa san’atiga xos barcha yo‘nalishlar, ya’ni ilmiy va amaliy jarayon bir-biriga uyg‘un holda kamollikka erishdi. Ular qatorida bastakorlik ijodi o‘zining eng samarali asri, kamolot davrini o‘tadi. Avvalo, bastakorlik ijodining mahsuli bo‘lmish mumtoz musiqa o‘ziga xos tizimga keltirildi va 12 maqom tizimida, bir shaklda uyg‘unlashdi. «Musiqa ilmida, – deb yozadi O. Matyoqubov, – janglarning eng oliv navlariga nisbatan maqom iborasi birinchi bo‘lib Safiuddin Urmaviy tomonidan ishlatilgan. Sharq musiqasida keng tarqalgan «12 maqom» sistemasi ham ana shundan boshlangan<sup>1</sup>». 12 maqom tizimidagi Rost, Isfahon, Iroq, Ko‘chak, Buzurg, Hijoz, Busalik, Ushshoq, Husayniy, Zangula,

---

<sup>1</sup> O. Matyoqubov. Og‘zaki an’anadagi professional musiqa asoslariga kirish. – T., 1983. 23–24-betlar.

Navo, Rahoviy kabi turkumiy asarlar majmuasi bastakorlik ijodiyotining eng murakkab va mukammal namunasi sifatida keyingi avlod uchun namuna bo‘ldi.

Bastakorlik ijodiyotining keyingi bosqichi maqomlar asosida yuzaga kelgan behisob namunalarni tashkil etadi. Ushbu namunalar musiqa ijodiyotida ovoza (ularning soni 6 ta) va Sho‘ba nomlari bilan mashhurdir.

Faqatgina sho‘ba nomlarining o‘zida, ushbu davrda bastakorlik ijodi ravnaq topganligini ko‘rish mumkin. Xususan, musiqa ijodiyotidagi sho‘balar manbalarda quyidagi tartibda keltirilgan: *Dugoh, Segoh, Chorgoh, Panjoh, Ashiran, Navro‘zi Arab, Mohur, Navro‘zi Xoro, Navro‘zi Bayotiy, Hisor, Nuhuft, Uzzol, Avj, Nayriz, Mubarqa’, Rakb, Sabo* (*Navro‘zi Sabo*), *Humoyun, Zovuliy, Isfahonak yoki Ro‘yi Iroq, Bastayi Nigor, Nihovand, Javziy, Muxayyar, Ajam va Navro‘zi Ajam*.

Temuriylar davri bastakorlari xususida teran va mazmunli ma’lumotlar mavjud. Abdurahmon Jomiy, Abdulqodir Marog‘iy, Zaynulobiddin Husayniy, Binoiy va Kavkabiylarning musiqa ilmi va amaliyotiga bag‘ishlangan risolalarida fanning turli yo‘nalishlari ilmiy bayon etiladi. Ushbu davr madaniyatiga katta hissa qo‘sghan buyuk mutafakkirlar, davlat arboblari musiqa san’ati rivojiga alohida e’tibor bilan qaraganliklarini ko‘rish mumkin. Ayniqsa, musiqa ijodiyoti Alisher Navoiy merosida alohida yoritilgan. Buning sabablaridan biri, hazrat Navoiy rahnamoligida bu jarayonga alohida ahamiyat berilganlidir. Chunonchi, Mirzo Ulug‘bek, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Hoji Yusuf Burhon Andijoniy, Hoji Abdullo Marvarid, Husayn Boyqarolar o‘zları musiqiy asarlar, naqsh va amallar hamda usullar ijod qilganlar va bu haqdagi ma’lumotlar manbalarda zikr etilgan. Jumladan, Husayn Boyqaroning 17 ta usul, Alisher Navoiyning 7 ta usul, Mirzo Ulug‘bekning bir qator usullar muallifi ekanligini Darvish Ali Changi o‘zining «Risolayi musiqiy» risolasida keltirib

o‘tadi. Ularning bastakorlikda naqsh va peshravlar, «Chorgoh savti» yaratganliklari haqidagi ma’lumotlar bir qator manbalarda bayon etilgan.

Temuriylar davri musiqa madaniyati hayoti Alisher Navoiyning asarlarida «Lison ut-Tayr», «Mahbub ul-qulub», «Majolis un-Nafois», «Holoti Pahlavon Muhammad», «Holoti Hasan Ardasher» kabi asarlarida asosli yoritilgan. Musiqa ijodiyoti doirasida bastakorlik ijodiyotining turli jihatlari har tomonlama Navoiy qarashlari bilan tahlil etilgan. Navoiy ta’limotini uning bitgan risolalari orqali anglash inson kamolotining garovidir.

### **Alisher Navoiyning «Majolis un-nafois» asari**

«*Majolis un-nafois*»<sup>1</sup> («Nafis majlislar») – Alisher Navoiyning tazkira-yirik to‘plam (antologiya) janrida yaratgan asarlaridan biri bo‘lib, unda 459 ta zamondosh shoir, yozuvchi va olimlar, musiqa-shunos, sozanda, xonanda va bastakorlar ijodi xususida ma’lumotlar bayon etilgan. Asar 8 qism, ya’ni majlisdan iborat. Har bir majlis muayyan ijod ahligi bag‘ishlangan. Tazkiraning uslubiga binoan Navoiy har bir keltirilgan namoyandaning bilim darajasi, axloqi, dunyoqarashini tasniflaydi va ijodidan namuna keltiradi. Shu bilan birga, ayniqsa, madaniyat va san’at ahlining ijodiga ijobiy va tanqidiy fikrlarini ham bayon etib o‘tadi.

Tazkirada Alisher Navoiy musiqa san’atining turli sohalarida faoliyat yuritgan 16 nafar shaxslar ijodida ta’rif beradi. Bu oddiy ta’rif emas, balki san’at namoyandalarining ijodiga Navoiyning o‘ziga xos baho ekanligini e’tirof etish lozimdir. Xususan, ularning musiqa san’atiga qo’shgan ijodiy hissasini tavsiflab o‘tadi<sup>2</sup>:

<sup>1</sup> Alisher Navoiy. Qomusiy lug‘at. Birinchi jild. – T., 2016. 310–312-betlar.

<sup>2</sup> Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami (20 jildli). 13-j. – T., 1997.

– zamonasidagi 6 ta mohir sozanda: Mavlono Qadimiy (naqqorachi); Muhammad Ali G‘aribiy (musiqa ilmidan xabardor va bir qator cholg‘ularning mohir sozandasini); Hoja Kamoliddin Udiy (sozanda – zamonasining xushnavozi); Ustod Qulmuhammad Udiy (sozanda – ud va g‘ijjak hamda qo‘biz cholg‘ularining mukammal bilimdoni, bastakor Mir Habibulloh (sozanda – ud); Boysung‘ur Mirzo (mohir sozanda)larning sozandalikdagi amallarini Navoiy alohida baholaydi;

– 7 ta musiqashunoslar: Hoja Abdulvafoiy Xorazmiy (musiqiy risola bitgan, advor va musiqa ilmidan xabardor); Mavlono Muhammad Jomiy (musiqashunos, musiqiy advor ilmida va musiqa ilmida mohir); Abdurahmon Jomiy (musiqashunos – musiqa ilmi bilimdoni); Mavlono Binoiy (musiqashunos – advorda risola bitgan); Mavlono Shayxiy (musiqashunos); Pahlavon Muhammad Go‘shtigir (musiqiy advor ilmida davrining benaziri); Hoja Abdulloh Sadr (Advor va musiqa ilmida benazir, qonun cholg‘usi ijrochiligi bo‘yicha tengsiz) kabilar o‘z davrida dong taratgan va shunga munosib musiqiy risolalar bitganligini faxr bilan tilga oladi;

– 3 ta bastakor: Mavlono Sohib Balxiy (bastakor – advor va musiqa ilmida komil – Chahorgoh kuyining muallifi); Hoja Yusuf Burhon (musiqa ilmini yaxshi bilgan ustoz, o‘zining baytiga Isfahan kuyini bastalagan, musiqa ilmidan Navoiyning ustozи); Mavlono Solimiy (sozanda – ud va tanbur cholg‘ularida mohir sozanda, musiqada tasniflar bog‘lagan bastakor)larning ijodiga baho berar ekan, Navoiy ularni avvalambor musiqa bilimdoni, musiqa nazariyasini idroklay olgan musiqashunos va musiqa amaliyotini mohirlik daramasida biluvchi sozanda bo‘lganliklarini alohida e’tirof etadi. Musiqa nazariyasi va amaliyotini bilgan har qanday san’atkor, bilimiga mos musiqa yaratishga qodir ekanligini, ushbu uchta musiqa bilimdonlarning ijodi misolida ko‘rsatib bergen.

Darhaqiqat, Alisher Navoiy o‘zining asarlarida musiqa san’atiga har tomonlama mukammal yondashganligi, ilmiy va amaliy

jihatlarini yo‘nalishlarga xos yoritganligi va eng muhimi, jamiyat taraqqiyotida alohida o‘rin tutishini anglagan holda munosabatda bo‘lganligini qayd etish lozim.

## Alisher Navoiyning «Holoti Pahlavon Muhammad» asari

Alisher Navoiy o‘zining «Holoti Pahlavon Muhammad» asarida inson qudratining nimalarga qodirligi, iste’dod negizida mehnat qilib, saboq olib, tinmay intilish orqali qanday marralarga erishish mumkinligini bir inson hayoti, ya’ni o‘z do‘stining hayoti misolida ochib bergenligining guvohi bo‘lamiz. Navoiy nazmida insonning kamolotga erishishida, barcha hayotiy kechinmalar, kasb va mashg‘ulotlar kabi, musiqaning o‘rni buyuk ekanligiga katta urg‘u beradi. Bastakorlik ijodiyotini zamonasining qahramoni Pahlavon Muhammadning ijodi asosida yoritadi.

Pahlavon Muhammad o‘z davrining yirik namoyandasini, madaniyat arboblaridan biri bo‘lgan. Alisher Navoiy bu insonni o‘zining ustozi deb bilgan, ular 40 yil davomida bir-birlari bilan yaqin do‘st bo‘lgan. Pahlavon Muhammad vafotidan so‘ng, Alisher Navoiy uning xotirasiga bag‘ishlab «Holoti Pahlavon Muhammad» risolasini yozadi.

Shoir risolada o‘zining do‘sti va murabbiysining barcha ibratli jihatlarini go‘zal obrazlar orqali ifoda etgan. Xususan, u Pahlavon Muhammadning musiqa sohasidagi ijodi borasiga alohida urg‘u berib o‘tadi. Musiqa san‘atining inson ma’naviy dunyosida muhim ahamiyatga egaligini aynan do‘sti va ustozi deb hisoblagan Pahlavon Muhammad ijodi orqali izohlab beradi. Xususan, Navoiy yozadi: «Ul jumladin advor<sup>1</sup> va musiqiy ilmidurkim, chun lahjasi va husni savti xo‘b ekandur va usuli mazbut va harakoti va sakanoti marg‘ub. Ul daqiq fanda ko‘shish va sa‘y ko‘rguzub, daxli tom va

---

<sup>1</sup> *Advor* – doiralar, musiqa nazariyasi masalalarining tizimli joylashuvi.

mahorati molokalom topib erdi va dilkash naqsh<sup>1</sup>lar va amal<sup>2</sup>lar va dilpisand qavl<sup>3</sup>lar va g‘azallar tasnif qilur erdi va xo‘b aytur erdi. Andoqki, eshitgan xavos va avom xushhol bo‘lmoqda beixtiyor va o‘rganmoqda beqaror erdilar»<sup>4</sup>.

Ya’ni Navoiy Pahlavon Muhammadning musiqa san’atining turli tarmoqlarida, musiqashunos sifatida ilmli, bastakorlikda samarador va ijrochilikda mohirlik bilan faoliyat olib borgan, ijod etgan va muayyan bilimlarga ega bo‘lgan shaxs sifatida e’tiborga loyiqligini bayon etadi. Pahlavon Muhammadning advor ilmida ilg‘orligi, uslubiyot (metodika) nuqtayi nazaridan idroklay olishi hamda bunga nisbatan harakati samarali ekanligini Navoiy uqtirib o‘tadi.

Musiqa nazariyasini idroklash fanni bilishga intilish demakdir. Fanni bilish uni idroklash demakdir. Musiqa ilmini bilish, bundan da ko‘proq amallarni bilish uchun asos bo‘la olishiga urg‘u beradi. Pahlavon Muhammadning bastakorlik, xonandalik sohasidagi ibratli harakatlari ta’rifini keltiradi. Xususan, «Dilkash naqshlar va amallar va dilpisand qavllar...» kabi bir jumla bilan uning bastakorlik mahoratini ochib beradi.

Pahlavon Muhammadning bastakorlik ijodiga bergen ta’rifi ichida «Mashhur amallaridan biri «chahorgoh» amalidur...» – deb keltirgan ma’lumoti mavjud. Bu bilan Navoiy, Pahlavon Muhammadning bastakorlik faoliyatidagi ijodining yorqin namunalaridan biri «Chahorgoh», ya’ni «Chorgoh» asari deb ta’kidlaydi.

Shu bilan birga Alisher Navoiy «Holoti Pahlavon Muhammad» asarida musiqa fani, ijrochiligi va ijodiyotida mashhurlikka yetishgan ustozlar xususida ma’lumotlar keltirib, bu bilan ustozlarning ijodi doimo zamon tafakkuri uchun ibrat bo‘lishini, ta’limda esa o‘rnak

<sup>1</sup> *Naqsh* – musiqiy asar – kuy, qo‘schiq.

<sup>2</sup> *Amal* – musiqiy asar – kuy, ashula, ohang.

<sup>3</sup> *Qavl* – musiqiy asar – so‘z, gap, musiqaga solingan she’r.

<sup>4</sup> A. Navoiy. Holoti Pahlavon Muhammad. – T., 2015. 111-b.

ekanligini uqtirib o‘tadi. Alisher Navoiy ushbu ustozlar Hirot madaniy hayotining faol ishtirokchilari, shoir, bastakor va sozandalari bo‘lganliklari xususida, ularning bastakorlik ijodiyotlarini keltirgan holda o‘zining «Majolis un-nafois» kitobida ham alohida to‘xtalib o‘tgan.

**Tayanch so‘zlar:** Navoiy, Pahlavon Muhammad, risola, advor, naqsh, amal, qavl, chohorgoh, ustoz, bastakor, musiqashunos, mutrib, mug‘anniy.

### **Nazorat savollari**

1. Bastakorlik ijodiyoti qanday xususiyatlardan iborat?
2. A. Navoiy asarlarida musiqa ilmi, amaliyoti va bastakorlik ijodiyot qanday yoritilgan?
3. «Majolis un-nafois» va «Holoti Pahlavon Muhammad» asarlarida musiqa, bastakorlik an’analari va namoyandalari xususidagi fikrlarni izohlab bering.

### **1.3. SO‘NGGI O‘RTA ASRLAR BASTAKORLIK IJODI**

#### **Darvish Ali Changiyning «Musiqa risolasi»da bastakorlar siymolari**

XV asrdan boshlab to XVIII asrgacha bo‘lgan davr musiqa madaniyati rivoji, asosan, musiqiy risolalarda, adabiy, tarixiy va badiiy manbalarda o‘z ifodasini topgan. Ushbu davrni maqomchilik san’ati ustida ijodiy ish olib borilgan davr deyish mumkin. Chunki shu davrlarda yaratilgan musiqiy va badiiy asarlarda sozanda va xonandalar, bastakorlar, ular yaratgan kuy va ashulalar xususida ma’lumotlar keltirilib, asarlarning nomlari bayon etilgan. Musiqiy risolalarda esa maqomlarning nomlari va ularning tarkibiga kirgan asarlarning maqomlarga tegishli bo‘lgan doira usullari haqida va ularning tartibi xususida so‘z yuritganligining guvohi bo‘lamiz.

Mumtoz musiqanining tarkibidan o‘rin olgan usul masalasi o‘tmish allomalarining diqqat markazida bo‘lib kelgan musiqanining tarmog‘idir. Va deyarli barcha risolalarda qadimiy usullarning nomlari deyarli bir xildir. Abu Abdulloh al-Xorazmiyning «Ilmlar kaliti» qomusi, Abu Ali ibn Sinoning «Iyqo ilmi» risolasida keltirilgan usullar jadvallari shular jumlasidandir. Lekin, ushbu davrga kelib usullar ham o‘ziga xos nomlanganligini va ularda hozirgi Shashmaqom tarkibidagi usullarning ifodalanganligini ko‘rish mumkin. Ushbu masalaga XX asr musiqa bilimdoni Abdurauf Fitrat o‘zining «O‘zbek klassik musiqasi va uning tarixi» nomli risolasida murojaat etib, mavjud usullarning nomlarini va usul shakllarini bayon etadi<sup>1</sup>.

Temuriylardan keyingi davrda yaratilgan musiqiy risolalar orasida Najmaddin Kavkabiy va Darvish Ali Changiyning («Tuhfat-us-surur»<sup>2</sup>) risolalari alohida ahamiyatga egadir. Xususan, o‘rta asrlarning so‘nggi yillaridagi bastakorlik ijodiyoti borasidagi ma’lumotlar Darvish Ali Changiyning ijodida to‘la-to‘kis yoritilgan. Muallif unda o‘z davrining musiqiy tizimi, bastakorlik, ya’ni ijodkorlik masalalari bo‘yicha amaliy tavsiyalar beradi. Bastakorlik ijodining asosiy shakllari – naqsh, peshrav, amal, qavl, savt, chorzarb, jir, kor, tarona kabilar xususida ma’lumotlar keltiriladi. Shu bois ushbu risolani o‘quv jarayonida mukammal o‘zlashtirish o‘quvchilar uchun har tomonlama foydali ekanligini inobatga olib risolani musiqashunos olima Dilbar Rashidova tarjimasi ostidagi matndan keng foydalanilgan holda keltiramiz.

XVI–XVII asrlar mobaynida yaratilgan musiqiy risolalardan yana biri Darvish Ali Changiyning «Tuhfat us-surur», amaliyotda «Risolayi musiqiy» deb ham yuritiladigan risolasidir. Ushbu risolada

---

<sup>1</sup> A. Fitrat. O‘zbek klassik musiqasi va uning tarixi. – T., 1984.

<sup>2</sup> Darvish Ali Changiy. Tuhfat us-surur (D.A. Rashidova tarjimasi) – T, 1981.

350 ga yaqin bastakor, xonanda, sozandalar haqida qimmatli ma'lumotlar berilgan.

O'z davrining yetuk musiqashunos allomasi, bastakori, mohir sozanda va xonandasini hamda shoiri Darvish Ali Changiy XVI asr oxiri va XVII asrning boshlarida Buxoro shahrida yashab ijod etgan. Allomaning so'nggi ijod namunasi «Risolayi musiqiy»dir. Risola mazmunan ikki ulkan qismidan iborat. Birinchi qismi musiqaning nazariy masalalariga bag'ishlangan. Ikkinci qismi esa tazkira uslubida bayon etilgan bo'lib, asosan, muallif yashagan davrgacha va zamonasining mohir va dongdor musiqashunoslari, bastakorlari, sozanda va xonandalarining ijodiy faoliyatlar haqidagi ma'lumotlar keltirilgan.

Risola besh bobdan tashkil topgan. Birinchi bob 12 maqom, 24 sho'ba va 6 ovozalarning bayoni. Ikkinci bob usullarga bag'ishlangan bo'lib, 17 bahr usuli hamda 24 usullar xususida so'z yuritilgan. Uchinchi bob mumtoz musiqaga xos bo'lgan musiqiy janrlar, ya'ni kor, qavl, amal, peshrav, savt, naqshlar to'g'risida to'xtalgan. To'rtinchi bob musiqiy cholg'ular tasnifotiga, jumladan, tanbura, chang, nay, qonun, ud, borbat, rubob, qo'biz, g'ijjak, shamoma, nayabnon, chag'ona, ruhafzo, rud, arg'anun kabi cholg'ular haqida ma'lumotlar o'z aksini topgan. Besinchi bob o'ziga xos tazkira va musiqa ijodkorlari, nazariyotchilari hamda ijrochilar haqida qimmatli ma'lumotlardir.

Darvish Ali Changiy musiqiy risolasida bastakorlik amali bilan shug'ullangan 25 dan ortiq musiqa bilimdonlari va ijodkorlari xususida alohida ma'lumotlar berilgan. Musiqa ijodkorlarining amaliyotni, ya'ni musiqa ijrochiligidagi qay darajada mohir ekanligiga ishora qilib, bastakorlik amallarini tavsiflab beradi. Ularning musiqa ijrochiligidagi mahorati negizida musiqiy bilimiga ham o'ziga xos baho berib o'tadi. Xususan, 12 ta namoyandani musiqa ijodiyotida aynan bastakor deb ta'riflasa, 15 ta namoyandani musiqada naqshlar, savtlar, peshravlar bog'lagan va yaratgan deb

tilga oladi. Musiqa ijodiyoti bilan shug‘ullangan namoyandalarga Darvish Ali Changiy tomonidan berilgan tavsiflarni keltiramiz: «Samarqanlik **Sulton Muhammad Udiy** – musiqa bilimdoni, saqil usuliga asoslangan va dugoh ohanglarida peshrav yaratgan; **Mavlono Nuriddin Abdurahmon Jomiy** – musiqiy risola bitganligi xususida ma’lumot berib, shu bilan birga musiqada «Naqshi mullo» nomi bilan bog‘lagan naqshi taniqlidir, degan fikrlarni bayon etadi; **Mavlono Binoiyning** – ilmda va musiqada o‘z davrining noyob bilimga ega bo‘lgan kishilardan ekanligi va bir qator naqshlar va savtlar bog‘lagan deb, xonandalar orasida uning muxammas usuliga asoslangan va Rost sho‘basida tuzgan «Savt ul-Naqsh» naqshlari mashhur bo‘lganligini ham e’tirof etib o‘tadi.

**G‘ulom Ali Shunqor** – musiqada davrining betakror bilimdonlaridan biri. Tutuq begim xizmatida bo‘lim, o‘zining ijodini, savt-u naqshlarini unga bag‘ishlagan. Turkiy zerb usuli asosida, dugoh ohanglaridagi «Savt-u naqsh» asari ham xalq orasida «Savt-u Nashiq begin» nomi bilan keng ommalashgan deb baho beradi; **Ustod Zaytun g‘ijjaki** – maqom ijodiyotida ko‘proq peshravlar bog‘lagan. Ulardan biri Husayniy maqomida davri saqil usuli asosidagi asardir.

**Xon Ahmad G‘iloniy** – musiqa ilmida, ijodiyotida va ijrochiligidagi unga teng keladigani bo‘lmagan, deb yozadi muallif. Ayniqsa, ud cholg‘usi ijrochiligidagi mohirligi alohida qayd etib o‘tiladi. Musiqa ijodiyotida ko‘p peshravlar yaratganligi va o‘z zamonasining xotirasida qolganligi xususida bayon etadi. Ayniqsa, muhammas usulida Panjgoh zaminida yaratgan «Peshravi Isfahon» asari mashhur ekanligini izohlaydi.

**Mavlono Axi Hitoriy** haqida qiziq ma’lumot keltiriladi. Ustoz Darvish Shodiyning qalamiga mansub ilk asarlarni keltirar ekan, shunday yozadi: «Iroq pardalariga asoslangan «Savt»ni Rost-Panjgoh ladiga o‘girib, Zarbi Turk usulida soldi». Bu, albatta, bastakorlik

ilmining qayta ishlash bilan bog‘liq amallarini ko‘rsatuvchi dalillar deb qabul qilish lozimdir.

**Mir Ali Akbar Samarqandiy** – o‘z davrining musiqa dunyosidagi noyob iste’dod sohibi bo‘lgan. Undan betakror naqshlar va savtlar, qavl va korlar davrining betakror musiqiy durdonalari sifatida meros bo‘ldi.

Hirolik **Amir Masti Qobuziy** – ustoz san’atkor, bir qator naqshlar bog‘lagan, musiqaning 17 usulida aqlni oluvchi ohanglarni ijro etgan, tinglovchilar qalblarini eritishga tuyassar bo‘lgan ustoz sozanda. O‘z yurti Hiro, Ustozi Jomiy, Buxoroda esa bir qator sozanda va xonandalarga ustozlik qilgan.

Risolada muallif bastakorlar haqida so‘z yuritar ekan, ularning sozandalik, xonandalikda, usulda va she’riyatda tutgan o‘rinlari xususida ham tavsiflar berib o‘tadi. Yaratgan musiqiy asarlarining aniq nomini keltirib, o‘ziga xos izohlar beradi. Xususan:

**Ustod Shodi** – iroq maqomida va far usuli asosida 12 ta naqsh yaratgan bastakor va mohir sozanda (qo‘biz ijrochisi) bo‘lgan. «Sunbuli» – muhammas usulida, «Mohi Hilol» – zarbi turk usulida, «Dili shisha» – davri shohi usulida, «Xunxura» – muhammas usulida shular jumlasidandir.

**Ustod Shox Quli G‘ijjakiy** – o‘z davrining mohir sozandası (g‘ijjakchi), ko‘pgina naqsh va Savtlar ijod etgan bastakor.

**Xo‘ja Yusuf Andijoniy** – o‘z davrining musiqa bilimdoni, sozanda va bastakori. Zarbi Turk usulida navro‘z maqomida savtlar bog‘lagan.

**Ustod Ali Hasob** – maqom bilimdoni, bir qator peshravlar va naqshlar bastakori. «Alijub» va «Naygir» peshravlari tengsiz asarlar sifatida e’tirof etilgan.

**Alijon G‘ijjakiy** – xush ovoz sohibi, mohir g‘ijjakchi, bir qator naqsh va savtlar bastakori.

**Mavlono Najmiddin Kavkabiy Buxoriy** – musiqashunos, bastakor. Husayni maqomida Zarb ul-Fath, iroq maqomida chorzarb asarlari mashhur bo‘lgan.

**Samarqandik Mavlono Xo‘ja Muhammad ibn Abdulhasan Kavkabiy** – Mavlono Kavkabiyning shogirdi, naqsh va savtlar bastakori.

**Hofizbobo Qonuniy** – bir qator g‘azal va musiqalar bog‘lagan bastakor. Segoh ohangida, nimsaqil usulida yaratgan «Savt ul-amal»i o‘z davri sozandalari orasida mashhur bo‘lgan.

**Hofiz Turdi Qonuniy** – bir qator kulliyotlar bitgan bastakor.

**Mavlono Qosimiy Qonumiyl** – bir qator savt va naqsh hamda peshravlar yaratgan zamonasining betakror bastakori. Duyak usulidagi husayni maqomida ijod etgan «Noz-u G‘amza» peshravi keng ommalashgan va omadli asarlaridan biridir. Uning «Zarb ul-Fath» usuli, hijoz ohangida yaratgan «Davri dardi sar» asari ham bor.

**Ustod Sulton Muhammad Tanburiy** – bir qator peshrav va naqshlar bog‘lagan bastakor. Dugoh maqomi asosida yaratgan ikkita peshravi xalq orasida juda ommalashgan. Biri muhammas usulida, ikkinchisi dari saqil usulida.

**Mavlono Boqi Jarroh** – xush ovozli xonanda va bastakor. Davri Shohi usuli asosidagi rost maqomiga bog‘lagan savti o‘z davri san’atkorlari orasida mashhur bo‘lgan».

Muallif risolada bastakorlardan tashqari Hoja Navro‘z Hojagiy, Xoja Mahmud ibn Is‘hoq kotib, Hofiz Do‘sst Muhammad, Hofiz Boboyi Qonuniy, Hofiz Turdi Qonuniy, Hofiz Poyanda, Hofiz Shoh Muhammad Na’matak, Ustod Husayn Rumiy Udiy, Ustod G‘ijjakiy, Ustod Qurbonali Noyi, Ustod Muhibali Rubobiy, Poyanda Muhammad, Qosimali Qonuniy, Ahmad G‘ijjakiy, Hofiz Mahmud Qonuniy, Hofiz Boqijon, Hofiz Vazir, Hoja Mullo Muhammad Zangboz, Ustod Hasan Nay Nag‘masoz kabi 20 nafarga yaqin xonanda hamda sozandalar haqida so‘z yuritgan.

Darvesh Ali Changiyning musiqiy risolasi o‘zbek musiqasi tarixini o‘rganishda, tasavvur etishda muhim manba hisoblanadi.

**Amaliy mashg‘ulot:** Alisher Navoiyning Pahlavon Muhammad ijodiga bergen ta’rifi. Bastakorning ijodiyotida naqsh, savt, kavl, so‘fiya, amal janr va shakllardagi ijodi. Bastakor asarlarining «Chohorgoh», «Segoh», «Panjgoh» va shunga o‘xshash nomlar bilan atalishida, maqom yo‘llariga yaqinligi. «Holoti Pahlavon Muhammad» asari bayoni asosida Alisher Navoiyning musiqa borasidagi bilimining aks etilishi.

Darvish Ali Changiyning risolasi bilan tanishib chiqish. Risolada keltirilgan bastakorlar va sozanda-xonandalarning ijodini o‘rganish va iboralar, asarlar nomi, turkumlik jihatlari, janrlarga xoslik jihatlarini aniqlab bayon etish. Bastakorlar tomonidan musiqa ijodiyotining qaysi turlari bilan shug‘ullanganliklari xususida munozaralar olib borish.

**Tayanch so‘zlar:** Darvish Ali Changiy, musiqiy risola, bastakor, sozanda, maqom, «Shashmaqom», usul, sho‘ba, advor, tanbur, g‘jjak, ud, mutrib.

### Nazorat savollari

1. O‘rta asrlar musiqiy risolalaridagi o‘z davrining bastakorlik san’ati haqida so‘z yuriting.
2. Darvish Ali Changiyning «Musiqa risolasi»da bayon etilgan bastakorlar va ularning ijodi xususida fikr yuriting va hozirgi musiqa ijodiyoti bilan nazira qiling.
3. Darvish Ali Changiyning musiqa rivojiga qo‘sghan hissasini qanday izohlaysiz?
4. Risolada keltirilgan musiqiy janrlar bilan hozirgi davr janr va shakllarining umumiylilik jihatlarini so‘zlab bering.
5. Amir Temur va Temuriylar davrining musiqa rivojidagi o‘rni.
6. Alisher Navoiy asarlarida musiqa ilmi, amaliyoti va bastakorlik ilodiyoti qanday yoritilgan?

## **II bob. O‘ZBEK BASTAKORLIGIDA MAHALLIY USLUBLAR**

«Bastakor» iborasi fors-tojik so‘zlar birikmasidan hosil bo‘lgan bo‘lib, «basta» – bog‘lash, «kor» – ish, mashg‘ulot degan ma’nolarni bildiradi<sup>1</sup>. Musiqada bastakor – mumtoz musiqa yo‘nalishlarida, uslublarida badiiy asar yaratgan ijodkorlarga nisbatan qo‘llanilib kelinadi. Tarix davomida bastakorlar, ya’ni musiqa ijodi bilan shag‘ullangan ijodkorlar turli davrlarda va o‘zgacha nomlar bilan atalib kelingan. Jumladan, «O‘zbek va tojiklar – bastakor (shuningdek, ohangdon, navosoz va b.), ozarbayjon, arman va turklar – oshiq, qozoq va qirg‘izlar – oqin, kyuysi, salsere kabi atamalar ishlatishadi»<sup>2</sup>.

Bastakor iborasi negizida musiqa yaratuvchilik bilan bog‘liq bir qator amallarni o‘zida mujassam etgan turlar mavjud.

Musiqa ijrochiligidagi mohirlikka erishib, faqat o‘z ijrosi va uslubida musiqa ijod etganlar ham uchraydi, (ayniqsa, hozirgi davrga kelib bu yo‘nalish ancha ommalashgan<sup>3</sup>.

Bastakorlik ijodiyotida kuy bastalash bilan birga ushbu kasbning xususiyati bilan bog‘liq yana bir qator jihatlarni aks etuvchi amallarni qamrab oluvchilar ham mavjud. Azaldan ushbu kasb egalari ham xalq musiqa ijodiyotida o‘z o‘rniga ega ekanligi musiqiy risolalarda bayon etilgan. Jumladan, A.Navoiy asarlarida zikr etilgan «lahnpardoz», «nag‘mapardoz» so‘zlaridir.

Bastakorlikning turli an’analari asrlar osha ustoz-shogird an’analari negizida kamol topib kelgan. Asarlarning turli so‘zlar bilan aytishi yoki aksincha, cholg‘u yo‘llarining aytim yo‘llariga moslanishi, aytim yo‘llarini cholg‘u ijrochiligidagi talqin qilish an’analaringining

<sup>1</sup> I. Akbarov. Musiqa lug‘ati. – T., 1987. 40-b.

<sup>2</sup> O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. B harfi. 38,39-betlar.

<sup>3</sup> Jumladan, Nuriddin Hamroqulov, Ortiq Otajonov, Xayrulla Lutfullayev va h.k.

barchasi ijrochilik amaliyoti va ustozlarning an’anasiga aylanganligini e’tirof etish mumkin. Faqat har bir davr o‘z zamonasi va basta-korlik ijodiyotining rivojlanish bosqichlari darajasida bo‘lganligi muqarrardir. Eng muhimi, bastakorlik faoliyatining o‘ziga xos tarkibiy qismlari, ijrochilik ekanligidadir. Bastakorlik ijrochilik mezonini yaratib beruvchi omil bo‘lsa, bastakorlik o‘z o‘rnida ijrochilik mezonlarini ta’minlovchi sifatida alohida ahamiyatga egadir. Ijrochilik jarayoni sozandalik va xonandalikdan iborat bo‘lsa, uning zaminida barcha cholg‘u dunyosi vositachi sifatida xizmat qiladi. Bastakorlikning o‘zi ham ana shu jarayonlar, ya’ni ijrochilik va cholg‘ular dunyosining rivojlanish jarayoni mevasidir. Bu jarayon har bir xalq, millat va elatlar doirasida shakllanib, milliy qadriyatlar asosida rivojlanib kelingan.

Ma’lumki, o‘zbek bastakorlik ijodi ham turli davrlar rivojini o‘tagan va rivojlangan. Bastakorlikning keng qamrovligi, keng ko‘lamliligi, oddiy va marakkab jihatlar bilan sug‘orilganligida o‘ziga xos milliy an’analarni mujassam etgandir. O‘zbekiston hududida o‘zining lokal xususiyatlari doirasida 4 ta voha mavjud bo‘lib, o‘ziga xos mahalliy uslublar bilan ajralib turadi. Bular Buxoro-Samarqand; Xorazm; Surxondaryo-Qashqadaryo va Farg‘ona-Toshkent uslublaridir.

Ko‘p asrlar davomida rivojlanib, kamol topib kelgan o‘zbek bastakorlik ijodi, avvalo, xalqimizning ma’naviy dunyosiga mos rivojlanish jarayonini o‘tganligini e’tirof etish lozim. Buning negizida mukammal asarlar yaratilishi, ushbu sohada mahoratlari basta-korlar yetishib chiqqanini ko‘rsatadi. Ikkinchidan, bastakorlik ijodining keng qamrovligi hamda ijrochilik amaliyoti bilan bevosita uyg‘unligida soha keng ommalashib rivojlanganligini qayd etish mumkin. Bu, albatta, bastakorlik ijodining janr jihatidan keng qamrovlikda, joy, makon va zamon an’analari asosida o‘sib-boyib borishi hamda lokal xususiyatlarda rivojlanishi bilan xarakterlanadi. Natijada, har bir vohaning o‘ziga xos lokal an’analariga asoslangan mahalliy uslublari shakllanadi.

Odatda, muayyan vohaning ijtimoiy hayoti doirasida yuzaga kelgan barcha xarakterli xususiyatlari, qadriyatlari va an'analari mahalliy darajada ifoda etilgan jarayon *mahalliy uslub* deb yuritiladi. Bu jarayon ko'proq vohalarning so'zlashuv tilida yaqqol namoyon bo'lib, odatga ko'ra sheva iborasi bilan yuritilib kelinadi. Bu jarayon musiqa va musiqiy an'analarda ham o'z ifodasini topganligini alohida e'tirof etish lozim. Bunga yorqin misol, bastakorlik ijodining eng mukammal ko'rinishi bo'lgan maqom va maqom yo'llarida yaratilgan musiqiy janrlardir. Chunonchi, har bir vohaning o'ziga xos musiqiy, ijroviy va ijodiy xususiyatlari mavjuddir.

*Buxoro* bastakorlik ijodi musiqa an'analarida yuzaga kelgan namunalar, ya'ni «Shashmaqom», o'zining mukammalligi, shaklan, tarkiban muayyan tizimga asoslanganligi bilan o'zbek bastakorlik san'atida yetakchi o'rinni egallaydi. «Shashmaqom, – deb yozadi maqomdon olim I. Rajabov, – maqom janrining taraqqiy etilgan eng so'nggi shakli sifatida, bastakorlik san'atining va yuqoridagi musiqa risolalarida ko'rsatilgan kuy turi va shakllarining rivojlantirilishi natijasida yaratildi»<sup>1</sup>.

*Xorazm* mahalliy uslubi, avvalo, o'zining qadimiyligi bilan ahmiyat kasb etsa, mumtoz musiqa ijodiyotida yuzaga kelgan Xorazm maqomlari, dutor maqomlari, suvoralari bastakorlik ijodining yorqin namunalari sifatida o'zining vohaga xosligi va mukammalligini ko'rsatib turadi.

*Surxondaryo-Qashqadaryo* vohalarining mahalliy musiqiy an'analarida doston va termalar ijrochilik an'analari alohida o'rin egallagan.

*Farg'ona-Toshkent* vohasining musiqiy an'analari ham boy va keng qamrovlidir. Ushbu vohaga maqomlarga xos bo'lgan turkumlardan ashula va cholg'u turkumlari xosdir. «Toshkent-Farg'ona maqom shakllariga Bayot, dugoh husayniy, Chorgoh va Shahnozi-

---

<sup>1</sup> I. Rajabov. Maqomlar. – T., 2006. 150-b.

gulyor kiradi»<sup>1</sup> – deb bayon etgan I.Rajabov. Shu bilan birga I.Rajabov, «Shashmaqom» tarkibidagi maqomlar asosida yaratilgan «Nasrulloiy», «Ajam», «Miskin» kabi Farg‘ona-Toshkent ijro an’analarda mavjud ko‘plab turkumli asarlar maqomlarga xosligini e’tirof etib o’tgan.

Farg‘ona-Toshkent maqomlari bilan bir qatorda, katta ashula hamda maqom yo‘llariga xos cholg‘u musiqasi rang-baranglikda shakllangan. Farg‘ona vodiysi Marg‘ilon, Qo‘qon, Andijon, Namangan maktablari, maqom va katta ashula uslublariga xos lokal zonalarga boyligi bilan ajralib turadi.

O‘zbek bastakorlik ijodi, albatta, vohalarning o‘ziga xos lokal xususiyatlari asosida shakllanib rivojlanganligi doimo e’tirof etiladi. Buni faqat bitta doira usulining o‘zida ham ko‘rish, anglash va idrok qilish mumkin. O‘zbek ijro amaliyotida musiqaning o‘lchov-ritmik jihatini ta’minlab turadigan usullar turli va rang-barangdir. Faqtgina, Usto Olim Komilov zikr etgan «Katta o‘yin» usullar turkumining o‘zida 49 ta xilma-xil usul mavjud. Xalq ijrochilik amaliyotida, faqat «Ufor» usulining 30 ga yaqin turlari qo‘llanilib kelinadi. Lekin, har bir mahalliy uslubning ufor usulidagi ritmik shakli va talqin uslubi mavjud.

The image displays three musical examples, each enclosed in an oval. They are labeled "Xorazm ufori", "Buxorocha ufori", and "Farg‘onacha ufori". Each example shows a 6/8 time signature. The first example consists of six eighth-note pairs. The second example consists of six eighth-note pairs with some eighth-note pairs having a vertical bar line between them. The third example consists of six eighth-note pairs with some eighth-note pairs having a vertical bar line between them.

<sup>1</sup> I. Rajabov. Maqomlar masalasiga doir. – T., 1963. 255-b.

Vohaviy jarayonning o‘zida bir qator makon bilan bog‘liq uslublar paydo bo‘pganki, ular muayyan viloyatlar kesimida o‘zining xususiyatlari doirasida yuzaga bo‘lganligini namoyon etib turadi. Amaliyotda musiqiy an’analar negizida shakllangan ushbu jarayonga ijodiy mакtablar kesimida baho berib kelinadi. Jumladan, Samarqand, Andijon, Marg‘ilon, Qo‘qon, Buxoro, Toshkent bastakorlik maktablari.

XX asrga kelib o‘zbek bastakorlik ijodiyotida an’anaviy maqom ijodiyoti emas, balki shunga yaqin, lekin o‘zgacha yangi yo‘nalishdagi shakllarga asoslangan ijodiy uslublar yuzaga keldi. Lekin, an’anaviy uslubga ham umuman chek qo‘yligani yo‘q. Ayrim bastakorlar ijodiyotida yetuk, maqom yo‘llariga xos ijod namunalari oz bo‘lsa-da yaratilib turilganligini e’tirof etish lozimdir. O‘zlarining bastakorlik ijodini olib borgan aksariyat namoyandalar, bu sohaning an’analarini zamon ruhi bilan uyg‘unlikda talqin etib betakror asarlar yaratishga tuyassar bo‘ldilar. Samarqand bastakorlik maktabining namoyandalari Hoji Abdulaziz Abdurasulov, Doni Zokirov, Nabijon Hasanovlarning bastakorlik ijodlari bunga yorqin misoldir. Xususan, Hoji Abdulaziz Abdurasulov (1852–1936) o‘zining bastakorlik ijodi bilan yangi sahifa ochdi. Maqom an’analariga tayangan holda xalq, musiqa namunalari asosida bir qator mumtoz xarakterli asarlar yaratishga tuyassar bo‘ldi (bastakorlikda mакtab yaratgan va samarali ijod qilgan bastakorlar ijodiga alohida e’tibor qaratamiz).

O‘zbek bastakorlik ijodiyotining rivojiga katta hissa qo‘sghan maktablardan biri Andijon bastakorlik maktabidir. O‘ziga xos yangicha yondashishlarga asoslangan zamon bastakorlik ijodiyotida To‘xtasin Jalilov, Komiljon Jabborov, G‘anijon Toshmatov, Muxtorjon Murtazoyev kabi Andijon bastakorlik mакtabi namoyandalarining ijodiy faoliyati o‘z samarasini namoyon etdi.

XX asr o‘zbek musiqashunosligida bastakorlik ijodiyotini o‘rganish va shu san’atga oid risolalarning yozilishiga ham alohida e’tibor qaratildi. Bu mavzuga alohida yondashib, ilmiy tadqiqotlar

olib borgan I. Akbarov, F. Karomatov, M. Ahmedov, K. Olimboyeva, A. Jabborov, T.B. G'ofurbekov, O. Matyoqubov, R. Abdullayev, R. Yunusov, O. Ibrohimov, S. Begmatovlarning ijodini alohida ko'rsatish mumkin.

XX asrning so'nggi 20 yilligiga bastakorlik masalalari borasida qator maxsus tadqiqot ishlari olib borilgan. Xususan, Ilyos Akbarovning «To'xtasin Jalilov», M. Ahmedovning «Yunus Rajabiy», Fayzulla Karomatovning «O'zbek xalq musiqa merosi» (1–2-jild), K. Olimboyeva va M. Ahmedovlarning «O'zbek xalq sozandalari» 1–2-kitobi kabi asarlarda bastakorlik ijodiyoti borasida fikr yuritiladi. M. Ahmedovning «Doni Zokirov» monografiyasida zamonasining bir qator ustoz san'atkorlari va xalq bastakorlari xususida ma'lumotlar keltiradilar.

K. Olimboyeva va M. Ahmedovlar «O'zbek xalq sozandalari» kitobida Hoji Abdulaziz Abdurasulov, Komiljon Otaniyozov, Matyoqub Xarratov, To'xtasin Jalilov, Imomjon Ikromov, Komiljon Jabborov, Saidjon Kalonov, Nabijon Hasanov, Faxriddin Sodiqov, G'anijon Toshmatov kabi bastakorlarning hayoti va ijodi haqida umumiylar ma'lumotlar keltiriladi.

Tazkira xarakteriga ega bo'lgan A.H. Jabborovning kitoblari zamonamizning aksariyat kompozitor, bastakor va musiqa shunoslarining hayoti va ijodiy faoliyatları xususidagi ma'lumotlarni qamrab olganligi bilan qadrlidir.

Maxsus o'r ganilgan bastakorlar haqidagi dastlabki asarlardan biri professor F.Karomatovning monografiyasidir.

XXI asr boshlaridan boshlab xalq bastakorlari ijodini o'r ganish va yoritish masalalari keng ommalashdi. R. Yunusovning «Faxriddin Sodiqov», S. Begmatovning «Orifxon Hotamov», «Kamoliddin Rahimov», A. Zokirov bilan birga «Muxtorjon Murtazoyev», B. Do'stmurodov «Orifxon Hotamov» kabi monografiyalari, S. Xudoyberganovning Komiljon Otaniyozov ijodiga bag'ishlangan «Soz va so'z sohibi» monografiysi shular jumlasidandir.

**Amaliy mashg‘ulot:** O‘zbek bastakorlik ijodiyotida mahalliy uslublar talqini va o‘ziga xos jihatlari. Musiqiy namunalar orqali mahalliy uslublarga xarakterli bo‘lgan jihatlarni ochib berish. Mahalliy uslublar negizida bastakorlik ijodiyotida qo‘llaniladigan musiqiy iboralar, usullarning o‘ziga xosligi va turkumli asarlarda yetakchi hisoblangan «Saraxbor», «Tani maqom» kabi asarlarni tinglab vohaviy xususiyatlari tavsifini o‘rganish.

Buxoro-Samarqand, Xorazm, Surxondaryo-Qashqadaryo va Farg‘ona-Toshkent mahalliy uslublariga xos musiqiy namunalar bilan tanishish.

**Tayanch so‘zlar:** voha, mahalliy, lokal, uslub, maqom yo‘llari, turkum, suvora, katta ashula, cholg‘u yo‘llari.

### Nazorat savollari

1. O‘zbek bastakorligida qanday mahalliy uslublar mavjud va ularga tushuncha bering.
2. Mahalliy uslublarning o‘ziga xos jihatlari va janrlaridagi uyg‘unlik hamda janrlar ko‘lamni.
3. Mahalliy bastakorlik maktablar namoyandalari, ularning hayoti va ijodi xususida nimalarni bilasiz?
4. Xorazm, Buxoro va Farg‘ona bastakorlik maktablari namoyandalarini sanab o‘ting?



Madrahim Sheroziy va Mulla To‘ychi Toshmuhamedov.

## **2.1. BUXORO-SAMARQAND BASTAKORLIK MAKTABI**

Buxoro-Samarqand bastakorlik maktabi o‘zbek xalqining mumtoz musiqa merosining eng mukammal janri bo‘lgan maqomlar yaratilishida assosiy zamin bo‘lgan. Buxoro maqomlari ta’sirida o‘zbek mumtoz musiqa ijodiyotining boshqa vohalarda shakllanishi va rivojlanishi, turli janrlarga ta’siri va mumtozlik kasb etishini alohida qayd etish lozimdir.


XIX asrning ikkinchi yarmida Buxoroning musiqa ijodiyoti va ijrochiligi amaliyotida Mirzo Hidoyat, Mullaboy, Abdurahmonbek, Abdulxayr Mahmud, Mirbobo, Mirvose’ kabi musiqa bilimdonlari faoliyat olib borganlari xususida manbalarda ma’lumotlar zikr etilgan.

Qayd etish joizki, maqom san’ati Markaziy Osiyo miqyosida aynan Buxoroda shakllangan. Uning shakllanish jarayoni bir qator o‘ziga xos xususiyatlardan doirasida qaror topgan. Mukammal asarlar turkumi yetuklik va mohirlik bilan ijro etilgan ijrolar bir qator chig‘iriqlardan o‘tgandan so‘ng meros shaklida tarkib topadi. Asarlarning tarkib topishida ijrochilik an’analarining ta’siri beqiyosdir. Ijrochilik musiqiy merosning shakllanishida bitmas-tuganmas ilhom manbayi sifatida muhim ahamiyat va katta manba bo‘lib kelgan. Chunki bir-biridan o‘rnak, rang olib va boshqa xususiyat va sifatlaridan bahramand bo‘lib, «O‘xshatish», «Savt», «Nazira», ilhomlanish, qayta ishslash, moslashtirish kabi ijod uslublari orqali maqomlar va mumtoz musiqa namunalarining shakllanishida alohida o‘rin kasb etib kelgan.

XIX asr ikkinchi yarmi – XX asrning boshlarida yashab ijod etgan va ustozona musiqasining bilimdoni sifatida tarixga nomi bitilgan san’atkor, maqomdon hofiz Ota Jalol Nosirov Buxoro bastakorlik maktabining yorqin namoyandalaridan biridir.

## Ota Jalol Nosirov (1845–1928)

Buxoro maqomlarining bilimdoni, mohir tanburchi, zabardast hofiz Ota Jalol Nosirov 1845-yili Buxoroda tavallud topgan. Otasi Nosir ota masjidda muazzinlik vazifasida ishlagan. Xalq musiqa merosi, ayniqsa, maqom sho'balaridan xabardor kishi bo'lgan.



U yoshligidan musiqaga mehr qo'yadi, kasbni o'rghanish maqsadida davrining maqom bilimdonlaridan biri, mashhur xonanda Tillaboy hofizga shogird tushadi. Ota Jalol ustozidan Shashmaqomning «Nasr» bo'limiga tegishli bo'lgan qismlarini o'rghanadi.

Ota Jalol 20 yoshlarida saroy hofizligiga qabul qilinadi. U noyob iste'dodi hamda shirali ovozi bilan tez orada saroy ahli e'tiborini qozonadi. Shundan so'ng uni saroy musiqachilarining boshlig'i etib tayinlashadi. U o'z davrining nufuzli maqom ustozlaridan bo'lib yetishadi va Amir Muzaffarxon, Abdulahadxon va Olimxon saroylarida maqomchilar guruhiга rahbarlik qiladi. U faoliyati davomida mohir tanburchi va xonanda sifatida shakllanadi. Shashmaqomning cholg'u va ashula yo'llarini tartibli holda ijro etishga muyassar bo'ladi.

Ota Jalol Shashmaqomni ijro etish jarayonida unga ijodiy yondashadi. Uning faoliyatida ijodiy munosabatlар bo'lganligi xususida ayrim manbalarda bayon etiladi. Xususan, «Segoh» maqomiga mos savt bog'laydi va uni «Savti Jaloliy» deb nomlaydi. Bu borada A. Fitrat o'zining «O'zbek klassik musiqa va uning tarixi» risolasida quyidagi fikrlarni bayon etadi: «Segoh maqomida savt sho'basi yoq edi. Mashhur musiqachi Ota Jalol tomonidan mening tashviqim bilan 1922-yilda «Savt» bastalangan edi»<sup>1</sup>.

<sup>1</sup> A. Fitrat. O'zbek klassik musiqa va uning tarixi. – T., 1993. 24-b.

Ota Jalol XX asrning 20-yillarida Buxoroda ochilgan «Sharq mu-siqa maktabi»da faoliyat ko‘rsatadi. O‘z davrining nufuzli sozanda va xonandalariga maqom san’atini o‘rgatadi. «1923-yilda V.A. Uspenskiy tomonidan Buxoro «Shashmaqom»i notaga olinishida ham keksa ustoz eng asosiy tayanch vazifasini bajargan. V.A. Uspenskiy «Shashmaqom» mushkilot va nasrlarini notaga ko‘chirishda Ota G‘iyos Abdug‘ani, Abdurahmon Tanburiy (Umarov), Domla Halim Ibodov, Ma’rufjon Toshpo‘latov kabi qator atoqli sozandalar ijro-lariga asoslangan»<sup>1</sup>.

Buxoro «Shashmaqomi» 1924-yilda Abdurauf Fitrat tashabbusi ostida, Ota Jalol hamda Ota G‘iyos va V.A. Uspenskiylar bilan birga notaga ko‘chirilgan va «Olti musiqali poemalar» (Шесть музыкальных поэм) nomi bilan Moskvada nashr qilingan.

Ota Jalol 1928-yili Samarqand shahrida ochilgan Musiqa va xoreografiya ilmiy-tadqiqot institutida ustozlik faoliyatini olib boradi. Bu dargohda u Halim Ibodov, Hoji Abdulaziz Abdurasulov, Shodi Azizov, Shonazar Sohibov kabi bir qator san’at arboblariga hamda taniqli kompozitorlar bo‘lmish M. Ashrafiy, M. Burhonov, T. Sodiqov, Sh. Ramazonov va boshqalarga saboq beradi. Ota Jalol Nosirov 1928-yilda 83 yoshida Samarqandda vafot etgan.

### **Ota G‘iyos Abdug‘ani (1859–1927)**



Ota G‘iyos Abdug‘ani – Buxoro ijrochilik mактабининг yorqin namoyandasи, mashhur tanburchи va musiqashunos. Faoliyati davomida «Shashmaqom»ning mushkilot bo‘limiga tegishli aksariyat kuylar ijrochilигини mukammal egallagan. Ota G‘iyos uzoq yillar davomida saroy sozandasи sifatida faoliyat olib borgan. XX


<sup>1</sup> O. Matyoqubov. Maqomot. – T., 2004. 291-b.

asrning 20-yillarida Buxoroda ochilgan «Sharq musiqa maktabi»da sozandalikdan ustozlik qiladi. Asosan «Shashmaqom» cholg‘u yo‘llaridan saboq bergen, tanbur chalishni o‘rgatgan.

Ota G‘iyos ham 1923-yilda V.A. Uspenskiy rahbarlik qilgan «Shashmaqom»ning notaga yozib olinishida qatnashadi. U shu davrning taniqli hofizi Ota Jalol, maqom bilimdonlari Mirzanazrulloh Tanburiylar bilan birgalikda faoliyat olib boradi. Natijada notaga olingan Buxoro «Shashmaqom»i to‘plam bo‘lib, 1924-yili nashr etiladi. Ota G‘iyos o‘z davrida tanbur ijrochiligidagi o‘ziga xos maktabga asos soladi.

### **Hoji Abdulaziz Abdurasulov (1852–1936)**

Hoji Abdulaziz Abdurasulov XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshida yashab ijod etgan o‘zbek bastakorlik san’atining yorqin namoyandasasi, betakror ovoz sohibi, xonanda va sozanda, mumtoz yo‘nalishda bir qator asarlar yaratgan bastakor. U Samarqandda tug‘ilgan. Yoshligidan samarqandlik usta tanburchi Hoji Rahimberdi qo‘lida tarbiya oladi. Xalq yo‘llari, ayniqsa, «Shashmaqom» tarkibidagi cholg‘u va ashula yo‘llarini qunt bilan o‘zlashtirib ijodiy barkamollikka yetishgan. Hoji Abdulaziz Abdurasulov dutor va tanbur ijrochiligidagi faoliyat olib borgan. Ayniqsa, dutor sozini mohirona cherta olgan va dutor ijrochiligidagi o‘zining shaxsiy ijro uslubiga ega bo‘lgan. Uning ovozi esa beqiyos tembrga, kuchli, shiddatli va eng muhimi, ta’sirchanlik xususiyatlari ega bo‘lgan. «Shashmaqom» ilmini u Buxoroda mashhur san’atkori Ota Jaloldan o‘rganadi.



Faoliyati davomida u zamonasining zabardast san’atkori, mohir sozanda, xonanda va beqiyos bastakori hamda bir qator taniqli

shogirdlar tarbiyalagan ustoz darajasigacha yetadi. Uning yaratgan «Guluzorim» (A. Navoiy g‘azaliga Amiriyy muhammasi), «Gullar bog‘i» (Nodira g‘azali), «Bebokcha» (A. Navoiy so‘zi), «Bozurgoniy» (Fuzuliy g‘azaliga Vola muhammasi), «Samarqand Ushshog‘i» (Zebuniso g‘azali) ashulalari mukammalligi, o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. Bastakorning «Tarannum», «Sayli Qalandariy» kabi cholg‘u kuylari esa aynan dutor ijro yo‘llarining yorqin namunasiga aylangan. Bastakorning yaratgan asarlari o‘zbek musiqiy meros namunalariga aylanib, yosh avlodlar tomonidan katta ishtiyoyq va mehr bilan o‘zlashtirilib ijro etib kelinayotganligini e’tirof etish lozim.

Hoji Abdulaziz Abdurasulov musiqa bilimining o‘ziga xosligi, uning ijodidan o‘rin olgan asarlarida aks etgan. O‘zbek musiqa merosining qaysi janri yoki qaysi mahalliy uslubidan ta’sirlansa, ularga xos asarlar yaratishga erishgan. Uning «Bebokcha» asari Farg‘ona vodiysining yo‘nalishiga xos bo‘lsa, «Bozurgoniy» asari xorazmcha ohang-u sayqallarga boy, «Qurbon o‘zlan» Ozarbayjon mug‘omi uslubi asosida, «Guluzorim» esa haqiqiy Samarqand vohasining ijro an’analarini o‘zida jo etganligi bilan qadrlidir.

«Guluzorim» ashulasining shakli va rivojlanish tizimi maqom yo‘llariga xosdir. Buni biz kuy tuzilishi, lad va usul tizimida ko‘rishimiz mumkin. Asar maqomlarga xos (re) miksolidiy ladida yozilgan. O‘lchov-ritmik asosi esa 3/4 o‘lchovidagi mumtoz usulga asoslagan. Usulning o‘zi asarga ko‘tarinkilik baxsh etadi. Ehtiros va joziba nuqtayi nazaridan asarning sur’atiga qarab badihaviy yondashish imkoniyatlari mavjudligini qayd etish mumkin.

Asarning daromad qismida maqom ashula yo‘llariga xos barcha asosiy jihatlarga asoslanganligi namoyon. Asarda mavzusi ko‘rinishida, bastakorning xalqona uslubga xos original ohang yaratganligini ko‘rish mumkin. 1-misol:

M.M. ♩ =112

Do'st - la - rim (ay) bir no - za - nin  
(o) ish - qi bu hol  
et - mish me - ni, zul - f(i)  
sav do - si (ya) a - lif  
qad - dim ni dol (do - da) et - mish me - ni

Asarda shakliy bosqichma-bosqich rivojlanish tamoyili ham saqlangan va eng muhimi, bastakor maqom ijodkorlarining an'analariga xos avj tizimini qo'llagan. Unda nihoyatda zargarona uslubda «Zebo Pari» avji qo'llanilganligining guvohi bo'lamiz. Bastakor maqom an'analarini mumtoz ashula ijodiyotida erkin qo'llash mumkin ekanligi ustalik bilan ko'rsatib o'tgan. 2-misol:

Ishq et kur - mish me - ning  
dek tel - ba - ni (ya) bu yer - ga - kim  
te - shi - lur ko'k - si - m(o) ma - lo -



**Amaliy mashg‘ulot:** Buxoro bastakorlik maktabi namoyandalari. Ota Jalol Nosirovning ijodiy faoliyati. Hoji Abdulaziz Abdurasulov sozanda, xonanda va bastakor. Ijodiy uslubi xususiyatlari. Ashula ijodiyotiga maqomlarda qo‘llanilgan ko‘chma avjlarning kiritilishi va h.k. Yaratgan asarlaridan namunalar («Gullar bog‘i», «Bebokcha», «Bozurgoniy», «Guluzorim», «Samarqand Ushshog‘i», «Baxt yallasi», «Gilos», «Ofarin», «Ishqida», «O‘ynab o‘ting shabbodalar», «Sallamno», «Bil, o‘sha menman») tinglash va tahlil etish, uning musiqa san’ati rivojidagi o‘rni.

### Nazorat savollari

1. Buxoro va Samarqand bastakorlik maktabi haqida nimalarni bilasiz?
2. Ota Jalol Nosirovning maqom san’ati rivojiga qo‘shgan hissasi xususida aytib bering.
4. Hoji Abdulaziz Abdurasulov va Ota Jalol Nosirovlarning bastakorlik uslubi xususida fikr yuriting. Asarlarini tahlil qiling.
5. «Guluzorim» ashulasini kuylab bering va unda qo‘llanilgan avjlar haqida tushuncha bering.

## 2.2. TOSHKENT-FARG‘ONA BASTAKORLIK MAK TABI

### Imomjon Ikromov (1891 – 1980)



Taniqli sozanda va bastakor Imomjon Ikromov Toshkentning Beshyog‘och dahasida 1981-yilning 29-aprelida tavallud topgan. Yoshlik chog‘laridan musiqaga mehr qo‘yib tanbur, dutor va g‘ijjak cholg‘ularida ijro etishni o‘rganadi. Ilk ustozi g‘ijjakchi sozanda Solixon Hoji bo‘lgan. U boshlang‘ich ta’limni maktab va madrasada

oladi. 1918-yili Turkiston xalq konservatoriyasida o‘qib, zamonasining mashhur san’atkorlari Mulla To‘ychi Toshmuhamedov va Shorahim Shoumarovlarning ta’limini oladi.

1923-yili o‘qishni bitirib Yunus Rajabiy, Rizxi Rajabiylar bilan birga Samarcand pedagogika bilim yurti qoshidagi musiqa maktabida ishlaydi. Muallimlik qilish bilan birga, mashhur sozanda va xonanda Hoji Abdulaziz Abdurasulovdan saboq oladi. Ota Jalol Nosirov, Halim Ibodov ijro an'analarini o‘zlashtiradi, kompozitor, musiqashunos olimlar N.Mironov, V.Uspenskiy, E.Romanovskayalar bilan tanishadi.

Imomjon Ikromovning bastakorlik faoliyati aynan Samarcandda boshlanadi<sup>1</sup>. U spektakllarni musiqali bezash orqali musiqa ijodiga kirib keladi. 1927-yildan boshlab uzoq yillar davomida Toshkentda o‘zbek radio qoshidagi o‘zbek xalq cholq‘u ansamblida sozanda va musiqali eshittirishlar muharriri lavozimida ishlaydi. Bastakorlik sohasida ham vatan, tinchlik, sadoqat mavzularida bir qator kuy va qo‘shiqlar yaratadi. 1933-yili yaratgan «So‘lim» ashulasi uning bastakor sifatida tanilishiga sabab bo‘ladi. «So‘lim» ashulasi shoir G‘iyos Soatiy g‘azaliga yozilgan bo‘lib, mumtoz musiqa an'analariga asoslangan va lirik yo‘nalishda yaratilgan asarlardan edi.

Imomjon Ikromov bastakorlikda tinmay izlanadi. Ozod vatan madhi, mehnat va mehnatkashlarni ulug‘lash kabi mavzularda bir qator kuy va qo‘shiqlar yaratadi. «Paxtakorlarga», «Davri davronim go‘zal», «Vatan mehri» «Aziz Vatan», «Olqish», «Sadoqat» kabi asarlar shular jumlasidandir. Bastakor o‘z ijodida mumtoz shoirlardan Navoiy, Bobur, Mashrab, Furqat va Muqimiylarning betakror ijodlari bilan birga, zamonaviy shoirlarning ijodida tez-tez murojaat etadi.

Ustozlar an'analaridan ilhomlangan Imomjon Ikromov musiqiy merosimizning betakror durdonalarini mukammal o‘zlashtiradi. Musiqaga nisbatan ijodiy yondashib bir qator kuylarning ashula

<sup>1</sup> H. Ikromov. Bastakorning murodi. // I. Ikromov. Sarvi gulro‘ kelmadi. 1-kitob. – T., 1986. 5–12-betlar.

variantlari ustida ijod qiladi. Natijada «Munojot», «Cho‘li Iroq» va «Ajam» kuylarining ashula variantlarini yaratadi. Aslida o‘zbek cholg‘u musiqa merosining yetuk asarlari hisoblangan ushbu namunalar xalqimizning milliy ma’naviyati, dardi, g‘ururi, shodligi va ichki kechinmalarining ohanglaridagi ifodasidir. U xalq ijrochilik an’analarini teran idroklagan, cholg‘u musiqasining an’analarini yaxshi bilganligi ushbu asarlarni ashula yo‘lida yanada boyitishga undaydi. U Alisher Navoiy ijodiga murojaat etib, aynan kuyning xususiyatlariga mos g‘azallarni tanlaydi va bu asarlarni ashula yo‘liga soladi. Alisher Navoiyning «Sarvi gulro‘ kelmadi» radifli g‘azalini «Munojot» kuyiga soladi. 3-misol:

«Kecha kelgumdir debon, ul sarvi gulro‘ kelmadi,  
Ko‘zlarimga kecha tong, otguncha uyqu kelmadi».

Ke - cha kel - - - - gum - dur de - b(on)  
Lah - za lah - za chiq - di - mu - - - -

- o - n ul sar - vi gul ro' kel - ma - di (ye) -  
Chek - dim yo' - li da kel - ma - di (ye) -

- Ko'z - la - rim ga ke - cha tong -  
- Kel - di - jon og' zim - g'a - yu -

ot - gun - cha uy qu kel - ma - di  
ul - sho' - xi - bad xu kel - ma - di

(e) ha ha [2.]

A. Navoiyning «Diloromimga ayt» g‘azalini xalqimizning sevimli kuylaridan biri «Cho‘li Iroq» kuyiga soladi.

Ey nasimiy subh, ahvolim diloromimg‘a ayt,  
Zulfi sumbul, yuz gul, sarvi gulandonimg‘a ayt.

Qayd etish joizki, bastakor bu holatda «Cho‘li Iroq» kuyining asosiy mavzusidan kelib chiqqan va o‘zining bastakorlik iste’dodi asosida o‘ziga xos yo‘lni yaratgan. 4-misol:

Bir pari-paykar g‘ami oshufta hol etmish meni,  
Elga ahvolim demaktin gungu lol etmish meni

The musical notation consists of four measures of music. The first measure starts with a quarter note 'Ey', followed by eighth notes 'na - si' with a fermata over the second note. The second measure starts with a quarter note 'vo', followed by eighth notes 'lim di - lo' with a fermata over the third note. The third measure starts with a quarter note 'ro', followed by eighth notes 'mim - g'a' with a fermata over the second note. The fourth measure starts with a quarter note 'Zul - fi', followed by eighth notes 'sun - bul' with a fermata over the second note. The fifth measure starts with a quarter note 'yu - zi', followed by eighth notes 'gul,' with a fermata over the second note. The sixth measure starts with a quarter note 'sar - vi', followed by eighth notes 'gu - lan' with a fermata over the second note. The seventh measure starts with a quarter note 'do -', followed by eighth notes 'mim - g'a' with a fermata over the second note. The eighth measure ends with a quarter note 'ayt.'

so‘zlari bilan bitilgan «Bir pari» g‘azalini «Ajam» kuyiga solib, ashula variantlarini yaratadi. Ushbu ashulalar cholg‘u kuylar asosida ishlangan bo‘lsa-da, har birining o‘ziga xos yondashuvini anglash qiyin emas. Ohang rivojining ashula shakliga moslashgani asarlarga yangitdan ko‘rinish, o‘zgacha munosabat va mazmun baxsh etgan. Ushbu asarlar o‘zbek cholg‘u ijrochiligining eng sara namunalari sifatida nay, tanbur, dutor, g‘ijjak, rubob, chang cholg‘ularida betakror ijrolarda talqin etilib kelingan. Imomjon Ikromovning qayta ishlagan ashula namunalari ham 40-yillardan boshlab

o‘zbek xonandalik san’atini bezab, zamonasining yetuk hofiz va xonandalari tomonidan talqin etilgan. Shu bois bo‘lsa kerak, bu asarlar xalqimizning ijro amaliyotida shoh asarlar, musiqiy merosida betakror namunalar sifatida e’zozlanib kelinadi.

Bastakor ushbu asarlar bilan, Alisher Navoiy o‘z asarlarida qayta-qayta keltirgan bastakorlik san’atining «nag‘mapardozlik» jihatlarini bizning tasavvurimizga yorqin misol sifatida namoyon etib beradi. Imomjon Ikromov o‘zbek bastakorlik ijodiyotining o‘ziga xos 4 yo‘nalishida asarlar yaratib, noyob asarlarni meros qilib qoldiradi. Mumtoz musiqalarini qayta ishlab hayot baxsh etish, ya’ni nag‘mapardozlik bir yo‘l bo‘lsa, mumtoz yo‘lidagi asarlarni yaratish ikkinchisi, kuy va qo‘shiqlar bastalash uchinchisi bo‘lib, to‘rtichidan, kompozitorlik amallariga xos asarlarni yaratishga ham munosib qo‘l uradi.

Mumtoz asarlar namunalarida uning lirik ashulalari alohida o‘rin egallaydi. Navoiy, Bobur, Mashrab, Furqat, Muqimiyl kabi mumtoz she’riyatimiz namoyandalarining baytlariga bitilgan «Ul qaro ko‘z», «Aylay desam», «Topilmas», «Bir kelsangiz», «Qoldimu», «Aylay desam», «Qosh-u qarosini ko‘ring», «Kim desun» kabi ashulalar ijro amaliyotida o‘z o‘rnini topib, xonandalar tomonidan yuksak darajada ijro etilib kelinmoqda. Bastakorning zamonaviy shoirlar bilan hamkorligi, davrining ilg‘or san’atkorlari bilan olib borgan ijodiy ishlari, davr talabiga mos yangidan yangi qo‘shiqlar yaratishga asos bo‘lgan. Uning «O‘zbekiston», «Yali-yali», «Mirzacho‘l qahramonlariga», «Onam derman», «E’zoz qiling», «Do’st bilan», «Uzma do’stlik torini», «Indamadi», «Takasaltang», «Uchradim», «Qo‘lda ra’nosи bilan», «Jon bo‘libdi, jonon bo‘libdi», «Gul teraman saralab», «Zeboga xos» kabi o‘nlab qo‘shiqlari ijro amaliyotida o‘z o‘rnini topib xonandalarning ijro repertuarini boyitdi.

To‘rtinchchi yo‘nalish o‘zbek musiqa ijodiyotining yangi bosqichi bo‘lib, Yevropa ijodiy an’analariga xos asrlar bilan izohlanadi. XX asarning 30-yillaridan boshlab bastakorlik bilan shug‘ullangan har

bir ijodkor professional ta’lim olgan va turli janrlarda musiqiy asarlar ijod etgan. Imomjon Ikromov ham bu borada bir qator asarlar bilan o‘zining ijodiy faoliyatini boyitadi. Xususan, bastakor tomonidan yaratilgan «Farhod», «Ohangaron», «O‘zbekiston» cholg‘u syuitalarini aynan kompozitorlik uslubida yaratishga muvaffaq bo‘ladi.

Imomjon Ikromov o‘z ijodi bilan o‘zbek bastakorlik san’atini o‘tmish an’analariga xos, zamonga mos rivojlanishini ta’minlovchi va avlodlarni tarbiyalovchi asarlari yaratib musiqiy merosimizga bir qator asarlarni meros qilib qoldirishga tuyassar bo‘lgan. Uning xizmatlari davlatimiz tomonidan munosib taqdirlandi. Yaratgan asarlari xalqimiz tomonidan ardoqlanib, yoshlarimiz ijro repertuaridan munosib o‘rin egallab kelmoqda.

### To‘xtasin Jalilov (1896–1966)

To‘xtasin Jalilov<sup>1</sup> o‘zbek musiqa san’ati rivoji ulkan hissa qo‘shtigan g‘ijjakchi sozanda va mashhur bastakordir. U o‘zbek musiqa ijodiyotining barcha janrlarida o‘ziga xos asarlar yaratishga tuyassar bo‘lgan. Xalq yo‘lida qo‘shtiq, kuy va ashulalar, ayniqsa, 30 ga yaqin musiqali dramalarning muallifidir. XX asrning 20-yillaridan boshlab o‘zbek san’at namoyandalariga boshchilik qilgan va juda ko‘p shogirdlar tarbiyalagan. San’atkorlar orasida ustozlar ustozi nomini olishga muvaffaq bo‘lgan.



To‘xtasin Jalilov 1896-yili Andijon viloyatining Soyguzar dahasida, oddiy ishchi oilasida tug‘ilgan. Otasidan yosh yetim qolgan va qarindoshlari tarbiyasida, kosiblik ishi bilan kun

<sup>1</sup> I. Akbarov. To‘xtasin Jalilov. – T., 1978. 48-b.

kechirgan. Yoshligidan musiqani ko‘p tinglagan va musiqa san’ati shaydosi bo‘lgan. U shu davrning mashhur san’atkorlari Dehqonboy, Ashurali hofiz, Hayit Oxun tanburchi, Maqsud hofiz, Boltaboy hofiz, Mamatbobo, Usta Ro‘zimatxon, Mulla To‘ychi hofiz, Madumar hofiz, Hamroqul qori kabi ustozlarning ijrolarini qunt bilan o‘rgangan. Ularni ko‘p tinglab, shularga ergashib san’atkor bo‘lishni orzu qilgan edi. Yoshligidan ushbu san’atkorlarining repertuarlarini o‘zlashtirgan. Zero uning keyingi hayotida bu saboqlar eng asosiy ijodiy omil sifatida xizmat qiladi. To‘xtasin Jalilov faoliyatining boshlaridanoq mumtoz musiqaga ahamiyat bergenligining ham sababi shundan bo‘lgan bo‘lsa, ajab emas.

U 1918-yildan boshlab Andijonda san’atkorlar jamoasi qatorida faoliyat ko‘rsata boshlaydilar. Jamoada davrning mashhur san’atkorlari Orif garmon Toshmatov, Berkinboy va Dehqonboy hofizlar, Hayit Oxun, Rustam mehtar kabi bir qator sozanda va xonandalar faoliyat yuritishgan. 1923-yildan boshlab ansamblga rahbarlik qilish uning zimmasiga yuklatiladi. Sababi uning «quvvayi hofizasi» kuchli va milliy musiqa merosini juda yaxshi o‘zlashtirganligi hamda har qanday asarning to‘g‘ri va noto‘g‘ri ekanligini ayta olganligida edi. Shundan so‘ng umrining qolgan qismini musiqachilarga yetakchilik, ustozlik va rahbarlik qilib o‘tkazdi.

30-yillardan uning faol sozandalik va san’atkorlarga rahnamolik faoliyati boshlanadi. Xususan, 1934–1936-yillarda Toshkent o‘zbek davlat musiqali teatrida dirijor va musiqa rahbari, 1937-yilda O‘zbek davlat filarmoniyasida Milliy ashula va raqs ansamblining badiiy rahbari, 1941-yildan umrining oxirigacha Muqimiy nomidagi musiqali drama va komediya teatrida faoliyat olib bordi. Teatrda badiiy rahbar, so‘ngra teatrni bir necha yillar davomida direktor lavozimida boshqaradi. To‘xtasin Jalilovning ish faoliyati ijodga maskanidek, doimo qizg‘in, ijod chanqoqligi va zamon talabi doirasida faoliyat

olib borishlikni talab etganligi uning ijodiy faoliyatidan ko‘rinib turadi. Zero, bu jarayon u uchun ijodiy laboratoriya bo‘lib xizmat qilgan. Har nafasda yangi asar, yangicha munosabat talab etuvchi o‘zbek san’atining rivojlanish yo‘li bastakorni turli janrlarda va faol tarzda ijod etishga undab keldi.

Aslida Andijon bastakorlik maktabida tarbiyalanib yetishgan To‘xtasin Jalilov o‘z ijodida 100 dan ortiq asarlar yaratishga muvaffaq bo‘lgan. Uning asarlarida haqiqiy o‘zbekona shiddat, joziba, dard, hayajon, sharqona sir, yangilikka intilish kabi unsurlar mujassam topgan. Bunga «Otmagay tong», «O‘ynasin», «Parvona bo‘libman», «Bahor ayyomida», «Yolg‘iz», «Ishq seli», «Qora ko‘z», «Gulistonim mening», «Kuylasam» kabi asarlarini misol qilish mumkin. Har bir asar o‘zining shakl va dramaturgik tarkibi nuqtayi nazaridan mukammalligi bilan alohida ajralib turadi va qayd etish joizki, bastakorning aksariyat ashulalari musiqiy dramalar uchun ishlangan. Shu bilan birga, uning asarlarida bastakorlikda endigina rasm bo‘layotgan Yevropa musiqasining shakliy an‘analari ham o‘zbekona ohanglar va jozibalar asosida ko‘rina boshlaganini qayd etish mumkin. Jumladan, uning ilk asarlar va ijodida alohida urg‘u bilan amaliyotga kirib kelgan «Signal» asarini misol qilish o‘rinli.

«Signal», birinchidan, o‘zbekona ohanglardagi sho‘x, jo‘shqin, erkin asar. Ikkinchidan, marsh uslubida yaratilgan. Uchinchidan, o‘zbek va rus ohanglarining o‘ziga xos uyg‘unligida yaratilganligi bilan yangi asar sifatida gavdalangan. Marsh usuli davrning jo‘shqinlikka chorlovchi xarakterdagи asari sifatida keyingi bastakorlar ijodida keng ommalashib borgan. To‘xtasin Jalilovning «Signal»<sup>1</sup> asari ham bunga yorqin misoldir. 5-misol:

---

<sup>1</sup> I. Akbarov. To‘xtasin Jalilov. – T., 1978. 48-b.

**Allegretto**

The musical score consists of six staves of music. The key signature is G major (one sharp). The time signature is common time (indicated by 'C'). Measure 5: The first staff shows eighth-note pairs. Measures 6-7: The second staff shows eighth-note pairs. Measures 8-9: The third staff shows eighth-note pairs. Measures 10-11: The fourth staff shows eighth-note pairs. Measures 12-13: The fifth staff shows eighth-note pairs. Measures 14-15: The sixth staff shows eighth-note pairs. Measures 16-17: The first staff shows eighth-note pairs. Measures 18-19: The second staff shows eighth-note pairs. Measures 20-21: The third staff shows eighth-note pairs. Measures 22-23: The fourth staff shows eighth-note pairs. Measures 24-25: The fifth staff shows eighth-note pairs.

«Signal» asari birinchi variantda kuy shaklida yaratilgan. Marsh uslubi o‘zbekona ohangda yaratilganligi va sinkopali ritmik (2 va 4-taktlar) tuzilmadagi ohanglar qo‘llanilganligi kuyga o‘ziga xos joziba baxsh etgan. Asar ijro amaliyotida, ayniqsa, damli cholg‘ular orkestri ijrosida keng ommalashdi. Bu esa kuyning qo‘sishqqa aylanishi uchun zamin yaratdi va unga munosib so‘z qo‘yildi. Amaliyotda «Signal» asarining cholg‘u va ashula variantlari hozirgacha o‘z mavqeyini saqlab kelmoqda.

Bastakorning uslubida xalq musiqalaridan foydalanish omili juda ustalik va mahoratli qo‘llanilganligini e’tirof etish lozim. To‘xtasin Jalilov har qanday jozibali asarning yangicha variantini yaratishga eng mohir va usta bastakorlardan hisoblangan.

Jumladan, uning «Dovruq» ashulasi o‘zbek musiqa ohanglari va usullari asosida yaratilgan. «Gulistonim mening» ashulasiga esa «Talqini Bayot»ning bosh mavzusi asos qilib olingan. Bu jarayon bastakorning spektakllarga musiqa yaratish jarayonida juda keng qo‘llanilganligini alohida qayd etish lozimdir. Masalan, «Muqimiy» spektaklidagi bosh qahramon Obidaxonning «Oshkor» ashulasi xalq qo‘shtig‘i bo‘lgan «Galdir» asosida ishlangan.

Bastakor ijodida nafaqat ohang yoki kuylar mavzulariga asoslangan asarlar, balki maqom shakllari va yo‘llarini keng qo‘llaganligini ham kuzatish mumkin. Jumladan, «Tohir va Zuhra» musiqali dramasidagi bosh qahramon Tohirning «Ayirmish» ariyasidir. 6-misol:

A musical score in 3/8 time, treble clef, featuring a single melodic line. The lyrics are written below the notes. The melody consists of eighth and sixteenth notes.

A-yir-mish o‘z-ga - lar rash - ki me-ning yo - ru di - yo - rim-dan  
 Va le-kin aj-ra - tol - mas bu ju - do - lik ix-ti - yo - rim-dan

Ariya o‘zbek mumtoz musiqasi, ya’ni maqomlarning ikkinchi guruh sho‘balarining talqin usuliga asoslangan bo‘lib, uning tarkibiga, ohangiga va usuliga xos holda yaratilgan.

Mazkur spektakldagi Xorazm shohining qizi Mohimning «Izlaring» ashulasi uyg‘ur xalq musiqasi ohanglari asosidan yaratilgan. 7-misol:

A musical score in 4/4 time, treble clef, featuring a single melodic line. The lyrics are written below the notes. The melody consists of eighth and sixteenth notes.

Iz - la - ring o‘p - moq - qa Xo - razm ich - ra har gul zor zor  
 Boq - ma - sang ho - lim - g‘a jis - mim jo - ni - dan be - zor zor

Har bir asar o‘zining shakl va dramaturgik tarkibi nuqtayi nazaridan mukammalligi bilan alohida ajralib turadi. T.Jalilov 30 ga yaqin musiqali dramalar (G.Mushen, A.Kazlovskiy, G.Sobitov, B.Nadejdin hamkorligida) va «Tohir va Zuhra» operasi (B. Brovsin bilan hamkorlikda) muallifidir.

To‘xtasin Jalilov ijodi o‘zining buyukligi bilan ahamiyatlidir. Bastakor haqida musiqashunos olimlar I. Akbarov, K. Alimbayeva va M. Ahmedov, A. Jabborovlar o‘zlarining monografiya va tazkiralalarida atroflicha ma’lumotlar bergenlar. Bu adabiyotlar bastakor haqida to‘la tushunchaga ega bo‘lishda asosiy adabiyot sifatida xizmat qilishi mumkin.

### **Yunus Rajabiy<sup>1</sup> (1897–1976)**



XX asr o‘zbek san’atiga ulkan hissa qo‘shgan san’atkorlar sulolasining sarboni Yunus Rajabiy 1897-yilda Toshkent shahrining Chaqar mahallasida tavallud topgan. Musiqa sabog‘ining ilk qadamlarida u dutor va nay cholg‘ularida mashq qila boshlaydi. Yosh iste’dod egasiga ustozlarning e’tibor bergenligining sababi, uning xotirada saqlab qolish qobiliyati o‘ta kuchli bo‘lganligida edi. Darhaqiqat, u musiqiy asarni bir tinglashda boshidan to oxiragacha esida saqlab qoladigan darajadagi «quvvayi hofiza»ga ega bo‘lgan. Bu uning saboq jarayonida o‘zini namoyon etganligi manbalarda bayon etilgan. Yosh Yunusbek bog‘ qo‘shnisi bo‘lgan andijonlik Mirzaqosim hofizdan Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llariga mansub ashulalarni, xalq orasida mashhur maqom namunalarini eshitib o‘zlashtirib boradi.

---

<sup>1</sup> Mahmud Ahmedov. Yunus Rajabiy. – T., 1967.

Yosh iste'dod egasi ana shu tariqa tinglovchilar davralariga kirib boradi. Shu paytlarda xalqimizning sevimli asarlariga aylangan «Ajam», «Eshvoy», «Kurd» kabi qator kuylarni ijro etadi. Musiqa olamiga sozanda sifatida kirib kelgan va xonandalikdan xabari bo‘lgan Yunus Rajabiy o‘z davrining dongdor hofizlari nazariga tushadi. Mulla To‘ychi hofiz Toshmuhamedov, Shorahim Shoumarov kabi musiqa bilimdonlari va mohir xonandalarining e’tiborini qozonadi va katta san’at dargohiga qadam qo‘yadi. Uning shakllanish davrida ustozlar nazariga tushgan muhim jihatlaridan biri, Yunus shogird bo‘lib ustozlarining mehrini qozongan, ustozlari o‘gitiga amal qilib ulardan unumli foydalangan.

Yunus Rajabiy 1919-yili Toshkentda tashkil topgan «Turkiston xalq konservatoriysi»da ta’lim oladi. 1923-yili esa o‘qishni bitirib, akasi Rizxi Rajabiy, Imomjon Ikromov va Ismat changchilar bilan Samarqand bilim yurti qoshida ochilgan musiqa maktabida muallimlik qiladi. Samarqandda mashhur hofiz Hoji Abdulaziz Abdurasulovdan saboq oladi. «Shashmaqom» ijrochiliginin, Samarqandga xos ashula yo‘llarini o‘zlashtiradi. Xususan, «Buzruk», «Iroq» va uning taronalarini, «Ushshoq» va uning barcha namunalarini, «Guluzorim», «Bebokcha», «Bozurgoniy», «Gullar bog‘i» kabi ustozning asarlarini, «Shashmaqom»ning bir qator qismlarini o‘zlashtirishga muvaffaq bo‘ladi. Mana shu davrdan boshlab ustozlarning sabog‘i va hamkorlikdagi faoliyati asosida uning bastakorlik ijodi boshlanadi. Avvaliga xalq musiqalarini moslashtirish va qayta ishlash usullarini maromiga yetkazib bajaradi.

1925–1926-yillari Samarqand musiqali teatrida musiqa rahbari bo‘lib faoliyat olib borish jarayonida, «Abulfayzxon», «Yorqinoy», «Padarkush» spektakllarini musiqalar bilan bezab, ijro etishga muyassar bo‘ladi. 1926-yili «Layli va Majnun» (Sh. Xurshid pyesasi) dramasiga musiqa bastalaydi.

Yunus Rajabiy 1927-yildan endigina tashkil etilgan O‘zbekiston radio qo‘mitasida ish faoliyatini boshlaydi. Ansamblda Shorahim Shoumarov, Mulla To‘ychi Toshmuhamedov, Halim Ibodov, Imomjon Ikromov kabi bir qator zamonasining dongdor san’atkorlari faoliyat olib borganlar. Mana shu yillardan boshlab Yunus Rajabiyning sozanda va xonandalar ansambliga rahbarlik faoliyati boshlanadi. Bu, albatta, uning bastakorlik ijodini jonlantirishga sabab bo‘ldi. Aynan shu davrda uning ilk asarları, ya’ni «Chamanzor», «Yoshlar marshi», «Gulbog‘lar» va «Yor ila» kabi bir qator kuy va ashulalari yaratiladi.

1930-yillarning ikkinchi yarmidan O‘zbekiston san’ati va adabiyoti kunlari tez-tez tashkil etilib turila boshlandi. Bu esa o‘zbek bastakorlarini yangi asarlar yaratishga undardi. Ko‘pchilik bastakorlar qatorida Y. Rajabiy ham shu davrlarda «Yor mehri» (A. Navoiy), «Muncha ham» (Muqimiy), «Hajringda» (Furqat), «Muhabbat dashti» kabi qo‘shiqlarni yaratishga muyassar bo‘ladi. Buning natijasida u 1938-yili O‘zbekiston kompozitorlar uyushmasiga a’zolikka qabul qilinadi. 1939-yili esa unga «O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san’at arbobi» faxriy unvoni beriladi.

Yunus Rajabiy 1927-yildan 1942-yilgacha va 1945–1953-yillar mobaynida O‘zbekiston radiokomiteti qoshidagi o‘zbek xalq cholg‘ulari va ansambl rahbari, keyinchalik esa xalq cholg‘ulari orkestri tashkilotchisi va badiiy rahbari lavozimlarida faoliyat olib boradi. 1955-yildan 1959-yillargacha davomida Yunus Rajabiy o‘zining folklorshunoslik ilmida olib borgan ishlarini tarixga muhrlashga erishadi. Ya’ni 1500 dan ortiq xalq kuy va ashulalari, yalla va laparlari, terma va dostonlaridan namunalarni hamda «Shashmaqom»ning nota namunalarini besh jilddan iborat «O‘zbek xalq musiqasi» kitoblarida nashr etadi.

Xususan, musiqiy merosimizning aksariyat namunalari «O‘zbek xalq musiqasi» kitobining 1–4-jyllarida o‘z ifodasini topgan. Bu

jildlarning har biri uch ulkan bo‘limlarda bayon etilgan bo‘lib, birinchi bo‘lim Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llari, maqom yo‘llarida yaratilgan yirik cholg‘u va ashula asarlarini qamrab olgan. Ikkinci bo‘limda vogelikka asoslangan, qadriyatlar, an’analar, xalq marosim kuy-qo‘sishlari va uchinchisida zamon bastakorlarining shu davrda yaratgan asarlari o‘rin olgan. «O‘zbek xalq musiqasi» kitobining 5-jildi o‘zbek xalqining durdonasi bo‘lgan «Shashmaqom»ga bag‘ishlangan. Unda «Shashmaqom»ning cholg‘u va ashula bo‘limlaridagi musiqiy namunalar, turkumlar to‘la ifodasini topgan bo‘lib, nota namunalarida zikr etilgan.

Yunus Rajabiy 1957-yildan yana O‘zbekiston teleradiosida ish faoliyatini davom ettiradi. Avvaliga xalq cholg‘ulari orkestrida badiiy rahbar, 1958-yildan maqomchilar ansambl qaytadan tiklanadi va 1976-yilgacha, ya’ni umrining oxirigacha ushbu ansamblga rahbarlik qiladi. U o‘zbek mumtoz musiqa san’ati namoyandalariga rahnamolik qilib samarali faoliyat olib boradi. Ana shu yillar Yunus Rajabiy ijodiy faoliyatining eng sermahsul davriga to‘g‘ri keladi.

Allomaning o‘zbek musiqa san’ati rivojida olib borgan faoliyati qo‘p qirrali ekanligini e’tirof etish lozimdir. Birinchidan, ijrochilik; ikkinchi yo‘nalish – bastakorlik; uchinchisi – an’anaviy musiqa namunalarini notaga olish bilan bog‘liq etnograf-musiqa shunoslik; to‘rtinchisi – maqom ansambliga rahbarlik; beshinchisi – o‘zbek xalq va mumtoz musiqalarini maqomchilar ansambliga o‘rgatib, magnit tasmalariga yozdirgan va meros qilib qoldirgan xazinabon; oltinchisi – betakror shogirdlarning kamolga yetishida rahnamolik qilgan mehribon ustoz, yettingchisi – musiqa ijrochiligi, ijodiyotida ibrat sifatida faoliyat olib borgan yagona akademikdir.

Yunus Rajabiyning bastakorlik ijodi rang-barangdir. Uning yaratgan asarlarida bu jihatlar yaqqol namoyon. Ana shunday yondashishlardan biri namunalarni qayta ishslash, ya’ni nag‘-mapardozlik yo‘nalishidir. Xalq musiqa merosidagi unutilib

borayotgan namunalarni tiklash va ularni an'anaga xos va zamonaga mos tartiblashtirish ishlari azaldan bastakorlikning yetakchi yo'nalishlaridan hisoblangan. Hazrat Navoiy asarlarida ushbu amal «Nag'mapardoz», «Lahnpardoz» kabi iboralar bilan keltirilgan. Allomaning ijodida ushbu yo'nalishning samarasini buyukdir. U bir qancha qadimiy o'zbek xalq kuy va ashulalarini qayta ishlab tiklagan. Masalan, «Subhidam», «Yolg'iz», «Sayqal», «Fig'on», «Oraz», «Begi Sulton» va shu kabilar.

Yunus Rajabiyning bastakorlikdagi o'ziga xos uslubi o'zining mumtozligi bilan xarakterlidir. Chunonchi, xalq musiqa merosi bilimdonlari, ularning ijrochilik an'analalarini mukammal egallagan sozanda va xonandalar bastakorlikka qo'l uradilar. Maqom bilimdoni Yunus Rajabiy ham o'zining musiqa sohasidagi ko'p yillik tajriba, bilim va ko'nikmalarini bastakorlik orqali ijod etgan buyuk ijodkorlardandir. Ahamiyatli tomoni, u xalq bastakorligi va kompozitorlik yo'nalishlarida betakror asarlar yaratishga muvaffaq bo'ladi. 100 dan ortiq asarlar yaratgan ijodkorning kuy va ashulalarida, maqom an'analari, vohaviy xususiyatlar, mavzuli, shakliy va usul jihatlari mumtozona uyg'unlashganligi kuzatiladi. «Qadah», «Ne navo soz aylagay», «Ra'nolanmasun», «Koshki», «Kuygay» kabi musiqiy namunalar shular jumlasidandir. Musiqa ijodiyotida Yunus Rajabiy o'zbek musiqali drama janrining shakllanishiga muhim hissa qo'shgan. Dastlab «Farhod va Shirin», «Layli va Majnun», «Xolisxon», «Rustam» kabi spektakllarga xalq ashulalari asosida kuylar bastalagan. Keyinchalik B.Nadejdin bilan hamkorlikda 1941-yilda «Qasos», N. Mironov bilan 1942-yili «Qo'chqor Turdiyev», G. Mushel bilan 1943-yilda «Muqanna», O. Halimov bilan 1942–1943-yillarda «Nodira», B. Zeyzman bilan 1964-yilda «O'g'il uylantirish», Sayfi Jalil bilan 1968-yili «Navoiy Astrobodda» singari musiqali dramalarni yaratgan. B. Nadejdin bilan «Segoh» va «Ufari Mushkiloti Segoh» simfonik asarini, B. Brovsin bilan birgalikda «Farg'onacha» simfonik syuitasini, T. Sodiqov,

D. Zokirov, B. Zeyzmanlar hamkorligida «Zaynab va Omon» operasini yaratgan.

1960–1966-yillar alloma ijodida «Shashmaqom»ni qayta yozish jarayoni bo‘ladi. Davrning eng ilg‘or sozanda va xonandalari bilan birgalikda «Shashmaqom» tarkibidagi har bir asar qaytadan o‘rganilib, kamchiliklari, yetishmayotgan qismlari to‘ldirilib ijro etilib magnit tasmalariga muhrlanadi. Ana shu asosida «Shashmaqom» nota yozuvining yangi varianti olti alohida kitob bo‘lib nashr etiladi: I jild – «Buzruk», II – «Rost», III – «Navo», IV – «Dugoh», V – «Segoh», VI – «Iraq».

Yunus Rajabiy «Shashmaqom» ustida olib borgan ko‘p yillik mehnati, ishlari va magnit tasmalariga yozib olish davomida rivojlanib borgan maqomlardagi ayrim o‘zgarishlar va bu haqdagi fikrlarni «Musiqa merosimizga bir nazar» kitobida bayon etadi. Kitob 1978-yili nashr etilgan. Alloma «Shashmaqom» bu xalq mulki, hayoti ekanligini va u doimo jonli jarayonda bo‘lishini ta’kidlab o‘tadi. Maqomlarni notaga olishdagi ilk davrlarda yo‘l qo‘yilgan kamchiliklarning ayrimlarini tuzatib ko‘rsatib beradi. 2007-yili «Shashmaqom» to‘plami Yunus Rajabiy yozuvida qaytadan UNESCO hamkorligida nashr etildi (Y. Rajabiy. «O‘zbek maqomlari. Shashmaqom»).

Yunus Rajabiy katta va tabarruk yo‘lni bosib o‘tgan, unumli va mazmundor hayot kechirgan, umr bo‘yi xalqqa xizmat qilgan, kelajak avlodga bebafo xazina to‘plib meros qilib qoldirgan zabardast ijodkordir.

**Amaliy mashg‘ulot:** Y. Rajabiyning bastakorlik, ijrochilik, tashkilotchilik, folklor-etnografik va jamoatchilik ishlari xususidagi ma’lumotlar bilan tanishish. Ustozlaridan olgan saboq jarayonini o‘zlashtirish. Mulla To‘ychi Toshmuhamedov bilan ustoz-shogirdlik va hamkorlikdagi faoliyati. O‘zbek musiqasi rivojida Y. Rajabiyning hissasi va o‘rni. Maqomchilar ansamblidagi faoliyati va uning

qoldirgan merosi. Bastakorlik faoliyati, yaratgan ashulalari, cholg‘u kuylarini o‘zlashtirish va namunalardan tinglash. Sahnaviy asarlari, spektakllarini tinglab tomosha qilish. O‘zbek xalq musiqa merosini to‘plashi, nota yozuvlar nashrlari faoliyati «O‘zbek xalq musiqasi» va yaratgan («Musiqa merosimizga bir nazar») kitoblari. Y. Rajabiy nomidagi tanlovlар xususida ma’lumotlarga ega bo‘lish.

## Muxtorjon Murtazoyev

(1909–1994)



Muxtorjon Murtazoyev<sup>1</sup> 1909-yil 5-mayda Farg‘ona viloyatining Qo‘qon shahriga yaqin bo‘lgan Nursux qishlog‘ida, ziyolilar oilasida tug‘ilgan. Yosh Muxtorjon ota-onasidan yosh judo bo‘ladi. Tog‘asi Matmusa aka tarbiyasida voyaga yetadi. Tog‘asi Nursuxning mashhur ashulachilaridan biri bo‘lib, o‘z jiyani Muxtorjonga xalq yo‘llariga mansub bo‘lgan qo‘shiq va ashulalarni o‘rgatadi. So‘ngra, davrining taniqli san’atkori Mahram Shodiyev yosh Muxtorjonnini o‘z ta’limiga olib, 1924-yili Yaypan qishlog‘idagi bolalar internatiga o‘qishga joylaydi. Sozandalik san’atini mashhur san’atkorlar Muydinxon aka Najmiddinov, Ahmadjon Umrzoqov, Qodirjon Hamdamovlardan o‘rganadi.

1930-yildan boshlab, viloyat temiryo‘lchilar klubida tashkil etilgan san’atkorlar guruhida musiqa rahbari lavozimida ish faoliyatini boshlaydi. 1936-yildan Qo‘qon musiqali drama teatrida jo‘rnavoz bo‘lib ishlaydi. Ijodiy jamoada ishlash jarayonida u o‘zining bastakorlik faoliyatini ham boshlaydi. «Kanalimga keling» (Chustiy), «E, go‘zal, obod elim» (Charxiy) kabi ilk qo‘shiqlarini yaratadi.

<sup>1</sup> S. Begmatov, A. Zokirov. Muxtorjon Murtazoyev. – T., 2008.

1942-yili Toshkent viloyati (Muqimiy nomidagi) Yangiyo‘l musiqali drama teatriga ishga qabul qilinadi. Teatr jamoasiga zamonaning eng yetuk ustozlari jalb qilingan edi. Ular qatorida xalq hofizlari Jo‘raxon Sultonov, Ma’murjon Uzoqov, Saidjon Kalonov, Yunus Rajabiy, Usta Ro‘zimat Isaboyev, Komiljon Jabborov, G‘anijon Toshmatov, Ortiqxo‘ja Imomxo‘jayev, shoirlardan Habibiy domla, Sobir Abdulla, Chustiy, bosh dirijor Fazliddin Shamsiddinov, Yetim Bobojonov, musiqa rahbari taniqli bastakor, ustoz To‘xtasin Jalilov edi.

Muxtorjon Murtazoyev ustozlari bilan hamkorlik jarayonida o‘zbek musiqiy merosini, ilmini o‘rganadi. Umri davomida musiqa hamda teatr jamoalari bilan birga faoliyat olib boradi. Atoqli kompozitorlardan musiqa nazariy jihatlarini o‘rganadi, jumladan, atoqli rus kompozitorlari M.Gnesin, B.Arapovlardan bastakorlik ilmini qunt bilan o‘zlashtiradi. Davrining dongdor san’atkorlari Jalolxon Oxunov, Tavakkal Qodirov, Yorqinoy Hotamova kabilar bila birga faoliyat olib boradi. Teatrda qo‘yilgan spektakllarga musiqa tanlash va bastalash bilan birga zamon xonandalari uchun bir qator ashulalar yaratadi.

Muxtorjon Murtazoyev ijrochilik san’atini mukammal egallagan va o‘ziga xos ustozlik, bastakorlik tomonlari bilan boyitgan san’at arbobiidir. 20-yillarning oxiridan boshlab Muxtorjon Murtazoyev mumtoz ijrochilik an’alarini o‘z davrining usta san’atkorlaridan o‘rganadi. Avvaliga hofizlar Akbar Haydarov, Turg‘un Karimovlar bilan hamkorlik qiladi. Keyinchalik Madumar hofizdan xonandalik sirlarini, Umarjon hofizdan skripkada chalishni o‘zlashtiradi. U avvaliga o‘z shogirdlari bilan birga musiqali spektakllarni sahnalashtirib, xalq merosidan foydalanib, kuy va ashulalar bilan bezab keldi. «Ichkarida», «Arshin mol-olon» musiqali dramalari shular qatoridandir.

Bu sohada Muxtorjon Murtazoyevning ilk ishi atoqli san’atkor Ahmadjon Umrzoqov yordamida yozgan asari, Abdulla Qodiriyning

«Hamma dalaga» va «Uchinchi ko‘klam» inssenirovkalariga musiqa yaratish bo‘ldi. Shundan so‘ng u «Xolisxon» spektaklining birinchi variantiga musiqa yozadi. Spektakldagi «Ko‘z yetmas baland tog‘lar», «Sabo» ariyalari bastakorning muvaffaqiyatlaridan biri edi.

Muxtorjon Murtazoyev ko‘proq mumtoz shoirlar ijodiga murojaat etib, «Barnolig‘ingizdan», «Vafodorlar», «Malohat», «Sunbullaringdan», «O‘rgilay», Navoiy g‘azaliga «O‘n sakkiz yoshingdadur» muhammasi, Muqimiy g‘azaliga «Yor bo‘lsin» muhammasi, «Shaxlolariningmu» kabi bir qator asl asarlar yaratadi.

Bastakor o‘zining amaliyotida katta ashula ijrochiligiga alohida e’tibor bergen va o‘zlashtirgan hamda ustozlar bilan iじro etgan. Bu uning bastakorlik faoliyatida asosiy omil vazifasi sifatida muhrlanadi va ijodkor yaratgan ashulalarning deyarli barchasi katta ashulaga xos xususiyatlar bilan sug‘orilganligini ko‘rish mumkin. Buni, ayniqsa, bastakorning mumtoz musiqa yo‘lida yaratgan asarlarida yaqqol ko‘rish mumkin. Jumladan, bastakorning Haziniy so‘ziga «Farg‘ona tong otguncha», Kamtar so‘ziga «Tamanno», Miskin so‘ziga «Bizni tashlab», Hamza so‘ziga bitgan «Bir ishva bilan» kabi ashulalarini keltirish mumkin. Bu asarlar o‘zbek musiqa merosidan alohida o‘rin egallagan. Asarlarning mumtozligi, o‘ziga xosligi, so‘z va ohangning mutanosibligi, o‘lchov-ritmik jihatdan bir-biriga uyg‘un ekanligi bilan usullar jozibasi mavjudligi, ijrochi imkoniyatlarini ochib berishiga imkon yaratadigan xususiyatlar bilan sug‘orilganligi va sirli iじro asosi mavjudligi, ularning Muxtorjon Murtazoyev ekanligini ko‘rsatib turadi. Bu bastakorlik uslubiga xos xususiyatlardir va ularning barchasini katta ashulaning usullar tobeligidagi jozibali ko‘rinishi desak to‘g‘iroq bo‘ladi. Shuning uchun bastakor ijodiyotining originalligini e’tirof etish va zamonaviy musiqa ijodiyotida o‘ziga xos ta’sir manbayi mavjudligini ham qayd etish lozim bo‘ladi.

Bu jihatlar uning barcha ashulalarida mavjud. Jumladan, «Farg‘ona tong otguncha» ashulasi bastakorning shoh asarlaridan biridir. Asar mumtoz shoir Haziniyning «Tong otguncha» radifli g‘azali asosida yaratilgan. Asar musiqa shakllarining ashula janriga xosligi bilan ajralib turadi va tabiatan katta ashula shakli va xususiyatiga mosdir. Shu bois uning umumiy ko‘rinishdagi shakli ham katta ashulaga xos nokvadrat tuzilishga ega ekanligi bilan yaqqol namoyon bo‘ladi. 8-misol:

M.M. ♫ = 80

8

15

Hij - ron o' - ti - da

22

jis - mi - ma      so' - zo - na      tong ot      gun - cha(ye),


29

O'r - tab yu - ra - gim      bag' - rim

Asar katta ashula uslubida yozilganligi sabab undagi erkinlik o‘lchov-ritmga asoslanishini e’tirof etish lozimdir. Erkinlikka, odatda, usulga tayangan holda qo‘srimcha taktlar hisobiga erishiladi. Ashula asarning asosiy mazmunini beruvchi cholg‘u daromad bilan boshlanadi.

Ko‘rinib turibdiki, cholg‘u muqaddima boshlang‘ich xatni ham mazmunan, ham shaklan tayyorlab beradi va asarning asosiy g‘oyasini, lad tizimini, tovush qatori va asosiy turg‘un pardalarini tasdiqlab, ifodalab beradi.

Avvaliga asar turli usullarda ijro etilgan. Ular orasida ommabop shakli quyidagichadir: 9-misol. Tong otguncha asarining ommalashgan usuli:



Asarning ahamiyatli tomoni avj tizimidadir. Avj asarning eng yuqori pardalarida ijro etiladi. Uning ustiga katta ashulaga xos bir nafasda talqin etilishi bilan ham ajralib turadi. Bastakorning uslubiga xoslik tomoni, yuqori avjdan so‘ng kichik avjning badihalı ko‘rinishi orqali reprizaga o‘tishida namoyon bo‘ladi.

Xuddi shunday holatni «Bizni tashlab» ashulasi namunasida ham ko‘rish mumkin. 10-misol:

The musical score consists of three staves of music in 4/4 time with a key signature of one sharp. The first two staves begin with a melodic line in eighth and sixteenth notes. The third staff begins with a single note followed by a melodic line. The lyrics are written below the notes:

Biz - ni tash - lab

qay - ga ket - di ul qa - ro qo - shim me - ning,

«Tamanno» ashulasida bastakorning betakror uslubi o‘zini namoyon etgan. Bu asarga bastakor o‘zgacha yondashsa-da, asosiy g‘oyani, shaklni va mazmun rivojini oldingi asarlariga xos tarkib-

lashtirganining guvohi bo‘lamiz. Asar dastlab Kamtar Otaboyev muhammasiga bastalangan. Keyinchalik amaliyotda Haydar Yahyoyev so‘zi bilan ijro etish rasm bo‘ldi.

Asar 4/4 takt o‘lchovi asosida yozilgan. Usuli quyidagicha:



Tonalligi fis-moll frigiy ladiga mosdir. Asar zamonaviy ashula shakliga xos bo‘lgan 8 taktli cholg‘u muqaddima bilan boshlanadi. Cholg‘u muqaddima asarning asosiy ohang g‘oyasidan tuzgan. 11-misol:

M.M. ♩ = 108

Bo-qib gul-shan -  
gayor et-sang ta-man - no,  
Cha-man ay-tur ja-mo-ling-ga ta-san - no.

Bastakorning ijodidagi eng fundamental asar «Tong otguncha» katta ashula tamoyillari asosida yaratilgan. Shu bilan birga «Tong otguncha»dagi kuy-ohang majmuyi, o‘lchov-ritmik asosi, lad tarkibiy jihatlari uning keyingi yaratgan asarlariga bosh mezon bo‘lib xizmat qilgan.

Muxtorjon Murtazoyevning bastakorlik ijodi faoliyati davomida amaliyot bilan bevosita bog‘liq holda qaror topgan. Davr talabi

doirasida va musiqiy meros an'analari hamda vohaviy xususiyatlar negizida rang-barang janrlar hisobiga rivojlangan. Bu, avvalo, XX asrda o'zbek musiqa an'analariiga kirib kelgan musiqali drama janriga xos qo'shiq va ashulalar namunasidir. Ikkinchidan, vohaga xos katta ashulaning janrlik jihatlaridan oqilona foydalanish hisobiga ishlangan original ashulalardir. Tarkibiy, shakliy, mavzuiy va uning rivoj tizimining maqom yo'llariga xos holda ijod etilishi bastakor ijodiy mahsulining musiqa merosidagi o'rnnini belgilab berdi.

### **Jo'raxon Sultonov (1893–1965)**



O'zbekiston xalq hofizi, xushovoz xonanda, mohir sozanda, yetuk bastakor, xalq hofizi Jo'raxon Sultonov 1893-yil Marg'ilonning «Podsho Iskandar» mahallasida Sultonboy oshpaz Xudoynazarov oilasida dunyoga keldi. Otasi musiqa shaydosi, turli cholg'ularning ijrochisi bo'libgina qolmay, yaxshigina xonanda ham edi. Jo'raxon Sultonov yoshlik chog'laridan zamonasining yetuk xonandalari, qiziqchilar, so'z ustalari, sozandalar ijrolarini eshitishga, xonishlaridan bahramand bo'lishga imkonи bor edi.

Yetuk hofiz Mamatbuva Sattorovdan katta ashula, mumtoz musiqa ijrochilik sirlarini o'rganish bilan birga ularning ilmiy jihatlarini ham qunt bilan o'rganishga urindi. Musiqiy ohang va ayniqsa, mumtoz adabiyotni o'zlashtirishga katta e'tibor qaratdi. Farg'ona vodiysining Erka Qori, Hamroqul Qori, Sodirxon Hofiz, Madumar Hofiz, Zebo Pari, Mulla To'ychi Hofiz, Hoji Abdulaziz Abdurasulov kabi ustoz san'atkorlar ijro uslublarini o'zlashtirdi. Ularning an'analarini munosib idroklab, zamonasiga xos, vodiy an'anasiiga mos o'z ijro uslubini yaratishga tuyassar bo'ldi.

Jo‘raxon Sultonov ijro uslubining negizida, mumtoz ashulalarning yovvoyi uslubdagi (usul erkinligida) talqini yotadi. Uning xarakterli jihatlari bastakorlik ijodida ham o‘z ifodasini topgan. Ijodkor bastakorlik faoliyatida ko‘proq mumtoz musiqaning murakkab hisoblangan talqin, nasr va savt yo‘llarida erkin rivoj topadigan asarlar yaratgan. Mumtoz usullar asosida yaratgan asarlarining xarakterli tomonlari uning «Bo‘lmasa», «Guluzorim qani», «Bir kelsun», «Naylayin», «Oh kim», «O‘lmasun» kabi asarlarida mu-jassamdir. Qayd etish joizki, bastakor o‘z uslubini ifoda etishda maqom sho‘balarining tuzilish tarkibi qiyofasidan kelib chiqib, katta ashulaning tarkibiy tuzilishi hamda kuy rivoji xususiyatlariga aso-slani shakllantirgan.

Jo‘raxon Sultonovning ijro uslubiga xos bo‘lgan jihatlardan biri, bu aniqlik, shiddat va maqsadni tez belgilab olishdir. Shu bois mu-hamma shakli asosida tarkib topgan asarning birinchi misrasining talqinida kuyning barcha pog‘onalar (diapazoni) qamrab olinadi. Katta ashulaga xos bo‘lgan asar matnlarini kuylash, asosan, badiiy nutqqa yaqinroq tarzda amalga oshiriladi.

Jo‘raxon Sultonov ijodidan o‘rin olgan asarlar, uch muhim ahamiyatga egadir. Birinchidan – erkin ijroga xosligi; ikkinchidan – badihaviylikka moyilligi va uchinchidan – ma’lum usul va vaznga asoslanganligidir.

Jo‘raxon Sultonov ijodining yana bir muhim tomoni – erkin talqinning cholg‘u bilan uyg‘unligini ta’minlab berishda namoyon bo‘ladi. Bunga yorqin misol bastakorning Muqimiy g‘azaliga bitgan «Ul mahliqo kelsun» ashulasidir. 12-misol:

M.M. ♩.=100–104

Muqimiy g‘azali  
J. Sultonov

Bo - rib ar - zim - ni yet - - kur, er - ta - roq  
 Qo - nar - g'a o'z - ga man - - zil, is - ta - may  
 ul ta mah - li - qo yin - qil, ey kel - sun,  
 qo - sid,

Asar o'ziga xos shaklga ega bo'lib, maqom yo'llariga xos tarkibda yaratilgan. Ashulaning o'lchov-ritmik asosida talqin usuli tanlangan va usul jozibasida o'ziga xos asar yaratilgan. Asarning Farg'ona vodiysi katta ashulalariga xos talqinga egaligini e'tirof etish lozim. Asarning lad tizimi ham major va minorli xususiyat kasb etadi. Asar diapazoni unchalik keng emas, oktava oralig'iga ega. Lekin asosan seksta intervali oralig'ida kuylanadi. Ahamiyatli jihatlaridan biri katta ashula kabi yuqori pardalarda ijro etilishi uchun mo'ljallangan. Yoqori pardalardagi ovoz dramatizmi uning xarakterini ochib berishi mumkin.

O'zbek musiqa san'ati rivoji yo'lida samarali mehnat qilgan, zamonomizning yetuk sozanda, xonanda va bastakori Jo'raxon Sultonov o'z ijrochilik mahorati negizida xonandalikda va bastakorlikda maktab yaratdi.

**Amaliy mashg'ulot:** I. Ikromov, T. Jalilov, Y. Rajabiy, M. Murtazoyev, J. Sultonovlarning ijodiy faoliyatii o'zlashtirish. Asarlaridan namunalar tinglash. Ularning ijodiy uslublarini ajratib olish va umumiylit jihatlari xususida ma'lumotlar toplash. Yaratgan asarlarini tinglab tahlil qilish. O'zbek bastakorlik san'atining yirik namoyandalari bo'lgan ushbu ijodkorlarni o'zbek mumtoz musiqa san'ati rivojidagi o'rnini va ularning ijodini tarixiy ahamiyati xususida fikrlash.

## Nazorat savollari

1. Toshkent-Farg‘ona bastakorlik maktabi va uning o‘z uslublari bilan elga tanilgan namoyandalari xususida nimalarni bilasiz?
2. I. Ikromov, T. Jalilov, Y. Rajabiy, M. Murtazoyev, J. Sultonovlar bastakorlik ijodining o‘ziga xos tomonlari xususida gapirib bering.
3. Voha bastakorlari xususida fikr yuritib, ularning asarlarini tahlil qiling.

### 2.3. XORAZM BASTAKORLIK MAK TABI

O‘zbekistonning yirik va o‘ziga xos vohalaridan biri Xorazmdir. Ushbu voha o‘zining qadimiyligi, azaldan madaniyat markazlaridan biri bo‘lganligi, yuksak san’at namunalariga egaligi va albatta, o‘z lokal jihatlari bilan alohida o‘rin tutib kelgan. Bunga X asrda Xivada faoliyat olib borgan Ma’mun akademiyasini yorqin misol sifatida ko‘rsatish mumkin. Ushbu vohada bir qator allomalar yashab ijod etgan va o‘z ijodlarida musiqa ilmiga ham katta e’tibor qaratgan. Jumladan, Abu Abdulloh al-Xorazmiyning «Mafotix ul-Ulum» risolasi bunga misol. XIX asrga kelib Xorazm tanbur chizig‘ining yaratilishi musiqa san’ati sohasining yangi sahifasini ochib berdi. Musiqa bilimdoni Komil Xorazmiy tomonidan tanbur chizig‘i ixtiro qilinib, Xorazm maqomlari va Xorazm dutor maqomlari notaga olindi. Xorazm musiqasining tarixiy, nazariy jihatlari aks etgan «Xorazm musiqa tarixchasi»<sup>1</sup> (Mulla Bekjon Rahmon o‘g‘li, Muhammad Yusuf Devonzoda) yaratildi.

Tarixdan Xorazm vohasi o‘ziga xos ijro uslubi bilan boshqa vohalardan ajralib turadi. Bunda vohada ommalashgan musiqiy cholg‘ular, cholg‘u va aytim yo‘llarining lokal xususiyatga egaligi ahamiyatlidir. Xorazm musiqa merosi, har biri alohida yo‘nalish bo‘lgan hamda rivojlanish jarayonida bir-biri bilan uyg‘unlikda

<sup>1</sup> *Mulla Bekjon Rahmon o‘g‘li, Muhammad Yusuf Devonzoda. Xorazm musiqa tarixchasi* (M., 1925). – T., 1998.

shakllanib rivojlangan uch tarmoq, ya’ni xalq musiqasi, dostonchilik yo‘llari va maqom san’atini tashkil etadi.

Xorazm xalq musiqa merosi boy an’analarga ega bo‘lib, xalqona kuy, qo‘sish va laparlari bilan boshqa vohalardan ajralib turadi. Xorazm vohasining barcha musiqiy sohalariga o‘z ta’sirini o’tkazgan doston yo‘llari esa o‘zining salobatliligi, ijroviy jihatlariga egadir. Dostonlar, odatda, qadimda ko‘chmanchi va o‘troq xalqlar ijro amaliyotida shakllanadi. Bu ham badiiy ijodning bir ko‘rinishi. Dostonlar tarixdan xabar beruvchi xalqning og‘zaki (keyinchalik yozma) ijodiyotidir. Xorazmda doston ijrochiligi juda keng ommalashgan va shunga qarab uning ijrochilar ham xalq orasida o‘z mavqelariga ega. Xalq tomonidan ardoqlanib, ko‘p xususiyatga egaligini nazarga olib ularni «baxshi» deb yuritiladi.

Xorazm doston ijrochiligidagi dong taratgan baxshilar ko‘p. Jumanazar baxshi, Bola baxshilar shular jumlasidandir.

Bola baxshi nomi bilan el orasida dovrug‘ topgan doston ijrochisi Qurbanazar Abdullayevdir.

## **Qurbanazar Abdullayev (1899–1994)**

Qurbanazar Abdullayev 1899-yili Xivaning Gurlanbog‘ qishlog‘ida Abdulla Qozi oilasida tavallud topgan. Otasining tarbiyasi bilan juda erta qo‘liga soz olib, doston kuylashni boshlaydi. «To‘qqiz yoshidan boshlab Maxtumquli so‘zlari bilan qo‘sishilar va doston parchalarini ijro etib yuradi»<sup>1</sup> – deb yozadi musiqashunos olim Botir Matyoqubov. Uning bolalarcha o‘ynoqiligidan unga yoshligidan «Bola baxshi» nomi berilgan.

Bola baxshi Xorazmda mashhur bo‘lgan Jumanazar baxshi, Yodgor bulamonchi, Rahima Xalfa kabi bir qator ustozlaridan doston ijrochilagini o‘rgangan. Faoliyati davomida elga dovrug‘

---

<sup>1</sup> B. Matyoqubov. Doston navolari. – T., 2009. 31-b.

yoygan hamda davriga munosib shogirdlar tarbiyalagan. Uning ijro repertuarida yigirmadan ortiq dostonlar o‘rin olgan. «Go‘ro‘g‘li», «Oshiq G‘arib va Shohsanam», «Xirmondali», «Avazxon», «Oshiq Mahmud», «Bozirgon» dostonlari shular jumlasidandir. Bola baxshi 94 yoshgacha doston ijrochiligidagi faoliyat olib borib, bu san’atning sirlarini shogirdlariga meros qoldirgan. Hozirda bu an’anani uning shogirdlari hamda o‘g‘illari Norbek, Matyoqub, Matnazar va Yetmishvoylar davom ettirmoqdalar.

Xorazm zamonaviy bastakorlik ijodiga dostonlarning shakllanishida Bola baxshining o‘rni beqiyosdir. Avvalo, o‘zining yaratgan qo‘shiqlari, qolaversa, shogirdi Komiljon Otaniyozov ijodida doston yo‘llariga xos asarlarning el orasida ommalashganligi bunga yorqin dalildir.

Xorazm bastakorlik ijodiyoti qadimiyligining yana bir isboti maqom san’atidir. Azaldan Xorazm musiqa merosidagi maqomlar ijodiyoti o‘tmish bastakorlarining amaliyotida qaror topganligi sir emas. Xorazm vohasida Xorazm maqomlari, dutor maqomlari hamda suvoralar kabi maqom yo‘llari mumtoz musiqa namunalari sifatida shakllanib, rivojlanib kelgan. Musiqa bilimdonlarining bu boradagi ijodiyoti yozma manbalarda o‘z ifodasini topgan. Eng muhimi, ijodiyotning ushbu tarmog‘iga katta e’tibor bilan qaralgan. «Masalan, Muhammad Rahimxon Soniy (1864–1910) o‘z saroyiga adabiyot va san’at arboblarini to‘playdi. O‘zi Feruz taxallusi bilan she’rlar yozadi. Xorazm maqomlarining cholg‘u va aytim qismlariga ko‘pgina musiqalar bastalaganligi borasida Xorazm tarixchasida ma’lumotlar keltirilgan»<sup>1</sup>. Xususan, «Muhammad Rahimxon Soniyning «Shashmaqom»ga bog‘lagan nag‘malari ushbulardur: 1. Rost maqomina: «Muhammasi jadidi Feruz», «Musaddasi jadidi Feruz» (cholg‘u qismi). 2. Navo maqomina: «Saqili Feruz shohi», «Chor usuli Feruz». 3. Dugoh maqomina: «To‘rtinchı Peshravi Feruz»,

<sup>1</sup> Xorazm maqomlari (uch tomlik. To‘plovchi M. Yusupov). 1-tom. – T., 1980. 5-b.

«Saqili Feruz shohi». 4. Segoh maqomina: «Saqili Feruz shohi», «Se usuli Feruz shohi», «Chor usuli Feruz». 6. Iroq maqomina: «Birinchi muhammasi Feruz shohi», «Ilkinchi muhammasi Feruz shohi». 7. Panjgoh maqomina: «Saqili Feruz shohi» bo‘lib, jami o‘n uch nag‘ma bog‘lagandur»<sup>1</sup>.

XIX asr oxiri va XX asr boshlari Xorazm bastakorlik mактабининг yirik namoyandalari sifatida Matyoqub Xarratov, Matyusuf Xarratov, Matpano Xudoyberganov, Madrahim Yoqubov (Sheroziy), Safo Mug‘anniy, Hojixon Boltayev, Komiljon Otaniyozov kabi san’at namoyandalarini keltirish joizdir. Avvalo, ularning ijodi asosan maqom va maqom yo‘llariga xos hamda suvoralar ijodiyoti bilan bog‘liq.

XX asr ikkinchi yarmi va XXI asrda Xorazm xalq bastakorlik san’atida o‘ziga xos rivojlanish sezilmoqda. An’anaviy musiqada o‘zlashtirish jarayoni kechayotgan bo‘lsa, xalq bastakorligida zamonaviy milliy estradaga e’tibor sezilmoqda. Xonanda bastakorlar ijodi o‘ziga xos ravnaq topayotganligini kuzatish mumkin. Jumladan, Otajon Xudoysukurovning bastakorlik ijodida 300 ga yaqin musiqiy namunalar yaratilgan.

### Komiljon Otaniyozov (1917–1975)



Komiljon Otaniyozov – o‘zbek xonandalik san’atida yorqin iz qoldirgan, o‘z davrining zabardast san’atkori, mashhur ashulachisi, mohir sozandasasi, bastakori va san’at arbobidir.

Komiljon Otaniyozov 1917-yilning 20-iyulida Shovotda, Bo‘yrachi qishlog‘ida tavallud topgan. Otasi –

<sup>1</sup> Mulla Bekjon Rahmon o‘g‘li, Muhammad Yusuf Devonzoda. Xorazm musiqa tarixchasi. – T., 1998. 35-b.

Otaniyoz Xo‘janiyoz o‘g‘li o‘z davrining eng ma’rifatli, o‘qimishli kishilaridan biri, onasi Anbarmomo musiqa shaydosi, adabiyotni yaxshi biladigan, shoirlikda ham muayyan yutuqlarga ega bo‘lgan inson bo‘lgan. Komillikka intiluvchi insonlarning yo‘llari ham o‘z sohalari kabi bo‘lganidek, Komiljonning avlodi, uning yoshligi, o‘smirligi va faoliyatining shakllanish davrlari bilimdon hamda mohir ustozlarning bisyorligi bilan uyg‘un edi.

U boshlang‘ich savodni qishlog‘idagi maktabda oladi va 1932-yili Shovotda pionerlar uyi ochilishi bilan yosh iste’dod egasi Bo‘yrachidan borib u yerga qatnashadi. So‘ng O‘rta maktabning 5-sinfiga qabul qilinadi. Tez orada Komiljonning zehnini ko‘rib u 6-sinfiga o‘tkaziladi. Darhaqiqat, Komiljonning ko‘rgan va eshitganlarini esda saqlash ko‘nikmasi juda kuchli, zehni o‘tkir bo‘lganligi sababli bilimini tez oshirishga muyassar bo‘ldi.

Ushbu maktabda o‘qituvchilardan biri Norin Yoqubov tomonidan 1934-yili sozanda va xonandalar ansambl tuziladi. Ushbu ansamblida Komiljonga Abdukarim Abdurahmonov ustozlik qiladi. U o‘zbek xalq qo‘shiqlarini, ayniqsa, Xorazm doston yo‘llarini qunt bilan o‘zlashtirar va uning ijrosiga katta mehr bilan yondashar edi. U qo‘shiqlarni u dutor jo‘rligida ijro etgan. Avvaliga ustozlariga o‘xshatishga harakat qilib kuylar, keyinchalik har bir ijro etayotgan asariga ijodiy munosabat ko‘nikmalari shakllanadi. Bu esa ovozi, ijrosi va ijro uslubining shakllanishiga zamin yaratadi.

Komiljon Otaniyozovning ulg‘ayish davri benazir ustozlar nigohida o‘tdi. Komiljonning musiqa san’atiga qilgan ilk qadamlari ham Xorazmning eng mohir ustozlari bilan o‘tdi. Ustozlar ijrosidagi betakror dostonlar, Xorazm musiqasining sirli ohanglari, serjilo qo‘shiqlari, suvora-yu naqshlari, maqomlari uni o‘ziga maftun etib bo‘lgan edi. U zamonasining ustozlari Matkarim Abdurahmonov, Madrahim (Sheroziy) Yoqubov, Qurbonnazar Abdullayev (Bola

baxshi)lardan musiqa sabog‘ini, xalq qo‘sinq va doston yo‘llarini ijro etishni o‘rgandi. O‘ziga xos jozibali va sirli ovozga ega bo‘lgan Komiljon xalq orasida yorqin kuylashi bilan tinglovchilar nazariga tusha boshladi.

Noyob iste’dod egasi bo‘lgan Komiljon ustozlardan avvaliga doston ijrochiligini o‘zlashtiradi. Ijro repertuari shu davr san’atkorlariga xos tarzda shakllanib boradi. Ayniqsa, ustoz xonandalar ijro etgan qo‘sinq va ashulalarni, ommaviy xalq qo‘sinqlari, suvoralar, «Go‘ro‘g‘li» turkumidagi dostonlarni, «Yusuf va Ahmad» qissasini, «Bozorgon», «Sayodxon va Hamro», «Oshiq G‘arib va Shohsanam» kabi dostonlarni tez orada o‘zlashtirib ijro etadi. Komiljonning xalq orasida ko‘zga ko‘rinishiga ham Bola baxshidan o‘rgangan «Yetti yilga ketgan yorim», «Dushimda bir bulbul ko‘rdim», «Ra’noni ko‘rdim», «Namasan», «Ustozingdan ayrılma» kabi doston parchalari alohida ahamiyat kasb etdi.

Komiljon Otaniyozov 1935-yili Bo‘yrachiga o‘qituvchi qilib yuboriladi va oz muddat maktabda o‘qituvchi bo‘lib ishlaydi.

1936-yili Komiljonning jozibali ijrosini inobatga olib san’atkorlar truppasiga chaqirishadi. U 30 kishilik truppada spektakllarda o‘ynashni boshlaydi. 1936–1940-yillarda Shovot tumani teatrida xonanda va rejissor bo‘lib ishlaydi.

1940-yili Gurlanda Xorazm doston yo‘llarining bilimdoni Sheroziy Yoqubovdan ta’lim oldi. Xorazm dostonlari borasidagi bilimini ustozning nazorati ostida mustahkamlaydi. Ijrochilik sirlarini va uning badihaviy talqinlarini o‘zlashtirishga harakat qiladi. So‘ng Xivaga qaytadi. Komiljon o‘zining jozibali ijrosi bilan xalq orasida san’atkor sifatida endi tanila boshlagan davr edi. U, asosan, dutorda qo‘sinq aytar va ijro etgan asarlarini maromiga yetkazib, tinglovchining qalbiga o‘t solib ijro etardi.

1941–1943-yillarda u Xivadagi kolxoz-sovxozi teatrda ishlaydi.

1943-yildan Ogahiy nomidagi Xorazm viloyat musiqali drama teatrda aktyor va xonanda sifatida ishlay boshlaydi va davrining atoqli san'atkorlari bilan birgalikda 1951-yilgacha ijod qiladi.

1949-yili uning faol tashabbusi bilan Xorazm viloyat teatri qoshida 50 kishidan iborat ansambl tuziladi. Komiljon Otaniyozov ijro repertuarini turli namunalar va janrlar bilan boyitdi. Eng muhimi, xalq dostonlari asosida turli musiqiy namunalar yaratib, qayta ishlab yangitdan zamonaviy ijrolarni kashf etishga tuyassar bo‘ladi. Bu uning bastakorlikdagi ijodining boshlanish davri edi.

Mohir xonanda teatrda nafaqat xonanda, balki turli spektakllarda ham obrazlar yarata boshlaydi. Jumladan, S. Abdulla, T. Jalilovlarning «Tohir va Zuhra» musiqali dramasida Tohir va Parfi hofiz obrazini; «Oshiq G‘arib va Shohsanam» spektaklida G‘arib; Xurshid, V. Uspenskiy, G. Mushellarning «Farhod va Shirin» musiqali dramasida Farhod obrazlarini yaratadi.

1951-yili u san'atdagi safdoshlari Matniyoz Yusupov va Abdusharif Otajonovlar bilan birgalikda Toshkentga kelib, Toshkent musiqa bilim yurtiga o‘qishga kiradi. U 1955-yili Toshkent davlat konservatoriyasiga o‘qishga kirgan va bir yil davomida tahsil olgan.

1956–1975-yillarda O‘zbekiston davlat filarmoniyasida yakkaxon xonanda va jamoa rahbari sifatida samarali faoliyat olib boradi. 1958–1959-yillarda filarmoniya qoshidagi Xorazm xalq ashula va raqs ansamblining rahbari vazifasida ishlaydi. 1967-yili Turkmaniston Respublikasining Toshhovuz viloyat teatrda xalq ansamblini, 1973–1974-yillarda Xorazm viloyat Shovot tumanida «Feruz» ansamblini tashkil qiladi va boshqaradi.

Aynan mana shu davrdagi faoliyati uning Xorazm qo‘sishiq ijrochilik san’atida yangi yo‘nalishning shakllanishiga sabab bo‘ldi. U ijro etayotgan doston namunalarini, xalq qo‘shiqlarini davr talabiga mos holda talqin etishga harakat qilardi. O‘z ijodiyotini

xalq ijodiyoti bilan uyg‘unlashtirish yo‘lida ko‘p izlandi. Bu bilan uning xalq qo‘sish ijrochiligidagi o‘zgacha badihaviylik jihatlari ko‘rina boshlaydi. Bu Komiljon Otaniyozovning ijodiga xarakterli xususiyatlarning shakllanishi edi. Uning negizida san’atkorona yondashuvlar, musiqiy namunalar, ya’ni davradagi muloqot asosida mukammallashtirib jonlantirib ijro etish yotadi. Bu esa, xalq musiqa merosiga ijodkorona yondashish va xalq bastakorligining namoyon etilishidir.

Musiqa san’atining eng go‘zal an’analaridan biri bo‘lgan bastakorlik, xalqimizning ma’naviyatini, ruhiyatini sezaga oladigan, uning tub negizidagi ma’nolarni anglagan, bilimli ijodkorlargagina nasib etadi. Chunonchi, musiqiy namuna – bu xalq hayoti, qalbi, istagi, orzusi va qiyofasidir. Uni ijodkor o‘z asarlarida in’ikos etsa, xalq uni tinglaganda o‘zini ko‘radi va unga mehr qo‘yadi, shubhasiz intiladi, unga ergashadi va hayotining mazmunmezoniga uyg‘unlashtiradi. Komiljon Otaniyozovning ijodida ilk davridan boshlab ana shunday xislatlar o‘rin olganligini ko‘rish mumkin. Bu jihatlar uning bastakorlik ijodida yuzaga kelgan ilk asarlarining o‘zida, ya’ni «Naylayin», «Na bo‘ldi, yorim kelmadi», «Ayrilmasin nigoridan», «Otlan», «Xush qol endi», «Og‘ang kelar mard bo‘lib», «Xayr endi» kabi qo‘sishqlarda namoyon bo‘ladi. Bunga uning ustozlari Xorazm musiqa san’atining mohir san’atkorlari Madrahim Sheroziy, Hojixon Boltayev va Bola baxshi kabilar bilan birgalikdagi faoliyati sabab bo‘lgan bo‘lishi ehtimoldan xoli emas. Zero, ustozlar rahnamoligi, birinchidan – ijodkorning tafakkurida an’ananing zamona bilan uyg‘unlikda qaror topishidagi zamin bo‘lsa, ikkinchidan – davr ma’naviyati va ruhiyatiga mos yangi asarlarning vujudga kelishini ta’minlab beradi. Komiljon Otaniyozov Xorazm dostonchilik san’atini oshiqona o‘zlashtirgan san’atkor sifatida bu xislatlar uning asarlarida namoyon bo‘la boshlaydi. Dostonlar ta’sirida u «Kel,

yor, o‘ylanma-o‘ylanma», «Guldasta», «Ishqing o‘tida devona bo‘ldim», «Kerakmas» kabi musiqiy namunalarni ijro etadi. Bu asarlar Komiljon Otaniyozovning ijrochiligiga xos uslubning shakllanishidan darak edi.

Komiljon Otaniyozov Xorazm vohasining so‘nmas ohanglari mujassam etilgan suvoralarni davrining ulkan san’atkori Hojixon Boltayevdan o‘rganadi. Suvoralarning asl mohiyati, ohang jozibasi, ularning ijrodagi sir-u sinoatlarini ustoz yordamida egallaydi. «Yakparda Suvora», «Xushparda suvora», «Kajhang Suvora», «Chapandozi Suvora»larning ulardan keyin davom ettiriladigan savtlari bilan mukammallik jihatlarini ustoz yordamida o‘zlashtiradi<sup>1</sup>. Ijrochilik an’analarini o‘zining betakror uslubi bilan boyitadi. Xorazm ijrochilik uslubining butun respublika vohalarida keng ommalashishiga katta hissasini qo‘sadi. O‘zining suvoraxonlik amaliyotining yuqori cho‘qqisiga yetgan pallasida Xorazm suvoralariга bo‘lgan ijodiy munosabati namoyon bo‘ladi. U suvora ijodiyoti an’analarini davom ettirgan holda, ustozlar sabog‘ini mukammal o‘zlashtirib, o‘zining ijro uslubiga xos qilib bir namuna, ya’ni o‘z «Suvora»sini yaratadi. Ijrochilik amaliyotiga bu asar «Suvorayi Komil» nomi bilan kirib keldi va xalqimiz orasida keng tarqaldi. Pirovardida, musiqa merosidan va ijrochilik an’analaridan munosib o‘rin egalladi.

Xorazm maqomlariga bo‘lgan munosabati esa Komiljon Otaniyozov ijodining yana bir qirralaridan hisoblanadi. Zero, bu jarayon ustoz san’atkorning ijodiy faoliyatini mustahkamlashga muyassar bo‘lgan. Xorazm maqomlarining bilimdoni, o‘z davrining zabardast san’atkori Matpano ota Xudoyberganov Komiljon Otaniyozovning Xorazm maqomlarini anglashida va

<sup>1</sup> S. Xudoyberganov. So‘z va soz sohibi. – T., 2007. Ushbu risola Komiljon Otaniyozovning hayoti va ijodiga bag‘ishlangan bo‘lib, yaratgan qo‘shiqlarining aksariyati nota namunalarida berilgan.

ijrochilik an'analari hamda merosini o'zlashtirishida rahnamolik qiladi. Ustozidan tez orada «Navo», «Segoh», «Rost», «Dugoh» kabi Xorazm maqomlarining nazariy, amaliy va ijroviy jihatlarini mohirlik bilan o'zlashtirib oladi. Ustozlar Hojixon Boltayev va Madrahim Sheroziylar bilan birgalikdagi ijrochilik faoliyatları davomida maqomlarni yanada yuksak darajada ijro etish yo'llarini o'zlashtiradi. Ayniqsa, Xorazm maqomlaridagi «Dugoh» maqomini o'ziga xos ohanglarda ijro etib ustozlar nazariga tushadi.

Komiljon Otaniyozov o'z ijrochilik faoliyatida yurtimizning boshqa vohalariga mansub ijrochilik an'analariiga ham sadoqatli munosabatda bo'lgan san'atkordir. U Farg'ona-Toshkent ijrochilik maktablarida dong taratgan ustoz san'atkorlar bilan yaqindan munosabatda bo'lganligini e'tirof etish lozimdir. Ayniqsa, Mulla To'ychi Hofiz, Yunus Rajabiy, Jo'raxon Sultonov, Ma'murjon Uzoqov va Akbar qori Haydarov kabi ustoz hofizlarning ijodiga bo'lgan munosabati va ulardan olgan ijodiy saboqlari Komiljon Otaniyozovga o'z ta'sirini namoyon etadi. Ustozning ijrochilik uslubi Farg'ona – Toshkent musiqa an'analariiga xos xususiyatlar bilan boyidi.

Komiljon Otaniyozov musiqa ijodkorligi sohasida 100 dan ortiq kuy va qo'shiqlar yaratdi. Turli mavzularga bag'ishlangan uning bastakorlik mahsuli juda keng va rang-barangdir. U o'zining faoliyatida mumtoz shoirlar ijodiga bo'lgan munosabati beqiyos edi. Sa'diy, Hofiz Sheroziy, Navoiy, Ogahiy, Mashrab, Fuzuliy she'r va g'azallari, Maxtumquli, Kamina va Mullanafasning hikmatlariga bastalagan qo'shiqlari o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Uning zaminida she'riyatga bo'lgan iste'dodini namoyon etadi va albatta, e'tiborga loyiqlik tomonlari ham mavjud. Komiljon Otaniyozov avvaliga «Komiy», keyinchalik «Komil» taxallusida bir qator she'rlar bitadi.

Komiljon Otaniyozovning ijrochilikdagi mohirligi, so‘z tanlashdagi zukkoligi, ijro repertuarining rang-barangligi, xalq qo‘sish va dostonlarga munosabatlari hamda ulardan yangi asarlar yaratish qobiliyatining o‘tkirligi, doston ijrochiligida novatorligi, maqomlar ijrosida o‘zining bilimdonligini namoyish etishi va xalqqa yaqin holda talqin etishi, xalqimizga ko‘pdan ko‘p qo‘sish va ashulalarni yaratib meros qilib qoldirgani, o‘zbek musiqa ijrochiligida o‘zining go‘zal uslubini yaratib qoldirgani, barcha-barchasi Komiljon Otaniyozovning ijodi yoshlar uchun ibrat deyishga asos bo‘ladi.

K. Otaniyozovning qator asarlari xalq ijrochilik amaliyotida keng ommalashgan. Barcha voha xonandalarining repertuaridan joy olishi bilan birga, yoshlarning qiziqib o‘rganadigan asarlari qatori dan o‘rin olgan.

**Amaliy mashg‘ulot:** Xorazm bastakorlik maktabi ijodiy faoliyatini o‘zlashtirish. Namoyandalar ijodi bilan tanishish. Xalq ijodiyoti, suvoralar ijodiyoti va maqomlar ijodini o‘zlashtirish. Har bir yo‘nalishga tegishli bo‘lgan musiqiy namunalardan tinglash. Suvoralar va maqom yo‘llariga e’tibor berish. Asarlarini tinglab tahlil qilish. K.Otaniyozovning ijrochilik va bastakorlik faoliyatidagi yo‘nalishni aniqlash. Ijro etgan va bastakorlikda yaratgan asarlarini o‘zlashtirish, tinglash va tahlil qilish.

### Nazorat savollari

1. Xorazm bastakorlik maktabi ijodiy faoliyati xususida nimalarni bilasiz?
2. Doston, suvora va maqom ijodining o‘ziga xos tomonlari.
3. K.Otaniyozov va boshqa ijodkorlarning bastakorlik uslubi haqida nimalarni bilasiz?
4. Voha bastakorlari ijodini Farg‘ona-Toshkent bastakorlik uslubidan farqlay olasizmi?

### **III bob. BASTAKORLIK IJODI NAMOYANDALARI**

#### **3.1. XX ASR 30–60-YILLARI BASTAKORLIK IJODIY NAMOYANDALARI**

##### **Muhammadjon Mirzayev (1913–1999)**



Ustoz san'atkor, mohir sozanda, bastakor, O‘zbekiston xalq artisti Muhammadjon Mirzayev 1913-yil 13-avgustda Toshkent shahrida ishchi oilasida tavallud topgan. U yoshlik chog‘laridan musiqaga qattiq mehr qo‘yadi. 1932-yili Toshkent to‘qimachilik kombinatiga ishga kiradi va shu paytdan boshlab temiryo‘lchilar klubni qoshidagi havaskorlik to‘garagiga qatnashadi. To‘garakda rus xalq cholg‘ularidan mandolina sozida chalishni o‘rganadi. 1936-yili O‘zbek davlat filarmoniyasi qoshida tashkil etilgan «O‘zbek xalq cholg‘ulari» ansamblida sozandalik faoliyatini boshlaydi. Ansambl badiiy rahbari To‘xtasin Jalilov bilan bo‘lgan muloqoti uning hayotida keskin burilish hosil qiladi.

Muhammadjon birinchi galda ansamblida o‘z o‘rnini topishga harakat qildi. Ansambl rahbari To‘xtasin Jalilov taklifiga ko‘ra qashg‘ar rubobini o‘zlashtirishga kirishadi. Qashg‘arlik sozandalardan cholg‘uni olib uni o‘rganadi. Aslida uyg‘urlarning qashg‘ar rubobi keskin ovozli, pardalari diatonik uslubga va tanbur cholg‘usi kabi dastasiga boylangan edi. Cholg‘uning texnik jihatlari va tovushqator tizimlarini zamonaviy cholg‘u talablariga moslashtirish maqsadida u toshkentlik mashhur sozgar Usta Usmon Zufarovga murojaat etadi va birgalikda cholg‘uni takomillashtirib, zamonaviy uslubda qayta ishlaydi. Ularning sa'y-

harakatlari natijasida rubobning 7 bosqichli pardalari 12 pardali tovushqatorga moslashtirilib, boylanma pardalar mis pardalarga o‘zgartiriladi. Pirovardida, har tomonlama mukammal cholg‘u sozi paydo bo‘ladi.

Qashg‘ar rubobi aynan shu davrlardan boshlab xalq cholg‘ulari qatoriga kirib keladi. Muhammadjon Mirzayev uni ijro amaliyotiga olib kirdi va jozibador tarannumini shaxsiy ijrosida namoyon etib berishga erishdi.

1942-yili front konsert brigadasi bilan konsert gastrollarini o‘tkazadi. 1943-yili musiqali drama teatrining tashkil etilishi bilan Muhammadjon Mirzayev teatrning musiqa rahbari sifatida ishga taklif etiladi. Ushbu jamoada uning mustaqil bastakorlik ijodi boshlanadi. Uning ilk qo‘shiqlaridan biri Akmal Po‘lat so‘zi bilan «Mehnat ahli» asari 1943-yili yosh sa’natkorlar Halima Nosirova, Zaynab Polvonova va Fotima Boruxovalar tomonidan ijro etiladi. Bu, albatta, o‘zbek san’atida unutilmas voqeа bo‘ldi. Eng avvalo, o‘zbek bastakorlari qatoriga o‘ziga xos ijodkor kirib keldi, ikkinchidan, katta ashula janrida zabardast ustozlar Jo‘raxon Sultonov va Ma’murjon Uzoqovlar rasm qila boshlagan katta ashula janrining yangi yo‘nalishida yana bir o‘ziga xos asar dunyoga keldi, uchinchidan, katta ashula o‘zbek ayol ijrochilarini tomonidan maromiga yetkazib ijro etildi.

1946-yili u O‘zbek davlat filarmoniyasiga ishga qaytadi, 1948–1953-yillarida Toshkent davlat konservatoriyaning «O‘zbek xalq cholg‘ulari» fakultetida qashg‘ar rubobi sinfi bo‘yicha o‘qiydi. Muhammadjon Mirzayev sozanda sifatida rubob ijrochiligidagi o‘ziga xos ijro uslubini yaratadi. Avvaliga yakkanavozlikda, keyinchalik o‘g‘li va shogirdi Shavkat Mirzayev bilan jo‘rnavozlikda o‘zbek shinavandalarini o‘ziga rom etadi.

Rubob cholg‘usining keng ommalashishi va xalqning sevimli cholg‘ulari qatoriga kirib kelishining yana bir sababi, Muhammadjon Mirzayevning bastakorlik ijodi edi. Chunki rubobning asl mohiyatini

namoyon etadigan zamonaviy dilbar kuylar aynan Muhammadjon Mirzayev ijodida yaratila boshlandi. Uning ijodiga mansub «Gulnoz», «Intizor etma», «Dilbar», «Zavqim kelur», «Dildor I, II», «Orzu dil», «Dilrabo», «Tong», «Jonon», «Gilos» kabi rubob taronalari yaratildi. Ushbu asarlar o‘zbek cholg‘u kuylari sifatida o‘zining originalligi, ohangining jozibaliligi, mavzusining rang-barangligi bilan xalq orasida keng ommalashdi.

Muhammadjon Mirzayev ijod etgan asarlari o‘zining raqsbopligi bilan ajralib turadi. O‘zbek raqs san’ati ijro repertuari uchun yaratgan asarlari, doimo o‘zining yorqin jozibadorligi va o‘ynoqiligi bilan tinglovchilar olqishiga sazovor bo‘lib kelgan. Bastakorning tanlagan mavzulari ham rang-barang. Ular ona Vatanni, aziz yurtni, go‘zal tabiatni, baxtli hayotni, ishq-muhabbatni madh etuvchi kuylarni tashkil etgan. «Bahor valsi», «Qizlar valsi», «Orzu dil», «Dil kuylasin», «Go‘zal Vatanim», «Shodlik», «Yor uchrashuvi», «Gulbahor va Tanavor», «Rohat» kuylari shular jumlasidandir. Uning yaratgan asarlarida vohaviylik, yakkaxon xonandalarga xos unsurlar go‘zal uyg‘unlashgan. Ijodiy faoliyati, asosan, ijodiy jamoalar bilan bog‘liqligi sababli (masalan, jamoa yoki qatnashchilar uchun repertuar tanlashda) kunlik vaziyatga mos asarlar yaratishga muvaffaq bo‘lgan. Shu bois Muhammadjon Mirzayev davr san’atkorlari uchun kuy, qo‘sish va ashulalar yaratgan. Ular orasida taniqli xonanda Dilorom Qayumova ijro etgan «Uch dugona», «Ey, gul», «Oltin sandiq», «Popning popuk qizlariga», «Onalar» kabi qator qo‘sishqlari o‘zining yorqinligi, go‘zal taronaga moyilligi bilan alohida ajralib turadi.

Bastakorning mumtoz uslubga xos bo‘lgan ijodiy namunalari O‘zbekiston xalq hofizi Ma’murjon Uzoqov bilan bog‘liqligini qayd etish lozim. Chunonchi, Muhammadjon Mirzayev zabardast san’atkor, bilimdon bastakor sifatida ustoz Ma’murjon Uzoqov ijrosida butun Farg‘ona vodiysi hofizlik san’ati ijrochilik omillarini ko‘ra bildi. O‘zining bastakorlik ishlari doirasida o‘z ashulalarini

Farg‘ona vodiysi ijrochilik an’analari bilan sug‘orishga va alohida original asarlar yaratishga tuyassar bo‘ldi. Shu bois uning yaratgan ashulalari haligacha o‘z mavqeyini saqlab yetuk hofizlar tomonidan ijro etib kelinadi. Uning Ma’murjon Uzoqov ijrosida mashhur bo‘lgan yalla va ashulalari orasida – Muqimiy so‘zlariga «Yakka bu Farg‘onada», «Surating», «Yolg‘iz», «Ayrilmasun»; Furqat so‘ziga bastalangan «Yo‘lingda», «Sho‘xi jononim mening», «Qachon bo‘lg‘ay» va «Yor istab»; Sobir Abdulla so‘zi bilan «Parvo etib kel», «Shahloga tushdi», «Ko‘zlarining»; Hanifa Mavlonova ijrosida elga manzur bo‘lgan, keyinchalik ommalashgan «Parvona bo‘ldim», «Gulchehra yor», «Tong otguncha», «Husningga bu shaydoni» kabi o‘nlab ashulalar o‘zbek musiqa merosidan munosib o‘rin oldi.

Muhammadjon Mirzayev o‘zbek bastakorlik an’analarini munosib davom ettirgan, musiqiy merosga original asarlar bilan hissasini qo‘sghan, ijrochilik amaliyotida yangicha cholg‘u sozini kiritgan va ijrochiligini an’anaga aylantirgan zabardast san’atkordir. Uning ijrochilik va ijodiy merosi hozirgi davrgacha alohida o‘ringa ega. Avvalo, u qashg‘ar rubobi ijrochiligi bo‘yicha sozandalarning rahnamosi hamda ijrochilik maktabining asoschisi sifatida tilga olinadi. Qolaversa, xalqimizning milliy ruhiyati, ma’naviyatini in’ikos etuvchi betakror kuy va qo‘shiqlar yaratgan ijodkor ko‘rinishida kelajak avlod bastakorlari uchun ibratdir. Uning yaratgan asarlarida o‘zbekona nafosat go‘zalligi, joziba, tabiat bilan hamohanglik, hayotga bo‘lgan mehr-muhabbat ifori barq urib turadi. Uning ijodini har qancha e’tirof etsa arziydi.

Muhammadjon Mirzayev rubob ijrochiligidagi alohida ijro maktabini yaratgan va munosib shogirdlar tarbiyalagan, musiqa merosimizni ko‘pdan ko‘p (300 dan ortiq) betakror kuy, qo‘shiq va ashulalar bilan boyitgan zabardast bastakor, betakror san’atkordir. Uning musiqiy merosi o‘zining ko‘p jihatliligi, purma’noligi bilan ahamiyatlidir.

## G‘anijon Toshmatov (1913–1994)



G‘anijon Toshmatov o‘zbek bastakorlik san‘atining yorqin namoyandalaridan biri, Andijon musiqa maktabining vakili, O‘zbekiston xalq artisti, mohir sozanda, zukko askiyachi, jamoat arbobi hamda zabardast bastakor. O‘z ijrochilik va ijodiy faoliyati bilan o‘zbek musiqa san‘atida yorqin iz qoldirgan 100 dan ortiq kuy va qo‘schiqlar muallifi.

G‘anijon Toshmatov 1913-yil 22-iyunda Andijon viloyatining Asaka tumanida oddiy dehqon oilasida tavallud topgan. Otasi oddiy dehqon bo‘lishiga qaramay, san‘at shaydosi edi va dutor cholg‘usining mohir ijrochisi bo‘lgan. Yoshligidan musiqiy muhitda tarbiyalangan va musiqaga mehr qo‘yan yosh G‘anijon musiqa ijrochiligi borasidagi ilk saboqlarni otasidan oladi. Otasining do‘srtlari, zamonasining mohir sozandalari Karimsher, Muhammadali va Abdullalardan musiqaning ijrochilik sirlarini o‘zlashtira boshlaydi. Musiqaga oshufta qalb egasini shu davr cholg‘u musiqasi o‘ziga sehrlagan edi. Uning sozandalik san‘atiga qiziqishi Andijonning mashhur g‘ijjakchi sozandalardan biri, ko‘p shogirdlar tarbiyalagan, g‘ijjak ijrochiligidagi o‘ziga xos ijsro uslubiga ega bo‘lgan ustoz san‘atkor Sobirjon Siddiqov dargohiga yetaklaydi. Ustozga e’tiqod bilan shogirdlikka tushadi va 20-yillardan boshlab ustozning rahnamoligida cholg‘u ijrochilik san‘ati sirlarini o‘rganib boradi.

XX asrning 20–30-yillari sozandalik san‘ati rivojlanish bosqichining boshlanish davriga to‘g‘ri keladi. Bunga asosiy sabab 20-yillardan Farg‘ona vodiysi va Toshkentda sozandalar ansamblari shakllanib, faoliyat yurita boshlangan. G‘anijon Toshmatov ustozining rahnamoligida sozandalik amaliyoti va musiqa merosi

namunalarini qunt bilan o‘zlashtiradi. Ayniqsa, Farg‘ona vodiysi cholg‘u yo‘llarini, ya’ni surnay ijro yo‘llarini o‘zlashtirishga muvaffaq bo‘ladi. Farg‘ona-Toshkent cholg‘u yo‘llari o‘zining ko‘p jihatiligi, mavzularga boyligi, namunalarining serobligi bilan musiqiy merosda alohida o‘rin tutib kelgan. Cholg‘u kuylari oddiy xalq musiqa namunalaridan mumtoz namunalarigacha alohida va turkumli shaklda ijod etilib, rivojlanib kelgan. G‘anijon Toshmatov shu paytlarda musiqiy merosni o‘rganishga katta e’tibor qaratadi. Ustozlar an’anasida mavjud bo‘lgan ijro yo‘llarini alohida qunt bilan o‘rganadi va ijro repertuarida mukammal talqin etishga harakat qiladi. Uning ijro repertuarida «Mirzadavlat», «Yalang Davron», Farg‘onaning «Ushshoq» yo‘llari, «Nisor», surnay yo‘llaridan «Surnay Buzrugi», «Surnay Segohi», «Farg‘ona Buzrugi» kabi bir qator vodiy cholg‘u yo‘llariga xos original asarlar keng o‘rin oladi. Bu meros namunalari keyinchalik G‘anijon Toshmatovning basta-korlik ijodiyotiga o‘zining ta’sirini o‘tkazadi. Ustozlar an’anası, qadimiy musiqiy namunalarning mavzu, ohang va shakliy ta’siri o‘ziga xos ifodasini topadi.

U 1932-yili Andijon davlat musiqali drama teatri qoshidagi sozandalar ansambliga g‘ijjakchi sozanda bo‘lib ishga kiradi. Mana shu davrdan boshlab G‘anijon Toshmatovning juda ham sermazmun faoliyati boshlanadi. Buning asosiy sababi, o‘zbek musiqa merosining betakrorligi va turli-tuman janrlarga boy namunalarning maftunkorlik jihatlari bo‘lgan bo‘lsa ajab emas. Chunki uning hayotida ijodiy munosabatlар bilan bog‘liq jihatlar shakllana boshlaydi. Ijodiy ja-moada ishlash, bu har bir sozanda-yu xonanda bilan hamkorlik qiliш va birgalikda ijod etishdir. Bu jarayon G‘anijon Toshmatovning shaxsiy munosabatlarida ijobiy natijalarning yuzaga kelishiga sabab bo‘ldi. Avvalo, u xalq ijodiyotining sozandalik, xonandalik, askiya kabi san’atlarning uyg‘unlikdagi jozibasini talqin etdi va ustozlar dan bu soha sirlarini bilib, o‘zlashtirgan ko‘nikmalarini amaliyotda namoyon etishga harakat qildi.

Aynan shu davrdan uning mashaqqatli mehnatni talab etadigan, sozandachilik va san'atkorlarga yo'lboshchilik faoliyati boshlanadi. Umrining oxirigacha bir maromda turli ijodiy jamoalar bilan ishlab, ijrochilik va ijodiy faoliyat olib borib, faoliyat samarasini ulkan yutuqlar ila namoyish etadi. U Farg'ona viloyati musiqali drama teatrida 1934–1939-yillar davomida, Toshkentdag'i Muqimiy nomidagi musiqali drama va komediya teatrida 1939–1946-yillarda ustozlar bilan hamkorlikda ishlaydi. Zamon talabiga xos bir qator asarlar yaratib ijro etadi.

1946–1953-yillarda O'zbekiston radiosи qoshidagi o'zbek xalq cholg'ulari orkestrida sozanda bo'lib ishlaydi. 1953–1957-yillarda faoliyatini O'zbekiston davlat filarmoniyasida olib boradi. 1957-yili yana O'zbekiston radiosiga qaytadi; avval o'zbek xalq cholg'ulari orkestrida (1957–1967) sozanda lavozimida ishlab, 1967-yili ansambl rahbarligi, ya'ni jamoaga rahnamolik faoliyati boshlanadi. Uyg'ur ansambliga (1978-yilgacha), 1978-yildan 1987-yilgacha keksa san'at ustalaridan tashkil topgan Etnografik ansamblga rahbarlik qiladi. Bu ansamblagi uning faoliyatining muhimligi shundan iboratki, ansamblning asosiy maqsadi unutilib borayotgan xalq musiqa namunalarini qaytadan tiklash va magnit tasmalarida yozib qoldirish edi. Sozandaning yakkaxon va ansambl ijrosida «Dugoh», «Segoh», «Nasri Segoh», surnay yo'llaridan «Buzruk», «Navro'zi ajam», «Surnay navosi», «O'yin Munojoti» kabi maqom yo'llariga xos asarlar yozib olingan va radioning oltin fondida saqlanib kelinadi.

1987–1988-yillarda Maqom ansamblida badiiy rahbar bo'lib ishlaydi. So'ng 1988-yildan umrining oxirigacha radio qoshidagi «Dutorchi qizlar» ansamblida o'zining ustozlik faoliyatini davom ettiradi. Shu bilan birga o'zbek, tojik, uyg'ur xalq kuylarini qayta tiklab, yosh ijrochilarga o'rnatib, tinglovchilarga taqdim etadi.

Har bir san'atkoring musiqa san'atiga qo'shgan hissasi uning salohiyatiga va salobatiga asosdir. G'. Toshmatov o'zining

ijodida musiqa san'atining bir qator yo'nalishlarida samarali ijod etdi. Mohir sozanda, xalq cholg'u kuylarining bilimdoni, zukko askiyachi, bastakor, bilimdon ustoz va jamoa rahbari sifatida o'zbek musiqa san'atini rivojiga ulkan hissa qo'shgan san'at namoyandasidir.

Sozandalikda G'anijon Toshmatov ustozি Sobirjon Siddiqovning Andijon g'ijjak ijrochilik uslubini davom ettirib, boyitib, o'zining ijro uslubini yaratishga tuyassar bo'lган san'atkordir. Hozirda yosh sozandalar tomonidan ushbu uslub munosib davom etayotganligini qayd etish mumkin.

Mumtoz musiqa ijrochilik an'analarining muhim jihatlaridan biri bo'lган o'tmish sozanda va xonandalarning an'analarini davom ettirish borasida G'anijon Toshmatovning yutug'i, ustozlardan o'rgangan va avlodlardan o'tib kelayotgan xalq cholg'u kuylarining bilimdoni sifatida e'tibor topdi. Xalqimizning merosidagi yallalar, qo'shiq va kuylarni yoshlarga o'rgatib, ko'pgina asarlarga qayta hayot baxsh etdi. U o'z davrining san'atkorlari tomonidan xalq kuylarining bilimdoni, ayniqsa, Fargona-Toshkent maqom yo'llarida yaratilgan cholg'u turkumlarining bilimdoni sifatida e'tirof etilgan. Bu uning keyingi ijodida o'zini namoyon etib, bastakorlik ijodiyotida o'z aksini topgan.

Farg'ona vodiysida ijod etgan yetuk xonanda va sozandalarning aksariyati mahalliy an'analarga ko'ra askiya san'atidan xabardor bo'lган. Albatta, askiya san'ati uchun, insonda yetarli bilim, zukkolik, so'zga chechanlik va ustalik, badihaviylik mahorati bo'lishi talab etiladi. Musiqa san'ati amaliyotida, ustozlik darajasiga erishgan bir qator xonandalar, sozandalar va bastakorlar, albatta, zehn-zakovatda zukko ekanliklarini namoyon etib, askiyachi nomini ham olganlar. G'anijon Toshmatov ham o'z davrining so'zomon kishilaridan bo'lib, askiya san'atida davr namoyandalarining safida turib faoliyat olib borgan. U o'z ijodiy faoliyatida Mamatbuva Sattorov, Hamroqul qori, Jo'raxon Sultonov, Yusuf Qori kabi ustoz san'atkorlar bilan bir

davralarda chiqishlar qilib askiyachilik san’atida el nazariga tushgan mohir askiyachi bo’lgan.

G‘anijon Toshmatovning eng samarali faoliyati – bastakorlikda mujassam topgan. Hayoti davomida musiqa ijodiyotining turli shakl-u shamoyilga asoslangan 200 dan ortiq kuy, qo’shiq va ashulalar yaratgan. Ular orasida maqom yo’llariga xos ashulalardan tortib oddiy cholg‘u kuylarigacha asarlar ijod etgan.

Ushbu sohada G‘anijon Toshmatovning ikki yo‘nalishga xos bastakorlik faoliyati kuzatiladi: a) xalq kuylarini qayta ishslash va b) bastakorlik. Yaratilgan har bir asarlarning zamonaga xos shaklga egaligi, an’analarga tayangan holda va yangi ohanglarning mosligi yaqqol namoyondir. «Segoh», «Yor-yor», «Omon yor» kabi ko‘pdan ko‘p xalq yo‘llariga mansub asarlarni qayta ishlab, yangicha tus, hayot baxsh etadigan namunalarga aylantirgan. G‘anijon Toshmatov ijodining eng e’tiborga loyiq qismi – bu asl ohanglarda yaratgan asarlaridir. «Olmaydi xabar», «Yurtim mehri» (V. Sa’dulla so‘zi), «Mubtaloman» (Y. Mamatxonov she’ri), «Menga mehribon o‘ldi» (Huvaydo g‘azali), «Istar» (S. Abdulla so‘zi), «Guljamol» (Bobur g‘azali), «Kezarman» (Navoiy g‘azali), «Istadim» kabi musiqa namunalarini xalqimiz tomonidan e’tirof etilib, mumtoz badiiy merosimiz tarkibidan o‘rin olgan. Bular bastakorning o‘z uslubini yorqin ifoda etadigan sara asarlar hisoblanadi. Bastakorning har bir yaratgan kuy va qo’shiqlari xalqonaligi bilan ajralib turadi.

Bastakorlik an’analarining kasbiylik jihatni, ijodkorlarning bilimlilagini in’ikos etib turadi. Bastakorlik an’analarida yuzaga kelgan maqomlar va maqom yo‘llariga xos asarlar o‘zining shaklan va tarkiban mukammalligi bilan ajralib turadi. Ushbu yo‘nalishda ijod etish uchun maqomlarning nazariy jihatlarini idroklash juda muhimdir. G‘anijon Toshmatov asarlarining shu jihatdan mutanosiblikka xosligi begumondir. Maqomlar va Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llarini yaxshi bilgan, bilimdon bastakor o‘z asarlarini an’anaga asoslab yaratgan.

Odatda, bastakorlik ijodiyoti, xalq ijodi namunalarining shaxsiy uslubda qayta ishlangan variantidir<sup>1</sup>. Shuning uchun uning shakl-u shamoyili va uslublari ko‘pdir. Xususan, bular maqom ijodiyotida toki xalqona qo‘shiqlargacha bastakorlik an’anasida munosib o‘rin egallagan.

G‘anijon Toshmatov 100 dan ortiq kuy va qo‘shiqlar yaratgan. Har bir asar zamonasiga mos, an’anaviy tarzda yangicha ohanglar bilan boyigan. Bastakor ko‘proq uch uslubda ijod qilganligi e’tirof etiladi. Birinchidan – xalq yo‘llaridagi asarlarni qayta ishslash; jumladan, «Segoh», «Yor-yor», «Omon yor». Ikkinchisi – yuqori pardalardan boshlanadigan ijod namunalari<sup>2</sup>. Uchinchisi – original asarlar, «Guljamol», «Kezarman», «Istadim» va h.k.

Yor-yor uslubidagi asarida, ya’ni «Qiz uzatdik yor-yor» qo‘shig‘ida biz bunga guvoh bo‘lamiz. 13-misol:

### Ohista

<sup>1</sup> Bu borada buyuk rus kompozitori M.I. Glinka: «Musiqani xalq yaratadi, biz kompozitorlar uni qayta ishlab yana xalq e’tiboriga taqdim etamiz» – degan edi.

<sup>2</sup> Xalq bastakorlik ijodiyotida ko‘p uchraydigan uslub. Xalq yo‘llaridan «Mustahzod», H. Rahimovning «Sochlari tolism, tolism», To‘xtasin Jalilovning «Yolg‘iz» kabi asarlari aynan avj pardalaridan boshlanadi.

Avvalo, asar bastakorlar an’anasiga xos muayyan ovoz va ijro uchun yaratilgan. Uning zaminida Kommuna Ismoilovaning ijro xususiyatlari inobatga olingan. Qo’shiq «Yor-yor»lar yo‘lida yaratilgan, o‘zining betakror ohangi bilan ajralib turadi. Ohangda iliq murojaat, yoqimli intizorlik hislari mavjuddir. Uning talqini jarayonida ohangdagi o‘ziga xos savol-javob harakatlarini ham ko‘rsatishga intilishi seziladi. Bu ijroga joziba baxsh etadi. Mavzu ohanglarini avj pardalardan boshlanishing ham sababi shundadir. Ijroda bunga e’tibor qaratish muhim sanaladi.

Bastakorning asarlari orasida avj pardalardan boshlanadigan yana bir asar «Qoshing qarosi balo» ashulasidir. Oldingiga nisbatan bu asarga mumtozlik uslubi xosdir. 14-misol:

Qo-shing qa-ro- si ba-lo, ne-tay

men un - ga shay - do. Ar-zu ho - lim - ni et

- ku - - r cha-man - da es - gan sa-bo.

ay-la-na-man-e cha-man - da es - gan - sa-bo.

Asar Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llariga xos shakl va uslubga egadir. Asarning keng diapazonga egaligi, ohang ko‘lamining mukammalligi, ohang yo‘lining bosqichma-bosqich rivoji va keng ko‘lamli harakatga egaligi mumtozlik xususiyatlar bilan sug‘orilganligidan dalolat beradi. Uning ijrosini albatta keng

diapazonli ovoz va shunga mos keladigan mahorat bilan talqin etish lozim bo‘ladi.

Bastakorning maqom yo'llariga xos asarlaridan biri Bobur g'azaliga bastalagan «Guljamol» ashulasidir. Asar o'zining kuy tuzilishi va rivojiga ko'ra ashula shakliga xos bo'lib, daromad, miyonxat, dunasr, avj va furovard tarkibiy qismlaridan iboratdir. Maqom sho'balari Farg'ona ashulachilik an'analariga xos uslubda yaratilgan. Ushbu ashula o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Asar Re doriy tonalligi (ladi) tovushlar munosabatiga asoslangan. O'lchov- ritmik asosi esa 4/4 | 4 •  | •  | •  | •  |

Asarning butun jozibasi uning mavzusida mujassam topgan. So‘z ma’nosi bilan kuyning bir-biriga mutanosib kelganligini ham e’tirof etish mumkin. Kuy mag‘zida chaqiriq, murojaat va maqtov ohanglari go‘zal uyg‘unlashgan. Mavzu bir davriyadan iborat va ikki jumlanı tashkil etib, o‘ziga xos xarakterga ega hamda uning talqinida bunga e’tibor berish muhimdir. Chaqiriq va murojaat birinchi jumla ohanglarida jamlangan bo‘lsa, maqtov ohanglari asosida ikkinchi jumla tuzilgan. Ushbu jihatlarni talqin talaffuzida yaqqol namoyon etish, asarning mukammal ijrosini ta’minlab beradi. So‘z bilan kuyning ko‘rinishi quyidagichadir.

M.M.  $\mu$ . = 96-100

Bobur g‘azali  
G‘. Toshmatov musiqasi  
Y. Yusupov ijrosi

A musical score for a vocal performance. The top staff shows a melody in G major with lyrics: "Gul ja mo - - lin yop - qon ul". The bottom staff shows a piano accompaniment in 4/4 time with bass notes.



Asar o‘ziga xos savol-javob ohanglari zamirida yaratilgan. Birinchi davriya o‘ziga xos bir murojaat, ikkinchisi esa unga javob. Bu uslub xalq musiqa ijodiyotiga xosdir. Ohang rivojida ham xalqona uslub hukm suradi.

Asarning tarkibiy qismlari bir-birini davom ettiruvchi jumlalar bilan sug‘orilgan. Mavzuning miyonxat va dunasr pardalaridagi rivoji, kuyning dramatik holda asarning avj qismini tayyorlab beradi. Avj qismining o‘zi, seksta intervali oralig‘ida bosqichma-bosqich yuqoriga harakat evaziga rivojlanadi. Shu bois borgan sari ko‘tarinkilik, shiddat bilan talqin etishni talab etadi. 16-misol:

Musical notation on four staves with lyrics:

Lo - ja - ram,      bo'l - g'ay pa - ri - - -

- sho - nu ha - vo - - - yi men ki - bi - -

Zar - ra yang - - - lig' kim - ki bir

xur - she - d(i) sar - - - gar - do - ni - dur.

G‘anijon Toshmatov ustoz san’atkori sifatida Farg‘ona xalq cholg‘u yo‘lini mukammal idroklagan ustoz edi. Shu bois bastakorlik ijodining aksariyati xalq musiqa merosining turli namunalariga hamohangligini ko‘rish mumkin. Ayniqsa, surnay

maqom yo‘llariga xos kuylar o‘ziga xos ijobatini topganligini e’tirof etish mumkin.

## **Komiljon Jabborov** **(1914–1975)**

O‘zbek xalq bastakorlaridan biri, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist, cholg‘u ijrochiligidagi o‘z ijro uslubini yaratgan betakror sozanda, mohir bastakor Komiljon Jabborov Farg‘ona vodiysining Andijon shahrida 1914-yilning 15-aprelida oddiy mehnatkash oilasida tavallud topgan. Musiqa savodini chang va g‘ijjak cholg‘ularida Farg‘ona vodiysi ijrochilik an‘analarining bilimdoni, namanganlik ustoz san’atkor Usta Ro‘zimat Isaboyevdan o‘rganadi. Shundan so‘ng Komiljon bir qator zamonasining mohir sozandalaridan cholg‘u ijrochilik sirlarini o‘rganishni davom ettiradi. Xususan, andijonlik mohir sozandalar Sobirjon Sodiqovdan g‘ijjak ijrochiliginu, Muhiddin Qori Najmuddinovdan dutor ijrochilik sirlarini o‘rganib o‘z bilimlarini mustahkamlaydi.



Komiljon Jabborovning mustaqil sozandalik hayoti 1930-yillarda ustoz san’atkor To‘xtasin Jalilov rahbarligidagi «Milliy musiqa to‘garagi»da boshlanadi. 1931-yildan Oxunboboyev nomidagi mu-siqli drama teatrida sozanda sifatida ishlaydi. Teatrda olib borgan faoliyati davomida u sahnalashtirilgan spektakllarning musiqalarini tanlab, aktyorlar bilan birga mashg‘ulotlar o‘tkazardi. Shu jarayon uni ijod qilishga undaydi. Shu paytda «Gulsara», «Layli va Majnun» kabi spektakllar Andijon teatrida sahnalashtirildi. Bastakor o‘zining ilk ijod namunalarini yozadi. Shoir Sobir Abdulla so‘ziga yozgan ilk «Chayqalur» qo‘srigi ustozlarining sabog‘iga mos, o‘ziga xos shakl va mazmun jihatlaridan o‘zbek mumtoz musiqasi yo‘llariga xosligi namoyon edi.

1941-yil boshida Komiljon Jabborov Yangiyo'lda tashkil etilgan musiqali drama teatriga ishga taklif etiladi. Bu yerda u zamona-sining eng yetuk san'atkorlari, xonanda va sozandalari bilan birga faoliyat yuritadi. Jumladan, T. Jalilov, J. Sultonov, X. To'xtasinov, M. Murtazoyev, S. Abdulla va boshqalar. Ushbu jamoadagi faoliyati, ijro jarayoni va ijodiy muloqotlar, shu bilan birga mashhur rus kompozitori Shteynberg bilan bo'lgan hamkorlik Komiljon Jabborovning bastakorlikdagi ilmini oshiradi va yangidan yangi asarlar yaratishga qanot baxsh etadi. Bastakor ijodi davomida bir qator musiqali dramalar, oratoriya, simfonik asarlar yaratishga muvaffaq bo'ladi. Eng muhimi, Komiljon Jabborov bastakor va kompozitor sifatidagi mukammal asarlarni yaratadi.

1947-yildan Komiljon Jabborov O'zbekiston radiosи qoshida-gi milliy cholg'ular orkestrida ish faoliyatini davom ettiradi. Bu dargohda u umrining oxirigacha g'ijjakchi sozanda sifatida ish olib boradi.

Darhaqiqat, Komiljon Jabborov o'zbek musiqa ijodiyotida original asarlar yaratgan bastakor sifatida e'tirof etilgan. Uning yaratgan har bir asari shakli, mazmuni, yo'nalishi, ohang mavzulari va albatta, ijrodagi jozibasini ta'minlovchi xususiyatga ega ekanligini qayd etish lozimdir. Bastakor ijodiy faoliyati davomida 100 dan ortiq kuy, qo'shiqlar va ashulalar, zamonaviy janrlarda asarlar yaratadi. Bastakorning o'z uslubiga egaligi uning yaratgan kuylarida va ashulalarida o'z ifodasini topgan.

O'zining ilk ijodini Komiljon Jabborov 1930-yillarning ikkinchi yarmidan boshlagan. Avvaliga xalq qo'shiqchiligi janriga e'tiborli bo'lib, ularning sir-u sinoatlarini anglar, shunga o'xshash asarlar yarata boshlagan. «Ko'zlar», «Ey, pari», «Xush kelding» kabi qo'shiqlari aynan xalq ijodiyoti ohanglariga xosligi bilan xarakterlanadi. Ijodiy kamoloti uchun ushbu yillar juda katta ibratli maktab sifatida muhrlanganligini qayd etish joiz. Avvalo, o'zbek musiqa darg'alari bilan har tomonlama faoliyat olib borish bo'lsa, ikkinchi tomondan

professional musiqa ijodiyoti namoyandalarining faoliyati bilan tanishish bo‘ldi. 1941-yildan professional kompozitorlar bilan hamkorlikda ijod etib, musiqa ijodiyotining ushbu yo‘nalishini ham Leningrad konservatoriyasining namoyandalaridan M. Shteynberg, A. Kozlovskiy va bir qator rus kompozitorlarining ham ta’limini olishga va birga hamkorlik qilishga tuyassar bo‘ladi.

O‘zbek bastakorlarining 30–40-yillardagi rus kompozitorlari bilan hamkorligi o‘zbek musiqasi uchun yangi yo‘nalishdagi bir qator musiqiy-sahnaviy asarlar, simfonik asarlarning yaratilishiga sabab bo‘ldi. Avvalo, bastakorlarning kompozitorlik yo‘nalishini egallashlari, bu yo‘nalishda o‘zbekona asarlarning yaratilishiga olib keldi. Hamkorlikdagi ijod asosida yaratilgan ilk asarlar, asosan, xalq musiqa ijodiyotiga, ya’ni folklor va mumtoz musiqa namunalariga asoslanganligini qayd etish lozimdir. Ko‘p hollarda bastakorlar avvaliga musiqa tanlovchi va moslashtiruvchi sifatida jarayonga kirib keldilar. Bu ishda Tolibjon Sodiqov, Yunus Rajabiy, To‘xtasin Jalilov kabi bastakorlar samarali faoliyat ko‘rsatdilar. Bularning qatorida Komiljon Jabborov ham ushbu jarayonga o‘z hissasini qo‘shishga tuyassar bo‘ldi. Jumladan, taniqli san’atkor N. Salixov bilan birgalikda ilk bor «Layli va Majnun» musiqiy dramatik asarini 1938-yili yozadi. Kompozitorlar B. Arapov va A. Kozlovskiylar bilan birga «Jaloliddin Manguberdi» oratoriyasi yaratiladi. 1940-yillarda kompozitor M. Shteynberg, S. Kalonovlar hamkorligida «Simfoniya-rapsodiya» asari yaratiladi.

1950–1960-yillar bastakor ijodining samarali davriga to‘g‘ri keladi. Aynan musiqali drama janrida o‘zbek kompozitorlari S. Hayitboyev bilan hamkorlikda «Nodira», D. Zokirov bilan «Mening jannatim» kabi asarlar yaratiladi. Bastakor zamonasining ruhiyatini, davr talabi doirasida tinglovchilarning maqsadi va talabiga xos bo‘lgan jihatlarni o‘z asarlarida in’ikos qilishga harakat qiladi. Shu bois, uning ijodi musiqiy meros an’analari zaminida meros namunalariga tayangan va mustaqil ijodga xos namunalardan tarkib top-

gan. Xarakter nuqtayi nazaridan lirik jihatlarni o‘zida mujassam etgan asarlar uning ijodida asosiy o‘rinni egallaydi. Bundan tashqari, xalqimizning mehnat, ona diyor, Vatan tuyg‘usi, ishq va muhabbat, e’tiqod va hurmat kabi xarakterli jihatlari ana shu lirik jarayonda o‘z uyg‘unligini topadi.

Komiljon Jabborovning ijodidan o‘rin olgan asarlarning haqiqiy xalqchilligi, xalqimizga xarakterli bo‘lgan mehnat jarayonlarini, ona diyorimizning o‘ziga xosligi ohanglarda ifodalanishi bilan dilga yaqindir. Shu bois uning bir qator asarlari bir necha yillar davomida radio va televide niye to‘lqinlari orqali doimiy ravishda yangrab turadigan radioeshittirishlari va teleko‘rsatuvlarning ramziy ohanglari sifatida qo‘llanilib kelingan. Zero, tinglovchi kuy ohanglarining o‘zidan eshittirish yoki ko‘rsatuv qaysi mavzuga bag‘ishlanganligini ilg‘ab olgan. Jumladan, davrining qishloq xo‘jaligi mehnatkashlari – chorvadorlari uchun maxsus beriladigan kundalik eshittirish bastakorning «Diyorimsan» (Habibiy so‘zi) qo‘shig‘ining kuyi bilan boshlangan. «Sihat-salomatlik» teleturkum ko‘rsatuvlari «Shifokorlar» (P. Mo‘min so‘zi) qo‘shig‘i bilan yoki «Toshkent va toshkentliklar» radioeshittirishlari hamda teleko‘rsatuvlari «Toshkent piyolasi» (H. Xo‘jayev so‘zi) qo‘shiq kuyi sadolari bilan boshlangan.

Bastakorlik ijodining ikki o‘ziga xos xarakterli tomoni mavjud. Ijodining shakllanish jarayonida yetakchi ahamiyat kasb etgan – xalq musiqasi merosi namunalari va ohanglariga asoslangan asarlar. Ikkinchisi, milliy ohanglarda bastalangan original asarlar. Ularning mukammalligi o‘zbek bastakorlik an’anasiga tayanganligida namoyon bo‘ladi. Xususan, yaratilgan kuylarning har tomonlama mutanosibligi va mukammalligi Komiljon Jabborovning sozandalik san’atida ustoz ko‘rgan, ustoz-shogird an’anasida tarbiyalangan va musiqiy merosni puxta idroklaganligining natijasidir. Shu bilan birga bastakor har bir asari uchun an’naviy shaklda so‘z tanlaydi. Bunda asosiy mezon uning uslubiga mosligidir. O‘zbek klassik shoirlarining mumtoz she’riyati – Alisher Navoiy, Lutfiy, Muqimiylar.

Furqat, Uvaysiy, Nodiralarning ijodiga, zamonamizning ilg‘or shoirlarining ona diyorni madh etuvchi, Vatanni sevish, ardoqlash va unga munosib holda xizmat qilish muqaddasligi, xalqimizning boy ma’naviy dunyosi, betakror qadriyatlari va an'analarini davom ettiruvchi, yoshlarni kamolot sari undovchi hislarini uyg‘otuvchi matnlarga murojaat etidi.

O‘zbek mumtoz musiqasi uslubida yaratilgan «Senga», «Gul bargi», «Ey pari»<sup>1</sup>, «Mubtalo bo‘ldim senga» kabi Alisher Navoiy g‘azallariga yozilgan lirik ashulalar; Fuzuliy g‘azaliga «Yetmasmidim», Uvaysiy so‘zi bilan «Tokay», Muqimiyl so‘zi bilan «Assalom», Lutfiy so‘zi bilan «Bu ko‘ngil», Nodira she’rlariga «Dildagi rozi», «Yalla», Habibiy so‘zлari bilan «Jonon bo‘lur», «Taklifnama», «Mehnat taronasi», «Xush keldi», «Diyorimsan», «Mumtoz etgali keldik», «Yaxshiroq» kabi lirik ashulalar o‘zining betakrorligi bilan alohida ajralib turadi. Bastakorning aynan mana shu lirik uslubda yaratgan ashulalari, avvalo, mumtoz bastakorlik an'analarini davom ettirgan har bir mumtoz xonanda va sozandalarning ijro repertuaridan o‘rin olgan. Ushbu asarlar o‘zining shakl jihatidan, mavzu va uning rivoji, mumtozlik tarkibiy tuzilishi, lad va metro-ritmik asoslari bilan mumtoz musiqa namunalari an'analarini asosida yaratilgan. Bunga yorqin misol «Yetmasmidim» ashulasidir.

Komiljon Jabborovning ushbu asari Fuzuliyning «Yetmasmidim» radifli g‘azaliga yozilgan. Ashula janriga mansub bo‘lgan ushbu asar, maqomlarga xos tarkibiy tuzilmaga egadir. Uning ichki tarkibiy qismlarining ketma-ketligi, maqomlarga xos rivojlanuvchi dramatizmni hosil qilib beradi. Ashula keng diapazoni, original mavzu, sokin usul negizida lirik uyg‘unlikni ta’minlab beradi. Eng muhimmi, avjlar tizimi va asarning dramatik

<sup>1</sup> K. Jabborovning «Ey pari» ashulasi keyinchalik «Nazzora qil» nomi bilan amaliyotda qo‘llanilishi rasm bo‘lgan.

holatini ta'minlab beruvchi xususiyatga egaligini e'tirof etish lozimdir. 17-misol:

M.M. ♩.=76-80

K. Jabborov misiqasi

Aq - li yor o'l - say - di tar -  
- ki ish - qi yo - - r et - ma - s - mi - dim.

«Yetmasmidim» ashulasi zamonaviy jarayonda, maqom ijrochiligi bo'yicha tarbiyalanayotgan har bir xonandaning ijro repertuaridan o'rin olgan asardir.

Bastakorning «Tokay» asari esa boshqalariga nisbatan sodda, diapazon jihatdan qisqaroq bo'lib, bir oktava oralig'ini qamrab oladi. Ushbu asar oddiy uch qismli namuna shaklida ijod etilgan va o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Daromad qismida asarning asosiy mavzusi lad asoslari va metro-ritmik jihatlar negizida o'zini namoyon etadi. 18-misol:

M.M. ♩.=48-52

Bo-shim - g'a      yog' - du rur - san, ey  
 fa - lak      bo - ro - ni ham to - kay.

Komiljon Jabborovning mumtoz uslubdagi asarlari musiqa ijodiyotining yorqin namunalari sifatida meros qatoridan o‘rin olgan. U asari uchun qaysi shaklni tanlamasin, bastakorlik uslubining xarakterli jihatlari negizida go‘zal ifodasini topganligini kuzatish mumkin. Bastakor nafaqat mumtoz shoirlarning ijodiga, balki zamondosh shoirlarning she’rlariga ham bir qator qo‘shiqlar yaratishga tuyassar bo‘lgan. «Birma-bir», «Ko‘rgim kelar» (Turob To‘la), «Toza Lutf», «Shifikorlar», (Po‘lat Mo‘min), «Kel» (E’tibor Oxunova), «Sevgi otashi» (E.Vohidov) qo‘shiqlari shular jumlasidandir.

**Faxriddin Sodiqov**  
**(1914–1977)**

Ustoz san’atkor, mohir sozanda va bastakor Faxriddin Sodiqov 1914-yilning 13-may kuni Toshkent shahrida tug‘ilgan. Yoshligidan dutor va chang cholg‘u ijrochiligi sirlarini o‘rgangan. Ustozlari Nug‘mon qori Mo‘minzoda va Abdusоат Vahobovlar bo‘lishgan. Toshkent musiqa texnikumida tahsil olib, uni 1933-yili tugatgan. O‘zining ijrochilik faoliyatini 1930-yillardan boshlagan. Ijrochilik faoliyatini avvaliga to‘garak rahbari, so‘ng yakkanavoz, ansambl sozandasasi sifatida olib boradi. 1931–1935-yillar davomida



O‘zbek davlat musiqali teatrida, 1935–1938-yillarda O‘zbekiston davlat filarmoniyasida sozanda bo‘lib ishlaydi. 1939-yili Lutfixonim Sarimsoqova va Yunus Rajabiylar rahnamoligida dutorchilar ansamblida faoliyat yuritadi. 1942–1945-yillarda Gavhar Rahimova rahbarligidagi konsert brigadasida musiqa rahbari lavozimida ishlaydi. 1946–1952-yillarda Toshkent davlat konservatoriyasida chang sinfi bo‘yicha saboq oladi.

Faxriddin Sodiqov musiqa merosi sir-u sinoatlarini yaxshi idroklash zaminida, musiqa ijodiyotiga ham qadam qo‘yadi. Ijodiy jamoalarda faoliyat olib borish jarayonida uning ilk bastakorlik amallari yuzaga keladi. Faxriddin Sodiqov juda zehni o‘tkir, zukko sozanda bo‘lgan. Xonandalarning ichki tabiatи, ovoz imkoniyatlari va ijrochilik tajribalari negizida xonandaga mos asarlar yaratishga muvaffaq bo‘ladi.

F. Sodiqov 1947–1953, 1957–1961-yillarda O‘zbekiston Radiokomiteti xalq cholg‘u ansamblida changchi, 1953–1957-yillarda O‘zbek estrada ansamбли, 1961-yildan O‘zbekiston radiosи qoshidagi maqom ansamblida musiqa rahbari sifatida ishlaydi.

Ijrochilik va bastakorlik ijodini Faxriddin Sodiqov 1972-yildan boshlab pedagogik faoliyat bilan birga olib boradi. U Toshkent davlat konservatoriysi qoshida tashkil etilgan «Sharq musiqasi» kafedrasida ish boshlaydi. Ushbu dargohda u chang, dutor cholg‘ulari hamda maqom ansamбли bo‘yicha talabalarga maqom ijrochilik san’atidan saboq beradi.

Faxriddin Sodiqov bastakor sifatida zamonasining ilg‘or bastakorlari va kompozitorlari bilan yaqindan ijodiy hamkorlik qiladi. U kompozitorlar B. Giyenko bilan «Ota o‘g‘li» (H. Sharipov pyesasi), S. Hayitboyev bilan «Sulton larzada» (V. Sa’dulla pyesasi) kabi musiqali dramalar, bastakor G‘. Toshmatov bilan hamkorlikda «Yangi Toshkent» syuitasi kabi yirik musiqa asarlarini yaratdi.

Faxriddin Sodiqov, avvalo, zabardast bastakordir. Uning ijodida qo‘sish janri alohida o‘rin tutadi. Qo‘sishlarining aksariyati xalqona

uslubda, qo'shiq, ashula va yalla shakllarida yozilgan. Bular: «Yurgil lola sayliga», «Jonom tasadduq», «Zuhraga», «Parvonasisman», «Vafodor», «Loaqal», «Ulug' ayyom», «Ishq», «Jonon ko'rinur», «Savti miskin», «Sog'inish», «Qora ko'z», «O'zbekistonim mening», «O'zbek valsi», «O'zbekiston», «Favvora», «Turnalar», «Zulayho bo'lsang», «Subhidam», «Yangi yil taronasi», «Kechar yillar», «Ona», «Bir go'zal», «Shirmonoy», «O'yna gulim», «Baxt», «Hayosini ko'ring», «Zebixon», «Zulfing», «Suvchi qizga», «Shodiyona», «Ishqim tushdi yor-yor», «Guliston qil», «Oydin kechada», «Tushmasin», «Farzand quvonchi», «Saodatim», «Gul ishqisi», «To'yna», «Paxtakor ayol», «Barno yigit» va boshqalar.

Qayd etish joizki, musiqa merosimizdan o'rin olgan musiqiy namunalar avlodlar e'tirofiga sazovor bo'lishi lozim. Shundagina yaratilgan asar avlodlar tomonidan qayta-qayta davom ettiriladi. Faxriddin Sodiqovning ijodiy namunalari ham ana shunday originallik xususiyatiga egaligi bilan mumtoz musiqa merosimiz xazinasidan o'rin olishga tuyassar bo'ldi. Buning ijobatini biz hozirgi zamon yosh avlod xonandalarining bastakor merosiga befarq emasligida va uning asarlari o'z an'anasi saqlagan holda, zamонавиъ талқинлар bilan rivojlanib borayotganlida ko'ramiz.

Faxriddin Sodiqov o'zining sozandalik faoliyati va bastakorlik ijodi bilan o'zbek musiqa san'atiga ulkan hissa qo'shdi. Ijrochilik amaliyotida esa har tomonlama mukammal, milliy an'analar bilan sug'orilgan o'ziga xos betakror ijro uslubini yaratdi. Uning yaratgan asarlarining o'ziga xosligi, ushbu uslubga mosligidadir. O'zbek bastakorlik ijodiyotida shu davrda yaratilgan musiqiy namunalar orasida Faxriddin Sodiqovning asarlari alohida ajralib turadi. Ijrochilik amaliyotida zamonga moslashib kelayotgan asarlar qatoridan o'rin olib kelmoqda.

Musiqa ijrochilik amaliyotida keng ommalashgan «Ko'rsatmagan», «Bir go'zal bordir», «So'lim bahor», «Ey, sohibi dil», «Ey, chehrasi tobonim», «Zulayho bo'lsang» kabi bastakorning asarlari

yuqorida zikr etgan fikrimizning dalilidir. Har bir asar o‘ziga xos shakl, mazmun va jozibaga ega bo‘lishi bilan birga bastakorning tub uslubini namoyon etib turadi. Bu omil har bir asarning asosiy mavzusining o‘zida va talqinida ko‘rinib turadi. Jumladan, «Bir go‘zal bordir» qo‘shtig‘i. 19-misol:

M.M. ♩.=68–74

The musical score consists of four staves of music. The first three staves are in common time (♩.=68–74) and the fourth staff is in 2/4 time. The lyrics are written below the notes in three staves.

Staff 1 (Measures 1-3):

Staff 2 (Measures 1-3):

Staff 3 (Measures 1-3):

Staff 4 (Measures 1-3):

Lyrics:

Dey - di - lar - kim, shah - rim - da      bir go' - zal      bor - mish,  
 Har oq - shom boq - qa ki - ri - b      meni      so' - rar      mish.  
 Iz la - rim - ni      to - pol - may,      oh - lar u - rar      mish.

Bastakor ijodidan o‘rin olgan asarlar orasida «Ey, chehrasi tobonim» qo‘shtig‘i ham alohida o‘rin tutadi. Qayd etish joizki, qo‘shtiqning uslubiy jihatlariga asoslangan yana bir qator namunalar mavjud. Bu asar yuqori pardalardan boshlab fikr bayon etish va asosiy tonga bosqichma-bosqich qaytish ohanglariga asoslangandir. Bu jarayon qo‘shtiqqa o‘zgacha dramatizm baxsh etadi. 20-misol:

Bastakorning ijodiy faoliyati, asarlarining tahlili musiqashunos R. Yunusov qalamiga mansub, bastakor Faxriddin Sodiqov hayoti va ijodiga bag‘ishlangan monografiyada keng yoritilgan. O‘quvchilar bastakor haqidagi batafsil ma’lumotlarni shu manbadan olishlari maqsadga muvofiqdir<sup>1</sup>.

**Saidjon Kalonov  
(1914–1972)**

O‘zbek bastakorlik maktabining namoyandalaridan biri, atoqli sozanda va bastakor Saidjon Kalonov 1914-yilning 30-iyunida Farg‘ona vodiysining Chust tumani Karkidon qishlog‘ida tavallud topgan. Oddiy hunarmand oilasida tug‘ilgan Saidjon yoshligidan nay sozini chalishni mashq qiladi. Avvaliga eski maktabda,



<sup>1</sup> R. Yunusov. Faxriddin Sodiqov. Monografiya. –T., 2005.

so‘ng XX asrning 20-yillaridan yangi maktabda boshlang‘ich ta’limni oladi. Maktabda musiqa to‘garagiga qatnashadi. 1925-yili Toshkentdagi musiqa texnikumiga o‘qishga kiradi va sozandalik san’atini puxta egallaydi. Ushbu dargohda u zamonasining yetuk san’atkorlari Shorahim Shoumarov va Abdusoat Vahobovlar sinfida musiqa sirlarini o‘zlashtiradi.

Taqdir taqozosi bilan 1927-yili ularning oilasi Toshkentga ko‘chib o‘tishadi. U Yunus Rajabiy tomonidan radio qoshida tashkil etilgan xalq cholg‘ulari ansambliga naychi sozanda sifatida ishga kiradi.

Saidjon Kalonov tabiat bergen o‘ziga xos iste’dod egasi edi. Uning nay cholg‘u sozining ijrochiligida ansamblda ishlashi, texnikumda muallimlardan saboq olishi nafaqat saboq davri, balki ustozlarning an’anasini egallahida asosiy maktab sifatida xizmat qiladi. Nay cholg‘usining ijrosi uchun sozandalarda bir qator tabiiy iste’dod va imkoniyatlar bo‘lishi talab etiladi. Saidjon Kalonov ustozlar rahnamoligida aynan ustoz-shogird mакtabini o‘tashga muvaffaq bo‘ladi. Ustozlar Abduqodir Ismoilov, Yunus Rajabiy va To‘xtasin Jalilovlarning sabog‘idan, nafaqat soz ijrochilik san’ati, balki boy musiqiy meros namunalarini o‘zlashtirishga harakat qiladi.

Saidjon Kalonovning saboq jarayonidagi eng muhim jihat ham ana shu ustozlarning sabog‘ida muhrlangan edi. Qolaversa, radio qoshidagi ansamblida Mulla To‘ychi Toshmuhamedov kabi ustozlar bilan birga Komiljon Jabborov, Faxriddin Sodiqov, Nabijon Hasanov, G‘anijon Toshmatov kabi zamonasining mohir san’atkorlari bilan faoliyat olib borgani Saidjon Kalonov faoliyatida alohida ahamiyat kasb etdi.

Musiqa texnikumini bitirganidan so‘ng Samarqand musiqa va xoreografiya institutida ikki yil davomida taniqli naychi, ustoz san’atkor Abduqodir Ismoilovning ta’limini oladi.

1932-yili faoliyatini Farg‘ona viloyati musiqali drama teatri qoshidagi musiqa ansambliga musiqa rahbari sifatida boshlaydi. Jamoa bilan ishslash, teatr repertuaridan o‘rin olgan musiqali

dramalarga musiqalar tanlashning amaliyoti uning har tomonlama ijodini sinab ko‘rish imkoniyatini yaratdi. Jamoa bilan ishslash jarayonida u musiqa ijodiyotining bir qator yo‘nalishlarida o‘zini sinab ko‘rishga intiladi.

Saidjon Kalonov teatrda sahnalashtirilgan spektakllar uchun musiqalar tanlagan va ularni maromida ijro etish uchun jamoani boshqaradi. Jumladan, «Farhod va Shirin» musiqali spektakliga musiqalar tanlaydi va bir qator kuy va qo‘shiqlar bastalaydi. Saidjon Kalonov bastakorlik ijodining ilk uchqunlari ayni shu teatrda namoyon bo‘la boshlaydi.

1936-yili Toshkentda O‘zbekiston davlat filarmoniyasi tashkil etiladi. Saidjon Kalonov To‘xtasin Jalilov rahbarligidagi ansamblida naychi sozanda sifatida faoliyatini davom ettiradi. Shu davrdan boshlab, o‘zbek musiqa ijodiyotida yangi uslub shakllana boshlaydi. Musiqa ijodiyotida ham o‘ziga xos mazmunga ega bo‘lgan asarlar yaratish zamon talabiga aylanadi. O‘zbek bastakorlik ijodiyotida keskin burilish hosil bo‘lganligini ko‘rish mumkin. Ya’ni an’anaviy (maqom va maqom yo‘llaridagi) musiqa ijodi emas, balki yangi zamonni madh etuvchi tantanavor qo‘shiqlar yaratila boshlandi. Shu bilan birga, Yevropa musiqa ijodiyotida keng ommalashgan kompozitorlik ijodiyoti kirib keldi. Bu, albatta, davr taqozosi edi.

Shu tariqa Saidjon Kalonov O‘zbek filarmoniyasi qoshidagi ansambllar tarkibida o‘zbek san’atkorlari bilan birgalikda faoliyat olib boradi. Saidjon Kalonov nafaqat sozanda sifatida, balki ansambl rahbari, ansamblni yangi asarlar bilan ta’minlab kelgan bastakor sifatida o‘zini namoyon eta boshlaydi. Ayniqsa, Yangiyo‘l teatri jamoasida ustoz san’atkorlar hamkorligidagi faoliyati davomida ancha mukammal asarlarni yaratishga muvaffaq bo‘ladi. 1948-yildan umrining oxirigacha O‘zbekiston radiosи qoshidagi o‘zbek xalq cholg‘ulari orkestrida ishlaydi.

Saidjon Kalonovning bastakorlik ijodi ijrochilik amaliyotida charxlangan, ustozlar uslublari va musiqiyo‘merosni mukammal

o‘zlashtirganligi evaziga hamda iste’dodining mahsuli sifatida yuzaga keldi. Avvaliga davr taqozosi bilan vatanparvarlik ruhidagi asarlar, qolaversa, ishq-muhabbat mavzularida «O‘zbekistondan salom», «G‘alaba bilan qayt», «Vatan sevgisi», «Do‘stlik jasorati», «Quyoshli o‘lkam», «Gulmidi, ra’nomidi?», «Dilnavozim», «Visol gulshani», «Ey, sarvi ravon» kabi bir qator qo‘shiqlarni yaratadi.

Bastakorning Navoiy so‘ziga bastalagan «Ey, sarvi ravon», Muqimiy she’riga «Kuyla dilkash dutorim» kabi asarlari o‘zining milliy-ma’naviy dunyosi bilan o‘zbek xalqining qalb nidolarini kuylovchi, milliy an'analarini aks ettiruvchanligi bilan alohida e’tirof etiladi.

Har ikki asar ham musiqa ijrochiligi amaliyotining keng ommalashgan namunalariga aylanganligi, ularda mumtozlik xususiyati bilan zamonga moslashish jihatlari uyg‘unligidan dalolatdir. Har ikki asar ham avvaliga qo‘sishq janri xususiyatlari doirasida ijod etilgan. Ijro amaliyotida esa ularning keyingi rivojini kuzatish mumkin. Asarlar rivojlanib ashula shakliga xos xususiyatlar bilan sug‘orilgan. «Ey, sarvi ravon». 21-misol:

**Allegro moderato**

Ey sar - vi ra - von na-dur xa-yo - ling

Jo - n o'r - ta-nur - va'da - yi vi - so - ling

«Kuyla dilkash dutorim» ashulasi ham o‘zining xalqonaligi va mumtozlik xususiyati bilan ijro amaliyotini zamonaviy talqinlar bilan boyitib kelmoqda.

22-misol: «Kuyla dilkash dutorim»

M.M. ♩.=84-88

Kuy-la dil-kash kuy-la dil-kash du-to - o - ri - m  
Kuy-la dil-ka-a-sh kuy-la dil-kash du-to - o - ri - m  
Xu- mo - rim yo - z xu-mo - rim yo - z xu-mo - ri - m

Bastakor teatrning taniqli dirijori Nabi Halilov bilan hamkorlikdagi «Muqanna» musiqali dramasiga musiqa yaratgan. Shu bilan birga, uning ijodidan munosib o‘rin olgan xalq cholg‘u orkestri uchun «Bahor armug‘oni», chang va xalq cholg‘u orkestri uchun «Pyesa», qashg‘ar rubobi va orkestr uchun «Raqs» kabi bir qator xalq cholg‘ulariga mo‘ljallangan pyesalarni ko‘rsatish mumkin. Bastakorning o‘ziga xos uslubi soddaligi, maftunkorligi va originalligi bilan ajralib turadi. Uning asarlarini baland tembrli ovoz, xastalik xususiyatini beruvchi sadolar orqali ijro etish xarakterlidir. Tinglovchining qalbini ehtirosga to‘ldiruvchi, jo‘shqinlik talab etuvchi bu asarlar xalqimizning betakror musiqiy namunalariga aylangan. O‘zining maqomlar yo‘llariga xos tarkibda yaratilgan ashulalaridan biri A.Navoiyning «Tortadur» radifli g‘azaliga bastalagan «Topmadim» ashulasidir. 23-misol:

M.M. ♩=144–152  
♩=92–96

Navoiy g'azali  
S. Kalonov musiqasi

ko'p                    ko'r                    guz - dim, am - mo, meh - ri -  
bo - ne (yey)            top - ma - dim,            Jon ba -  
se - qil - dim            fi - do,                    o - - ro - me  
jo - ni - (yey)            top - ma - dim.            Mehr

«Topmadim» ashulasi maqomlarning ikkinchi guruh sho‘balaridan talqincha namunasi asosida yaratilgan. Asarning tarkibiy rivojlanish tamoyillari ham qismlarning hamda lad va usul jihatlarini bir-biriga mutanosib holda shakllantirgan. Bunday xususiyat o‘tmish ijodkorlarining bastakorlik an’analariga xosligini qayd qilib o‘tish lozimdir.

**Amaliy mashg‘ulot:** M. Mirzayev, G‘. Toshmatov, K. Jabborov, F. Sodiqov va S. Kalonovlarning ijodiy faoliyatini o‘rganish. Har bir bastakorning mumtoz uslubda yaratgan asarlaridan namunalar tinglash. «Surating», «Yakka bu Farg‘onada», «Parvo etib kel», «Ko‘zlarining», «Ko‘rsatmagay», «Bir go‘zal bordir», «Ey, chehrasi

tobonim», «Zulayho bo‘lsang», «Ey, sarvi ravon», «Kuyla dilkash dutorim», «Yetmasmidim», «Tokay», «Nazzora qil», «Farg‘ona tong otguncha», «Bir ishva bilan», «Tamanno», «Tortadur» va h.k. Ularning ijodiy uslublarini ajratib olish va maqomlar ijodiyoti hamda xalq ijodiyoti bilan umumiylit jihatlarini aniqlash. Bastakorlar ijodidan bittadan asarlarini tinglab tahlil qilish. Ularning o‘zbek mumtoz musiqa san’ati rivojidagi o‘rni, qo‘sghan hissasi va ijodining tarixiy ahamiyati xususida.

### **Nazorat savollari**

1. O‘zbek bastakorlik ijodi namoyandalarining ushbu davr vakillari xususida nimalarni bilasiz?
2. M. Mirzayev, G‘. Toshmatov, K. Jabborov, F. Sodiqov va S. Kalonovlarning bastakorlik ijodi namunalari va ularning janrlik hamda ijroviy tomonlarini gapirib bering.
3. M. Mirzayev, G‘. Toshmatov, K. Jabborov, F. Sodiqov va S. Kalonovlarning yaratgan asarlari va uslublarini mushohada qiling. Yosh avlod munosabatlari bilan solishtiring.

### **3.2. XX ASR 60–80-YILLAR BASTAKORLIGI NAMOYANDALARI**

O‘zbek bastakorlik ijodiyotida ushbu davr o‘ziga xos vohalarning muqimlashishi va namoyandalarning faolligi natijasida samarali ijod jarayoni o‘taganligini qayd etish mumkin. Eng muhimmi, bastakorlik ijodiyotida maqom san’atining namunalariga xos asarlar yaratish hamda mumtoz asarlarni turkumlash amallari ko‘rina boshladi. Bunga Buxoro, Xorazm, Andijon, Toshkent bastakorlik maktablarining namoyandalari o‘ziga xos munosabatda bo‘ldi.

«Ushbu davrda, – deb yozadi musiqashunos R. Abdullayev, – M. Akbarov (Qo‘qon), F. Mamadaliev, M. Tillayev, G‘. Hojiqulov,

Y. Yunusov (Andijon) va boshqa bastakorlarning qo'shiq ijodiyoti faollashdi»<sup>1</sup>. Albatta, O. Hotamov (Toshkent), S. Xoldorxo'jayev (Namangan), R. Tursunov (Qashqadaryo), O. Xudoyshukurov (Xorazm), M. Madaliyev (Marg'ilon), S. Hamroqulov (Samarqand) kabi bastakorlarning ham ijodini qayd etish lozimdir.

Faqat Andijon bastakorlik matabining o'zidan bir qator bastakorlar o'z ijodi bilan ajralib chiqdi. Fattohxon Mamadaliyev, Yunusqori Yusupov va G'ulomjon Hojiqulovlar bastakorlik ijodlarida an'anaga asoslangan o'ziga xos uslub yaratganliklarini ham e'tirof etish lozim.

### **Fattohxon Mamadaliyev (1923 – 1999)**



O'zbekiston xalq hofizi, mashhur xonanda, mumtoz musiqa yo'lida bir qator asarlar yaratgan bastakor Fattohxon Mamadaliyev 1923-yili Farg'ona vodiysining Andijon viloyati Baliqchi tumani Haqqulobod qishlog'ida dehqon oilasida tavallud topgan.

Bolalik chog'laridan xalq musiqa ijrochiligiga katta mehr qo'ygan. Qishloqning madaniyat uyi qoshidagi badiiy havaskorlik to'garagida tanbur, dutor kabi cholg'ular ijrochilagini o'rgana boshlaydi. Andijonlik mashhur g'ijjakchi sozanda Mo'minjon Karimov unga nafaqat cholg'u ijrochiligi, balki xonandalik sirlarini ham o'rgatadi. Ayniqsa, u o'z zamonasining keksa avlod hofizlarining ijrolariga katta e'tibor bilan yondashadi va ularning ijro uslublarini hamda ijro repertuarlarini o'zlashtirishga harakat qiladi.

---

<sup>1</sup> Р. Абдуллаев. Фольклор и профессиональная музыка устной традиции. //История узбекской музыки// III том. – Т., 1991. С. 39.

U 1968-yili Andijon davlat pedagogika institutining tarix-filologiya fakultetini muvaffaqiyatli tamomlaydi. Ijodiy faoliyatini musiqa san'atining rivojiga bag'ishlashga ahd qiladi.

Andijon viloyatining Xo'jaobod, Izboskan kabi tuman madaniyat uylarida, Andijon davlat pedagogika institutida havaskorlardan iborat «Maqomchilar ansamblı» jamoalarini tashkil qiladi. Faoliyati davomida ularga ustozlik va maslahatchiko'makdoshlik qilib turdi. Andijon shahar madaniyat uyi qoshida tuzgan «Maqomchilar ansabli» bilan ijod qiladi. 1985-yildan boshlab umrining oxirgi damlarigacha M. Ashrafiy nomidagi Toshkent davlat konservatoriysi (hozirda O'zbekiston davlat konservatoriysi) Sharq musiqasi (keyinchalik An'anaviy ijrochilik) kafedrasida faoliyat olib boradi.

Mashhur hofiz an'anaviy xonandalik ixtisosligi bo'yicha tala-balarga qariyb o'n besh yil davomida saboq berdi. Ushbu jamoada dotsent, so'ngra 1993-yildan professor lavozimlarida pedagogik faoliyat olib boradi. Shu davr ichida bir qator iqtidorli xonandalar ni kamolot sari tarbiyalaydi. Maryam Sattorova (O'zbekiston xalq artisti), Soyib Niyozov (O'zbekiston xalq hofizi), Abror Parpiyev (Nihol mukofoti sovrindori) kabi taniqli san'atkorlar shular jumlasidadir.

F. Mamadaliyev an'anaviy xonandalikning ijrochilik mezonlari, bastakorlik an'analari muammolari bilan qiziqib o'rganib kelgan va ularni ilmiy nuqtayi nazardan tadqiq qilishga harakat qilgan. Shulardan biri xalq mumtoz ijrochiligidagi hofizlar ovozi xususiyatlarini o'rganish va ilmiy mushohadalardir. Muallifning ilmiy maqola tarzida bayon etilgan ishlari uning vafotidan so'ng «Musiqa ijrochiligi masalalari»<sup>1</sup> nomi bilan dunyo yuzini ko'rdi.

---

<sup>1</sup> F. Mamadaliyev. Milliy musiqa ijrochiligi masalalari. – T., 2001. Mas'ul muharrir va nashrha tayyorlovchi s.f.n., professor R. Yunusov.

Musiqa ijrochiligi amaliyotida Fattohxon Mamadaliyev hofizlik, ya’ni xonandalik bilan birga an’anaviy musiqa bastakorligiga ham katta e’tibor bergan. Uning bastakorlik ijodida 4 uslub ustuvordir. Jumladan: 1) qadimiy kuylarni qaytadan tiklash; 2) musiqiy meros namunalarini yangicha uslubda talqin etish; 3) musiqiy meros namunalaridan o‘rin olgan asarlarni turkumlashtirish; 4) bastakorlik ijodi (original asarlar). Ijodidagi ahamiyatli omil, ishlangan va yaratilgan asarlar, bastakor uslubiga mos ekanligi bilan xarakterlanadi. Jumladan, «Intizor» (Ulfatiy so‘zi), «Oqibat», «Sog‘indim», «Falak», «Mehmon», «Judo keldi» va «Yuzni hajrida» (Nodira so‘zлari), «Ahd qildim» (Muqimiy so‘zi), «Jononim mening» (Hayratiy so‘zi), «Orzu» va «Dehqonlarim» (V. Sa’dullo g‘azali), «So‘rmasa», «Kalomitingdan» va «Dilkusho» (H. Azimov so‘zi), «O‘lmag‘ay» (Navoiy g‘azali), «Ko‘ngil» va «Sirri ishqim» (X. Yahyoyev so‘zi), «Ra’no gullari» va «Sog‘inurman» (O. Xoldor so‘zi) kabi ashulalarmi misol qilish o‘rinlidir.

Bastakorning ijodidan o‘rin olgan asarlarning aksariyati maqom yo‘llariga xosligi bilan xarakterlanadi. Barchasida shakl, usul, matn, dramatik rivojlar aynan maqomlarga xosligini e’tirof etish lozim. Shu bilan birga avj tizimiga katta e’tibor qaratilganligini ham qayd etish mumkin. Bunga yorqin misol Ogahiyning «Dedi» radifli g‘azaliga bastalagan «Dard-u dilim» ashulasidir. G‘azalda o‘ziga xos muloqot mavjud:

Dard-u dilim ango dedim, dema ani mango dedi,  
Kim manga oshiq o‘lsa, ul lozim erur ango dedi.

Bastakor ana shu muloqotga xos kuy yaratishga muvaffaq bo‘lgan va bu ohang so‘z birgaligida go‘zal uyg‘unlikka erishgan. Ashulaning originalligi va mavzuyi jihatdan o‘ziga xosligi boshlanish ohangleridan sezilib turadi. 24-misol:

Asar ikkita yirik avj bilan ijro etilgan, birinchi avjlar tizimi ashulaning to‘liq shaklini ifodalab beradi. Bastakor unga yana bir katta avjni qo‘shtagan. Bu avj asarning yuqori cho‘qqisi va dramatik kulminatsiyasi sifatida xizmat qiladi. Asarni ijro etish uchun katta ovoz ko‘lami kerak bo‘ladi.

Fattohxon Mamadaliyevning bastakorlik ijodiyotidagi qadimiy kuylarni qaytadan tiklash amalida «Umrzoq Polvon Ushshog‘i» va «Zikri Ushshoq» (Qadimiy Ushshoq) kabi musiqiy namunalarni ustozlar talqiniga xos holda qayta ishlab tiklashga muvaffaq bo‘ladi. Ushbu asarlar, ayniqsa, «Qadimiy Ushshoq» ijrochilik amaliyotida keng ommalashdi.

Bastakorning musiqiy meros tarkibidagi asarlarni turkumlashtirish ham alohida e’tiborlidir. Bastakor tomonidan bir qator musiqiy namunalar an'anaga mos holda turkumlashtirildi. Bular sakkiz qisqli «Miskin» musiqiy namunasi (Muqimiy, Sakkokiy, Furqat, Miskin, Ulfat va Turob To‘la she’rlariga), sakkiz

qisqli «Ushshoq» namunalari (Uvaysiy, Furqat, Navoiy, Ogahiy, Gavhariy g‘azallariga), to‘rt qisqli «Nasrulloiy» turkumi (Navoiy, F. Mamadaliyev va Ulfat she’rlariga). Ular «Shashmaqom»ning ikkinchi guruh sho‘balariga xos va Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llariga mos turkumlashuv tamoyillariga tayangan holda ijod etilgan. Mazkur asarlarda birlamchi asosiy ko‘rinishlar ketidan zaruriy ravishda o‘rin olishi lozim bo‘lgan – Talqincha, Qashg‘archa, Soqiyonna va Ufor tizimidagi kichik turkumga xos asarlar kiritilgan. Bastakor tomonidan turkumlashtirilgan «Munojot» va «Savti Fattohxon» turkumlari esa nisbatan ixcham shakllarga ega bo‘lib, faqat Alisher Navoiy g‘azallaridan foydalanilgan.

### **Orifxon Hotamov (1925–2002)**



Orifxon Hotamov – mohir sozanda, o‘ziga xos ijro uslubini yaratgan xonanda, samarali ijodi bilan musiqa madaniyati ravnaqiga katta hissa qo‘shgan bastakor, o‘tmish ustozlari-miz an’analarini yaxshi idroklagan, barkamol avlod yoshlarni tarbiyalagan mehribon ustozdir<sup>1</sup>. Bo‘lg‘usi bastakor 1925-yili Jizzax shahri Hotamxon Ne’matov xonardonida tavallud topgan. Hotam aka oilasi 1936-yili Toshkent viloyatining Yangiyo‘l shahriga ko‘chib keladi. 1938-yili esa oila Toshkentga ko‘chib o‘tiadi. 1944-yilgacha o‘rtal maktabda boshlang‘ich ma’lumot oladi. Shular qatorida musiqaga juda qiziqadi. Bu ishtiyoq yosh iste’dodni maktab to‘garagiga yetaklaydi. Qisqa vaqt ichida nay va skripka chalishni puxta o‘zlashtirib oladi. 1944-yildan u Yangiyo‘lda faoliyat olib borayotgan musiqali

<sup>1</sup> Begmatov S. Orifxon Hotamov. Monografiya. – T., 2000.

drama teatriga ishga taklif etiladi. Bu yerda u To‘xtasin Jalilov, Jo‘raxon Sultonov, Ma’murjon Uzoqov, Muxtorjon Murtazoyev, Xolxo‘ja To‘xtasinov kabi zamonaning ustoz san’atkorlari bilan tanishadi, ularning sabog‘ini oladi va birgalikda hamkorlik qiladi. Aynan shu dargohda Orifxon Hotamov g‘ijjak chalish sirlarini o‘rganadi hamda bastakorlik ijodini boshlaydi. 1945-yili O‘zbek davlat filarmoniyasiga ishga kiradi. Ushbu dargohning turli konsert brigadalarida 5 yil davomida o‘z zamonasining zabardast ustoz-sozandalari bilan birgalikda faoliyat ko‘rsatadi. 1950-yili Hamza nomidagi Toshkent davlat musiqa bilim yurtiga o‘qishga kiradi. Bu dargohda 4 yil ustoz-sozanda Z. Qodirov sinfida g‘ijjak ijrochiligidan saboq oladi. Orifxon Hotamov bilim yurtida o‘qish bilan birga ijrochilik faoliyatini davom ettiradi. Ayniqsa, Jo‘raxon Sultonov bilan hamkorlikda samarali ijod qiladi. 1954-yili bilim yurtini muvaffaqiyatliz bitirib, ikki yil maktab to‘garaklarida bolalarga musiqadan dars beradi. 1956-yili O‘zbekiston davlat radiosи qoshida tashkil etilgan, Doni Zokirov rahbarligidagi o‘zbek xalq cholq‘u orkestriga sato cholq‘uchisi sifatida ishga qabul qilinadi. 1959-yili radio qoshida keksa san’atkorlardan tashkil topgan musiqiy etnografik ansambl tashkil etiladi va Orifxon Hotamov ham bu jamoaga ishga taklif etiladi. Ushbu jamoada ustozlar bilan faoliyat olib boradi va musiqiy merosni qayta tiklash hamda magnit tasmalariga muhrlash bilan shug‘ullanadi.

Bastakor 1976-yildan boshlab umrining oxirigacha radio qoshidagi maqomchilar ansamblida maslahatchi sifatida faoliyat olib boradi. U ijrochilik faoliyati bilan birga M.Uyg‘ur nomidagi Toshkent teatr va rassomchilik institutida hamda O‘zbekiston davlat konservatoriysi an‘anaviy ijrochilik kafedralarida pedagogik faoliyatini olib borib, talabalarga an‘anaviy xonandalik bo‘yicha saboq beradi. 1986-yili O‘zbekiston bastakorlar uyushmasiga qabul qilindi. 1989-yili O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist,

1993-yil O‘zbekiston xalq hofizi, 1997-yilda «Do‘stlik» ordenlari bilan taqdirlangan.

Orifxon Hotamov XXI asrga kelib mumtoz musiqa san’atida benazir bastakor, ustoz san’atkor nomiga tuyassar bo‘lib, elning e’zoziga erishdi. U musiqa san’atining sozandalik (tanbur, dutor, skripka), xonandalik (yakkaxon, hamnafaslik-jo‘rnavoz, katta ashula), ustozlik (Matluba Dadaboyeva, Mahbuba Hasanova, Beknazар Do‘stmurodov, Soyib Niyozov, Nasiba Sattorova kabi bir qator shogirdlar tarbiyaladi), bastakorlik yo‘nalishlarida mohirlikka erishdi va o‘z ijro uslubiga ega bo‘ldi.

Uning ijodining shakllanishida Farg‘ona-Toshkent ijro an’analari, ayniqsa, ustozи Jo‘raxon Sultonovning xonandalik an’anasi katta ta’sir etgan. Odatda, ijro uslubini shakllantirgan har bir xonanda, bastakor sifatida ham asarlar yaratib ijodiy uslubini mакtab darajasiga olib chiqadi. Orifxon Hotamovning bu xususda juda katta merosga ega ekanligini e’tirof etish joiz. Bastakor o‘z ijodida 100 dan ortiq mumtoz yo‘llarga mansub bo‘lgan ashulalar yaratdi. Zamonaviy xonandalik amaliyoti Orifxon Hotamovning yaratgan asarlari va uning maktabiga xos ijro yo‘li alohida o‘ringa egadir.

Orifxon Hotamovning bastakorlik ijodida yuzaga kelgan musiqiy namunalar, avvalo, o‘zining mumtozligi bilan ajralib tursa, ulardagi ohang, so‘z va talqiniga xos jihatlar darhaqiqat ashulalarning purma’noligini namoyon etib turadi. «Seni izlayman», «Holimni so‘rmassan», «Samimi оshno», «Sensiz», «Ahbobi bilan», «Firoqingizda», «Iltijo», «Jon fido etar», «Hasratda dog‘man», «Sensan sevarim» – bu ro‘yxatni ancha davom ettirish mumkin.

Buni, eng avvalo, ustozlar an’anasining davomi ettirish deb tushunilsa, ikkinchidan, musiqiy meros ummonida yuzaga kelgan yana bir ijro uslubining namunalari deyish mumkin. Zotan, mumtoz musiqa ijrochiligida Orifxon Hotamovning ijro uslubi maktab darajasida o‘rnini topdi. Bu «Darmondan ortiq», «Aylading qo‘yding», «Qoshi yosinmu deyin», «Ey, sarvi qomat», «Oqara

boshladi», «Nazar top», «Muddaolardan hali», «Vatanimsan», «Kam bo'larmidi», «Ey, o'g'il» kabi ijod namunalarida yaqqol namoyondir. Qaysi asariga murojaat etmang, uning shakliy tizimi, lad jihatlari, metro-ritmik asoslari va eng muhimmi, janrlik xususiyatlari maqom yo'llariga xosligini kuzatish mumkin. Jumladan, uning «Qoshi yosinmu deyin» ashulasi bunga yaqqol misol.

Asar ushshoq ladiga mos bo'lib, uni ushshoqlar yo'lida yaratilgan asarlar sifatida ko'rish mumkin. Uning shakliy tuzilmasi, rivojlanish tamoyili, avjlar tizimi maqomlarga xosligini e'tirof etish mumkin. Ashula bir jumla usul talqinidan keyin daromad qismi boshlanadi. Bu ham mumtozlik belgisidir. 25-misol:

A. Navoiy g'zali

O. Hotamov musiqasi va ijrosidan

M.M. ♩=144–152

S. Begmatov notaga olgan

The musical score consists of three staves of music. The first staff starts with a treble clef, a common time signature, and a key signature of one sharp. It features eighth-note patterns. The second staff begins with a treble clef, a common time signature, and a key signature of one sharp. It includes lyrics: 'Qo-shu yo - sin - mu de - yin Ko' - zi qa - r -'. The third staff begins with a treble clef, a common time signature, and a key signature of one sharp. It includes lyrics: '0 - si - mu de - yi - n Ko'ng - lu - ma - a har bi - ri - ni'. The score concludes with a repeat sign and a bass clef, indicating a change in key signature.

Ashula *re* tonalligiga asoslangan bo‘lib, major va minorli xususiyatga egadir. Asosiy mavzu birinchi jumlada o‘z ifodasini topgan. Aynan mavzuning keyingi rivoji o‘ziga xos tizimli tarzda amalga oshiriladi. Ashulaning oxirgi nuqtalarigacha mavzuning ohangi saqlanib qolinadi. O‘ziga xos avjlar ashulaning kulminatsion nuqtasini tashkil etadi. Avjlar tizimidan keyigi sol bosqichiga (4) og‘ishma ham ushshoqlar an’anasiga mosligini ko‘rsatib turadi.

Orifxon Hotamovning bastakorlik va ijrochilik ijodi merosini anglar ekanmiz, biz unda 4 tamoyil uyg‘unlashganliga guvoh bo‘lamiz:

1. Ijrochilik amaliyotida unutilib, iste’moldan chiqqan musiqiy namunalarni qaytadan tiklash.
2. Yangi so‘zlar bilan meros namunalariga qayta qanot berish. Jumladan: Giryा I, II, III, IV va V, «Ushshoqi Sodirxon», «Qashg‘archa Ushshoqi Sodirxon», «Sinaxiroj» va h.k.
3. Mumtoz uslubda yaratgan yangi asarlar (bastakorlik ijodi).
4. Ijodining o‘z hayotiy kechinmalari asosida shakllanadi.

Orifxon Hotamovning kelajak avlod uchun meros qilib qoldirgan asarları allaqachon xalqimiz dilidan joy olgan, musiqamiz merosiga aylangan. Xonandalikning zamonaviy yo‘nalishlarining barchasi o‘ziga xos moslashtirilgan uslubda, o‘z maktab xususiyatini yo‘qotmay ijro etib kelinmoqda.

**Amaliy mashg‘ulot:** Fattohxon Mamadaliyev va Orifxon Hotamovlar hayoti, xonandalik va bastakorlik ijodi, o‘ziga xosligini o‘zlashtirish. Bastakorlik va xonandalikda yaratgan maktablarining asosiy jihatlari. Ijodining alohida ta’rifi, yaratgan asarlarining tahlili. Bastakorlik ijodiyotidagi asosiy tamoyillar, musiqiy janrlar qamrovi, turkumiylilik va maqom ijodiyotining ta’siri.

Fattohxon Mamadaliyev va Orifxon Hotamov asarlarini tinglash, o‘zlashtirish va ijro etish.

**Tayanch so‘zлari:** an’nanaviy xonandalik, maqom, metro-ritmik asos, daromad, ushshoq.

### **Nazorat savollari**

1. Fattohxon Mamadaliyev va Orifxon Hotamovlar hayoti va ijodi xususida so‘zlab bering.
2. Bastakorlarning asarlarini qayd etib o‘ting. Nomlarini keltiring va kuylab bering.
3. Fattohxon Mamadaliyev va Orifxon Hotamov qaysi uslublarda xonandalik faoliyatini olib borgan?

### **3.3. 1980–2000-YILLAR BASTAKORLIGI NAMOYANDALARI**

1970-yillarning boshlaridan O‘zbekistonda bastakorlarning yangi avlodni shakllana boshladi. Kasbiy ta’limdan saboq olgan, Oliy ta’lim muassasalarida saboq olib, musiqa nazariyasi bilan bog‘liq fanlar, tarix hamda ijrochilik ixtisosliklarini o‘zlashtirgan va mutaxassislik bo‘yicha kasbga ega bo‘lgan yangi avlodning ijodiy mahsullari musiqa repertuarini boyita boshladi. Baxtiyor Aliyev, Qahramon Komilov, Abduhoshim Ismoilov, O‘lmas Rasulov, Tursunboy Jo‘rayev, Ahmadjon Dadayevlar shular jumlasidandir. Ushbu yangi avlod musiqiy tafakkuriga asoslangan ijodining negizida keksa avlod xalq bastakorlarining an’analari, mumtoz musiqa merosining shakl-u shamoyillari va zamon ta’limining unsurlari ko‘rina boshladi. Natijada ijrochilik amaliyoti yangi zamon asarlari bilan boyidi. An’nanaviy yo‘nalishda samarali ijod qilib kelayotgan zamon bastakorlaridan Abduhoshim Ismoilov va O‘lmas Rasulovlarning ijodi o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi.

## **Abduhoshim Ismoilov**



Abduhoshim Ismoilov 1952-yili 9-iyunda Farg‘ona viloyatining Quva tumanida tavallud topgan. Boshlang‘ich ta’lim bilan birga avvaliga havaskorlik to‘garagida, so‘ngra Farg‘ona musiqa bilim yurtida g‘ijjak sozi ijrochiligi bo‘yicha saboq oladi. Farg‘ona vodiysining o‘ziga xos va betakror musiqiy ohanglari, ijrochilik an’analari, musiqiy janrlari va ularning rang-barang ijro uslublari har qanday iste’dod egasini o‘ziga rom etishi muqarrardir.

Abduhoshim Ismoilov To‘xtasin Jalilov, Komiljon Jabborov, G‘anijon Toshmatov, G‘ulomjon Xojiqulov, G‘ulomjon Ro‘ziboyev kabi Farg‘ona-Toshkent vohasi g‘ijjakchi-bastakorlarining ijro uslublari, bastakorlik uslublarini o‘zlashtirishda tinmay mehnat qiladi. U darhaqiqat iste’dod egasi bo‘lib, bu an’analarni ustozlar saboqlari asosida o‘zlashtiradi hamda o‘z bilim va mahoratini mumtoz musiqiy meros bilan boyitish maqsadida Toshkent davlat konservatoriyasining «Sharq musiqasi» kafedrasiga o‘qishga kiradi. Yosh iste’dod egasi ushbu dargohda musiqa san’atining nazariy va tarixiy ilmlarini o‘zlashtiradi.

Uning ijodiy kamolotga erishishi jarayonida konservatoriya ustozlaridan, ayniqsa, ustoz san’atkor va bastakor Faxriddin Sodiqov, Mahmud Muhammedov, Orif Alimaxsumovlardan olgan saboqlari alohida ahamiyat kasb etdi.

O‘tmish bastakorlik an’analari, xususan, maqom ijodiyotini O‘zbekiston radiosи qoshidagi maqom ansamblida mustahkamlaydi. Ijodkor uchun ushbu dargoh, avvalo, saboq maskani, ijro malakasini oshirish uchun eng katta imkoniyat va ijod uchun o‘ziga xos laboratoriya bo‘lib xizmat qildi.

1974-yilda maqom ansamblida faoliyatini boshlagan Abduhoshim Ismoilov butun faoliyati davomida ushbu jamoa bilan birga

ijod etib kelmoqda. Oddiy sozandalikdan boshlangan faoliyat ustozlar davrasida e'tirof etilib, ansamblning badiiy rahbarigacha muvaffaqiyatlar bilan davom etdi. Mana bir necha yildirki, Abduhoshim Ismoilov Y. Rajabiy nomidagi Maqom ansamblining badiiy rahbari sifatida samarali faoliyat yuritib kelmoqda. Uning bastakorlik faoliyatining an'analarga mos shakllanishi, davrga xos sayqal topishi va zamon ruhi bilan kuylanishining zaminida xalqimiz tafakkurining gultoji bo'lgan maqom san'atining an'anasi va ijrochilik mezonlari turganligini e'tirof etish lozim.

Ushbu jarayonda u davrining har bir ustozlarining ijro uslublarini egallahsga, ularning ijro maktablaridagi ijroviy omillarni idrok etishga intildi. O'zining shaxsiy ijro uslubini shakllantirdi, ana shu uslub doirasida ijod etishga muvaffaq bo'ldi.

Iste'dod, shunga mos sozandalik talqini go'zal uyg'unligi va, albatta, sharqona tafakkurining ohanrabodek taralishi natijasida yuzlab asarlarni yaratishga tuyassar bo'ldi. Yaratgan 500 dan ortiq kuy, qo'shiq va ashulalari xalq musiqa san'atining turli janrlariga xosdir. Oddiy xalqona «Alla»dan tortib, maqom yo'llariga xos bo'lgan kuy va ashulalar bastakorning ijodidan munosib o'rinn olgan. Yaratgan har bir namunasining o'z mavzusi (temasi), asarning milliy an'analarga asoslanganligi (shakli), shakliy rivojlanishi (rivojlovi), sharqona (milliy) usullarga tayanishi (metro-ritm) va, albatta, uslubga xosligi namoyondir. Namunalarning rang-barangligi va o'ziga xosligi ularning bastakorlik an'anasa yaratilganligi bilan xarakterlanadi. Xalq musiqasi mavzusiga, janriga va namunasiga asoslangani, jahon klassik musiqasidan ilhomlangani, nazira va savt bog'lashlar kabi ijod usullarining barchasini ko'rish bilan birga original mavzular, ohanglar va shakliy nuqtayi nazardan yondashishlarni kuzatamiz. E'tirofga loyiq jihatlardan biri, ijod namunalarining har biri original va falsafiy teran ma'no kasb etishidadir.

Abduhoshim Ismoilovning ijodidan o'rinn olgan asarlari mazmunan falsafiy boy bo'lib, Vatan, ona diyor, mehr-muhabbat, yoshlik,

sadoqat, ezgulikni madh etuvchi, lirik mavzuli ashulalar alohida o‘rin tutadi. Mohirlik bilan o‘tmish an’anasi va hozirgi zamon ijodining go‘zal uyg‘unligiga erishadi. Uning ijodiy an’anasida yuzaga kelgan jarayonda ikki ulkan tamoyil asos sifatida xizmat qilishini e’tirof etish lozimdir. U ham bo‘lsa, birinchidan, bastakorning Farg‘ona-Toshkent cholg‘u yo‘llari va maqom an’analariga ijodining asosi sifatida tayanishi. Ikkinchidan, o‘zbekona qadriyatlar bilan bir qatorda, zamonaviy umumbashariyat badiiy an’analarini ijod etishi. Bu, albatta, asarning badiiy mukammalligini ta’minlab beradigan omillar sifatida xizmat qiladi. Shu bois bo‘lsa kerak bastakorning yaratgan asarlari o‘zining jiloga boy ohanglari, rang-barangligi va jozibali ruhi bilan ajralib turadi.

Bastakor deyarli milliy musiqa ijodiyotining barcha yo‘nalish va usullarida ijod etgan. Bastakorlik an’analarini cholg‘u musiqasida va aytim asarlarida alohida ifodalab bergen. Janr nuqtayi nazaridan ular uch guruhga bo‘linadi. Ya’ni cholg‘u kuylar, qo‘shiqlar va ashulalar. Har bir janrli yo‘nalish o‘z tarkibidagi barcha turlarni qamrab olganligi uning ijodiy namunalarida namoyondir. Xususan, ijodining cholg‘u musiqasi misolidagi namunalarda quyidagi manzaraning guvohi bo‘lamiz:

- yakka cholg‘u uchun kuylar: «Gullola», «Nargiz», «Dil nolasi», «Holim so‘rma», «Kamon nidosi», «Qalb sadosi»;
- kamer ansambl uchun kuylar: «To‘yona», «Hayronaman»;
- sozandalar ansambli uchun kuylar: «Bazm kuyi», «Favvora», «Visol», «Mustaqillik», «Hayoli qiz», «Al-Farg‘oniy» va h.k.

Cholg‘u asarlarining boshqa sozlar yoki turli tarkibdagi cholg‘u guruhlari ijrosidagi talqinlari ham o‘ziga xos ifodasini topishi muqarrardir.

Bastakorning aytim yo‘llarida yaratgan asarlari keng qamrovli, janr nuqtayi nazaridan rang-barangdir. Aksariyat asarlari yakkaxon xonandalar ijrosi uchun mo‘ljallangan bo‘lsa-da, ularning mavzular ko‘laming boy va kengligini alohida e’tirof etish lozimdir.

Bastakorning aytim asarlari avvaliga soddaligi bilan xarakterlanadi. Shu bois bo‘lsa kerak, avvalgi ijodidan qo‘sishq janriga xos namunalar o‘rin olgan. Bu asarlar o‘zining soddaligi, haqiqiy o‘zbekona milliy jozibani in’ikos etuvchi va turli xarakterdagи mazmunan oddiy qo‘shiqlardir. Jumladan: «Yo ohumiding», «Qaraysan», «Toshkentim», «Oshiqnoma», «Yor 18 yoshingda», «Uchramasang yaxshi bo‘lardi», «Tog‘lik qiz», «Salom aiting», «Bo‘lmas» va boshqalar. Keyinroq xalq qo‘sishq va ashulalariga xosligi ko‘rina boshlaydi. Lekin qayd etish joizki, qo‘shiqlarning har biri o‘zining muqim mavzuij jihatlariga egadir.

Ijodining kamolotida maqomlarga xos xususiyatlar kasb etganligini kuzatish mumkin. XX asrning oxiri va XXI asr boshlarida Abduhoshim Ismoilovning ijodida ashula janriga katta e’tibor qaratildi. Buni albatta uning klassik shoirlarimiz Hofiz Sheroyziy, Navoiy, Atoiy, Bobur, Ogahiy, Mashrab, Furqat, Muqimiyy, XX asr shoirlaridan Chustiy, Po‘lat Mo‘min, Uyg‘un, Yo‘ldosh Sulaymon, Turob To‘la, Saida Zunnunova, E’tibor Oxunova, Halima Xudoyberdiyeva kabilarning nazm bo‘stonlariga murojaat etganida ko‘ramiz. Ashula ijodiyotida bastakorning asosiy yutug‘i aynan maqom tafakkuriga tayanishida, maqom yo‘llarining shakl tamoyillariga asoslanishida hamda eng muhimi, kuy va so‘zning ma’nolar kesimidagi uyg‘unlikka erishidadir. Musiqa ijodiyotidagi nuqtalarning birikish markazi ham aynan mana shu jihatlar bilan xarakterlanadi. Uch jarayonning mutanosibligi asarning umrboqiyilagini ta’minlab beradi. Ya’ni so‘z, kuy va talqin. Bastakorning ilk ashulalariga xonandalarning san’ati, ovoz imkoniyati va ijro jozibasi asos bo‘lgan bo‘lishi ehtimoldan xoli emas. Lekin keyingi bosqich asarlarida maqom tafakkuriga yaqin munosabatlар har tomonlama o‘zini namoyon etib turadi.

Ana shunday asarlarining sirasiga: «Nasib bo‘lg‘ay», «Sarvinoz», «Hasta ko‘nglim», «Hamroz qil», «Taraxxum qilmadi», «Yor emas», «O‘q» – Navoiy g‘azallari; «Yorima aiting» – Ogahiy

g‘azali; «Yorsan», «Osmonda ham yo‘q», «Munavvar qil» – Hofiz Sheroyi; «Ey, do‘sst» – Atoiy; «Unutma» – Gadoiy; «Hay-hay» – S. Zunnunova; «Janon ko‘zingga» – Chustiy kabi asarlar kiradi.

A. Ismoilov o‘z ijodining so‘nggi yillarida Alisher Navoiy ijodiga alohida e’tibor bilan yondashadi. Qisqa vaqt mobaynida Navoiy g‘azallariga o‘nga yaqin mumtoz xarakterga ega bo‘lgan ashulalar ijod etishga muvaffaq bo‘ladi. Musiqiy namunalarning barchasi maqom ansambli ijrosida munosib talqin etildi.

Yosh xonandalarning ashula ijrochilagini egallahshlarida asarning nazariy jihatlari muhimdir. Shu bois asarni yaqindan anglashlari uchun «Nasib bo‘lg‘ay» ashulasini nazariy tahlil qilib o‘tamiz.

Bastakor Navoiy g‘azallariga murojaat etar ekan, avvalo, ularning mavzusi, qolaversa, navoga moyil jihatlariga e’tibor berib tanlaganining guvohi bo‘lamiz. G‘azalga mos ohang, mazmuniga xos shakl va rivoj, usul hamda ruhiyatiga mutanosib tovush tizimi, ya’ni lad saralashi muayyan bir yaxlit asar shakllanishiga va zamin bo‘lishiga asos bo‘lgan deyish mumkin. Namunalarning badiiy-dramaturgik jihatlarini mutanosib ifodalashini ijo jarayoni va sur’atni muntazam o‘zgarib turishlari bilan izohlash to‘g‘riroq bo‘ladi.

«Hamroz qil» ashulasi Navoiyning «Soz qil» radifli g‘azali asosida yaratilgan. G‘azal quyidagi bayt bilan boshlanadi:

Hajr o‘qidin, ey ko‘ngul, har yon qanotlar soz qil,  
Ul pari vasli havosin istabon parvoz qil.

G‘azal «Ramali musammani mahzuf» she’riy vaznida yozilgan bo‘lib, o‘zbek mumtoz kuylarining rang-barang metro-ritmik asosdagi usullarga moslashishi oson kechadi. G‘azalning bahrida, ya’ni g‘azal ritmining o‘zida muayyan kuy ohangi ham yashirin joy topganini ko‘rish mumkin. Bastakor shunga mos usulni asos qilib olib she’r vazniga xos tarzda metro-ritmik tizimni shakllantiradi. Odatda, bastakorlik amalidagi eng muhim jarayon

ham shunda namoyon bo'ladi. Bastakor g'azalning ohang ritmi, bahri asosida musiqiy usulga mutanosib yondashishi hamda so'z ma'nosidan kelib chiqib ohang ixtiro qilishi va pirovardida ularning go'zal uyg'unlashishida jozibaga ega bo'lishi ko'zda tutiladi. 26-misol:

Asar usuli va kuy bilan matn o'lchovlarining mutanosibligi quydagichadir:

— v — — / — v — — / — v — — / — v —

Hajr o'- qi - din, ey ko'n-gul, har yon qa -not-lar soz qil,  
Ul pa- ri vas - li ha - vo - sin is - ta-bon par - voz qil.

M.M. ♫ = 64

Hajr o'-ti - din ey      ko'-ngil      har yon      qa - not - lar soz      qil

Asar tonalligi *fis moll* (fa diez minor)ning frigiy ko'rinishiga ega. O'ziga xos mavzu va uning boshlanish hamda rivojlanish jarayoni boshqa ashulalardan farqlanib turadi. Tinglovchi diqqatini o'ziga tortadigan tomoni, asar ladning V bosqichidan boshlanadi. Qayd etish joizki, ko'p hollarda V bosqich o'zining ustunligini ham namoyon etib turadi.

Asar o'zbek xalq ashula uslubida mavjud bo'lgan yo'naliishga tayanib yaratilgan. Ikki taktli o'ziga xos usul ijrosidan so'ng noan'anaviy tarzda 16 taktli daromaddan oldingi qism bilan boshlanadi. Buni asosiy qismning boshlang'ich g'oyasini namoyon etuvchi «shahd» deb qabul qilish to'g'riroq bo'ladi. Boshlang'ich shahd qismini muqaddima deb belgilash mumkin. Chunki unda ovoz talqini an'anaviy changlar yordamida amalga oshiriladi. Ohang mazmuni asosiy mavzuga xos ohang mag'ziga mosdir:

27-misol.  
M.M.=64

The musical score is composed of four staves of music. Staff 1 begins with a rest, followed by a sixteenth-note pattern. Staff 2 begins with a sixteenth-note pattern. Staff 3 begins with a sixteenth-note pattern. Staff 4 begins with a sixteenth-note pattern. Measure numbers 8, 13, and 19 are indicated above the staves.

Boshlang'ich shahdning o'zida asarning asosiy g'oyasi ko'rsatib o'tiladi. Bunda ohang mag'zi to'rtta musiqiy jumlada ifoda etib beriladi. So'ngra unga cholg'ular ikki jumlali kuy ohangi bilan javob berib, ashulaning daromad qismiga tayyorlab beriladi. Muqaddimada asarning asosiy pardalari, tovushqator tizimi hamda ohang majmuyi o'z ifodasini topgan.

«Hamroz qil» asarining tarkibiy tuzilmasi daromad, miyonxat, dunasr, avjlar tizimi, furovard va suporishdan tashkil topgan. Simmetrik nuqtayi nazardan aniq bir qolipga tayanmagan bo'lsa-da, badiiy dramatik rivojlanish mezonida buni yaqqol sezish mumkin. Quyidagi chizmada asarning shakl, parda tizimi aniq ifodasini topgan (shaklga qarang).

Asarning shakli ashula janriga mos. Shu bilan birga o'ziga xoslik jihatlari ham mavjud. Bir qarashda maqomlarning saraxborlariga moyilligini kuzatish mumkin. Ayniqsa, ijro jarayonida bu yaqqol

namoyon bo‘ladi. Asarning ichki tarkibi uch qismidan tashkil topib, birinchi – daromad, ikkinchi – dunasr, uchinchi – dunasr, avj va furovardga to‘g‘ri keladi. Unga qo‘shimcha yordamchi va bog‘lovchi bo‘laklar o‘rnida muqaddima, cholg‘u qismlari va suporish keladi.

Har bir ichki qism muqaddimada belgilangan fikrni bayon etib, uni tasdiqlashga assoslangan. Shu bois ular quyidagi ko‘rinishga ega: a – b – c – a<sup>1</sup> – d. Har bir harfda kuyning bir jumlesi belgilangan va matnning bir qatorini o‘z ichiga oladi. So‘z matnida g‘azalning ikki bandi qo‘llanilgan bo‘lsa, kuy rivojida bu qaytarish hisobiga o‘zgacha shakl topadi. Ya’ni a – b – c – a<sup>1</sup> ko‘zlangan kuy ma’nан yakunlanadi. Lekin bu fikrni undan so‘ng keladigan d nihoyasiga yetkazadi. Umumiy ko‘rinishda asarning bu qismi alohida bir tugallangan davriya sifatida gavdalanadi. Chizmaga e’tibor berilsa, kuy asosiy bosqichga qaytganini ham ko‘rish mumkin.

Cholg‘u peshravi asosiy ohangni miyonpardaga ma’nан tayyorlash vazifasini bajaradi. Miyonxona esa tarkiban oldingi muqaddima va daromadlar bilan mutanosib tarzda shakllangan. Asosan, 5, 6, 7-bosqichlarda kuy rivoj topadi va asosiy bosqichga qaytad i (shaklga qarang).

Miyonxona bilan dunasr o‘rtasidagi cholg‘u peshravi asarning o‘rta qismidagi o‘ziga xos tayyorlash va kelgusi avj qismiga sozlash maqsadida yuzaga kelgan kuy bo‘lagiga to‘g‘ri keladi. Dunasr, odatda, asosiy kuy bo‘lagining oktava yuqorida qaytarishi sifatida kuyning avj qismiga tayyorlash vazifasini bajaradi. Bu holatda bastakor an’anaviy shakldan chetlanadi va asarning dunasr bo‘lagi juda qisqa tarzda beriladi. Dunasr asarda ikki jumladan iborat: a<sup>1</sup> – c. Asosiy mavzuni oktava yuqorida qaytarilishi va avjga tayyorlash bilan xarakterlanadi. Chunki shundan so‘ng qisqa cholg‘u peshravi yordamida avj qismi boshlanadi. Avjlar yuqori pardalar, asosiy mavzuning yangicha ohang sayqallanishida to‘rt jumlada talqin etiladi: g – h – k – l.

Takt	2	17	4	4	4	4	4+3	4	4	4	4	4	4	7	8	4	4	4	4	4	4	4	4	4	4	4	4
Usl	shahd	chole <sup>g,u</sup>	a	v	c	a <sup>1</sup>	d	e	f	c	a <sup>1</sup>	d	chole <sup>g,u</sup>	a <sup>1</sup>	c <sup>1</sup>	chole <sup>g,u</sup>	g	h	k	1	m	d	a	d <sub>2</sub>	a <sup>1</sup>	d <sub>3</sub>	
Bosqich:	boshi	5	5	5	7	5	6	7	7	7	5	6	5	7	5	5	7	10	10	7	9	8	6	5	6	5	9
yakuni																		7	7	9	5	5	1	5	1	5	1
	Muqaddima	Daromad	Miyonxat	Du-nasr	Ayj	Furo-vard	Suporish																				
Shakl dinami-kasi																											

Shakl. «Hamroz qil» ashulasining nazariy jihatdan tarkibiy tizim shakli.

Asarning avj qismi juda katta dramatizm bilan sug‘orilgan bo‘lib, go‘yoki bir nafasda talqin etiladi. Lad tizimida ham asosiy minor pardalariga tayaniladi. Ijro sur’ati tinmasdan asarning furovard, ya’ni yakuniy qismiga o‘tiladi. Furovard ham yangi material asosida (m) boshlanib, an’anaviy asosiy bosqichga qaytish bilan yakunlanadi (d).

Asarning suporish qismi a – d – a<sup>1</sup> – d, asosiy g‘oyani yana bir eslatish va qayta yakunlash vazifasini bajaradi.

Ko‘rinib turibdiki, bastakor o‘zining asarlarida xalq mumtoz musiqa namunalarining asosiy jihatlaridan keng foydalanib, maqomlarga xos shaklda kuy bastalaydi. Shu bois, ularning mumtoz uslubga yaqinligi ham shaklan va ijro usluban sezilib turadi.

Abduhoshim Ismoilovning bastakorlik ijodidagi nazariy jihatlar ham o‘zining an’anaviylici hamda zamonaviylici bilan ahamiyatlidir. Jumladan: 1) usullarning rang-barangligi, an’anaviy «Chaqiriq» usullarining cholg‘ular talqinida jilvalanishi (Nog‘ora Bayot usuli asosida «Dil navosi» kuyi), Sharqona «chor zarb», ya’ni «Chaxor mezrob» zarbiga xos talqin «Oybuloq» ashulasi va h.k.;

2) zamonaviy polifonik usullarning cholg‘u masiqasi hamda mumtoz aytim asarlarida ikki, uch ovozda qo‘llanilganligi («Sarvinoz», «Nasib bo‘lg‘ay», «Taraxxum», «Hamroz qil» va b.) bunga yorqin misoldir;

3) xalq musiqa ohanglarining munosib qo‘llanishi («Yor-yor», G‘. Yoqubov);

4) jahon musiqa namunalariga iqtiboslar va h.k.

Bastakorning ijodi o‘ziga xos bir ummondek. Xalqimiz an’analarida mavjud bo‘lgan ko‘p jihatlarning zamonaviy talqinda ijobat topganini ko‘rish mumkin. Uning ijodi misolida o‘zbek bastakorlik ijodiyoti san’atining betakrorligi, an’analarga boyligi, sirli ummonning tubsizligini anglash mumkin.

## O'lmas Rasulov



Zamonaviy o'zbek bastakorligining yorqin namoyandasasi, mohir sozanda va xonanda, O'zbekiston xalq artisti O'lmas Rasulov 1951-yilning 12-yanvarida Surxondaryo viloyatining Denov tumanida dehqon oilasida tavallud topgan. Besh yoshlarida og'ir kasallikdan so'ng uning ko'zi ko'rmay qoladi. 1958-yildan Buxoro shahridagi 24-ko'zi ojizlar maktab-internatida ta'lim oladi. Shu kezlarda ustoz Aminjon Nasriddinovdan g'ijjak chalish sirlarini o'rganadi. Mumtoz musiqaga ko'ngil bog'laydi. Bu urinish uning musiqiy iste'dodini namoyon etishga asos bo'ladi. 6–7-sinfda o'qib yurgan kezlaridayoq musiqa ijodiyoti bo'yicha o'zini ko'rsata boshlaydi. Habibiy so'ziga bastalagan «Bo'stonlarim bor» ashulasi uning bastakorlikdagi ilk asari hisoblanadi. Shundan so'ng g'ijjak sozi uchun bir qator kuylar yarata boshlaydi. 1967-yildan Buxoro musiqa bilim yurtiga o'qishga kiradi. Bu dargohda maqom bilimdonlari Ma'rufjon Toshpo'latov, Qodir Subhonovlardan maqom sirlari bo'yicha saboq oladi. 1971-yili Toshkent davlat konservatoriyasiga o'qishga kiradi. Konservatoriya avval Obid Xolmuhamedovdan, so'ng 1972-yili «Sharq musiqasi» kafedrasida Faxriddin Sodiqovlar sinfida saboq oladi.

1976-yili konservatoriyanı bitirgandan so'ng uning ijrochilik va bastakorlik faoliyati pedagogik jarayon bilan uyg'unlikda kechadi. Pedagogik faoliyat har ikki ijodiy va amaliy, ya'ni sozandalik va bastakorlik ijodiga har tomonlama madad beradi. Avvalo, bu jarayon bevosita amaliy laboratoriya vazifasini o'tasa, ikkinchidan, ijod uchun katta imkoniyatlar hosil etishi bilan muhim ahamiyat kasb etadi.

Bastakor ish faoliyatini Buxoro musiqa bilim yurtida 1976–1987-yillar davomida; 1987–1995-yilgacha O‘zbekiston davlat konservatoriyasida; 1995–2000-yillar Buxoro davlat pedagogika universitetida, 2002-yildan Toshkent musiqa kolleji, hozirgi davrda O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutida pedagogik va ijodiy faoliyatini olib bormoqda. Shu bois, O‘lmas Rasulovning pedagogik va ustozlik faoliyatidan bir qator shogirdlar saboq olib respublikamiz san’ati rivojiga katta hissa qo‘sheyotgan san’atkorlar qatoridan joy olgan.

O‘lmas Rasulov o‘zining ijrochilik faoliyatida katta yutuqlarga erishgan va ustoz sozanda sifatida o‘z obro‘ va e’tiboriga egadir. Eng muhim, o‘zbek g‘ijjak ijrochiligi amaliyotida o‘zining ijro uslubini yaratgan va shunga xos mакtabni shakllantirgan ustoz sozandadir.


Faoliyatining eng yuqori cho‘qqilarida musiqa ijodiyotiga murojaat etgan bastakor, musiqaning ushbu sirli olamida betakror asarlar yaratishga va bu asarlar o‘zbek xalqining eng mukammal asarlari qatoridan o‘rin olishini har tomonlama asoslashga harakat qilganligini ko‘rish mumkin. Bastakorlik ijodiyoti shakllanish jarayonining o‘zidayoq O‘lmas Rasulov, avvalo, o‘zbek mumtoz musiqasi, ya’ni «Shashmaqom»ga oshiq bo‘lishi, o‘rganishi va unga doimo tayanishi asosiy maqsadi ekanligini anglagan. Butun ijodida «Shashmaqom» kabi har tomonlama mukammal asarlar yaratishga harakat qilgan. Xoh u oddiy kuy yoki mumtoz uslubda bo‘lsin, qo‘shiq yoki ashula, har bir asarda aynan uning maqomlarga xos bo‘lgan ijodiy munosabatini ko‘rish mumkin. Lekin har bir janrning o‘z qoidalari mavjud. Ana shu jarayonlarda mavrigi yoki xalq qo‘shiqchiligidagi ijodiy an'analar o‘zining shakl-u shamoyili va ijroviy xususiyatlari bilan mutanosib shakllantirishni talab etgan.

O‘lmas Rasulov an’anaviy musiqa ijodiyotining bir qator janrlarida turkumiyl, alohida janrlarda asarlar yaratgan. «Bobur», «Layli va Majnun», «Kecha va kunduz», «Imom al-Buxoriy» videofilmlariga

bastalagan musiqalari shular jumlasidandir. Videofilm larning har birining o‘z mavzusi, xarakteri bor. Ular o‘z mavzusiga xos musiqani talab etadi. Bastakor munosabatlarining mutanosibligi va har bir videofilm xarakteriga mos asarlar bitganligi bastakorning xalq orasida tanilishiga va keng ommalashishiga sabab bo‘ladi.

O‘Imas Rasulov o‘zbek musiqasining tarixi va nazariyasini qunt bilan o‘zlashtirgan, tarixiy musiqiy risolalarni o‘qib idroklagan san’atkordir. Musiqamiz merosi va uning negizida qaror topgan nazariy tamoyillarni ham nazariy va o‘zining ijrosida sinab, amaliy o‘zlashtirishga tuyassar bo‘lgan musiqa bilimdonidir. Shu bois, uning asarlarida musiqiy meros an’analari o‘ziga xos davom ettirilganligini ko‘rish mumkin. Bastakorning ijodida cholg‘u kuylari alohida o‘rin egallaydi. Musiqa ijodiyotining ushbu jabhasida bastakor o‘ziga xos ijod etganligi va ilk sozandalik amallariga uyg‘un holda yaratilib kelinganligini e’tirof etish lozim. Ijodiy faoliyati davomida «Tahayyul», «Xayol», «Karashma», «Diydor», «Seni eslab», «Dil mavji», «Visol», «Tasavvur», «Hijron», «Dil tasnifi», «Kamon ufori», «Oypalak» kabi bir qator cholg‘u kuylarini yaratadi. Ushbu asarlar bastakorning o‘zi tomonidan goho g‘ijjak cholg‘usida, goho manzur cholg‘usida ijro etilgan. Har bir yaratilgan kuy, avvalo, mumtozlik kasb etsa, ikkinchidan, o‘ziga xosligi bilan bir-biridan ajralib turadi. Muhim jihatlaridan biri, maqom ijodiyotiga xos shakllarga egaligidir. Jumladan, «Dil tasnifi» kuyi.

«Dil tasnifi» kuyining maqomlarga aloqadorligi ko‘rinib turadi. Avvalo, uning nomidagi «tasnif» so‘zi bo‘lsa, ikkinchidan, kuyning tasnif usuliga mosligidir. Shakl ham bundan mustasno emas. Asarning metro-ritmik asosida 2/4 o‘lchovi bo‘lsa-da, tasnif usulining qoidasiga mos holda uch taktli kuy hajmiga asoslangandir. 28-misol. Usul.



Asarning shakli maqomlar cholg‘u qismi kabi xona, bozgo‘y tamoyiliga asoslangan va *Re frigiy* tonalligida yozilgan. Birinchi xonada kuying asosiy mavzusi berilgan. Mavzu ikkita usul, ya’ni uch taktli ikkita jumladan iboratdir. 29-misol: 1-xona (6 takt), Bozgo‘y, 2-xona (9 takt):

1-xona

Bozgo‘y

2-xona

Kuy ana shunday uslubda rivojlanadi va har bir xonalarning rivojida bittadan usul (ya’ni 3 taktdan) qo‘shiladi va diapazon jihatidan ham o’sib boradi. Kuy haqiqiy maqomlarga xos peshrav tamoyili bo‘yicha rivojlanib, oxirgi 8-xona 18 taktli rivojlov bo‘lim sifatida tarkib topadi va bozgo‘y bilan yakunlanadi. 8-xona. 30-misol:

8-xona

10

Bastakorning o‘zbek aytim yo‘llarida yaratgan musiqiy asarlari ham rang-barangligi va turli shakllarga xosligi bilan ajralib turadi. Qo‘sishq va ashulalarga so‘z tanlashda ham tarixiy, klassik hamda zamonaviy shoirlar ijodiga murojaat etadi. Xususan, u ko‘proq

J. Rumiy, A. Jomiy, A. Navoiy, Z. Bobur, B. Mashrab kabi klassik shoirlar g‘azallariga, Halima Xudoyberdiyeva, Sadriddin Salim, To‘shpo‘lat Ahmad, Samandar Vohidov kabi zamon shoirlarining she’rlariga musiqa bastalagan.

Bastakorning murojaat etgan mavzularining ko‘lami keng. Bahoriy kayfiyat, go‘zallik timsollari, ishq-muhabbat bastakorning sevimli mavzularidan hisoblanadi. Ijodi davomida yuzdan ortiq qo‘sish va ashulalar yaratgan. Shular orasida Alisher Navoiy so‘ziga: «Vaslidin darmoni yo‘q», «Kerak erdi», «Muvofiq kiydilar», «Ko‘ngil», «Yaxshi qol», «Nazzora qilma», «Ul otashin la’l»; Bobur g‘azallariga «G‘unchadek ko‘nglim», «Ko‘rgaymen»; Mashrab she’riga «Dilbari xush adoyiman», «Sig‘madim»; Cho‘lpon so‘ziga «Muhabbatning saroyi», «Kimlar» kabi ashulalardir.

O‘tgan asrda yashab ijod etgan shoirlarning she’rlariga – «Parvona», «Qo‘limda paymona» (Mahzuna), «Taronayi sho‘x» (M.Gafforova), «Muhabbatning saroyi, «Yupatgay kimlar» (Cho‘lpon) kabi ashulalarni xalqona yo‘lga xos ohanglarda yaratishga tuyassar bo‘lgan.

Bastakorning zamonamizning shoirlari so‘zlariga bitgan asarlari ham alohida zamon madhini o‘zida ifodalashi bilan xarakterlanadi. «Majnuntol» (T. Hamid), «Kulgimizdan yangrasin olam» (E. Vohidov), «Tingla bulbul» (Zulfiya), «Dunyo ketar surinib» (H. Xudoyberdiyeva), «Yorim» (Shukur Qurbon), «Sevgilim» (J. Jabborov, S. Zohidova), «Kel», «Gulim majnuntol», «Shirur keltirdim», «Rayhon etib kel» (T. Ahmad), «Ey, go‘zal», «Baxtimiz taronasi», «Buxoroni sog‘indim», «Buxoriy bitta» (S. Salim Buxoriy) kabi qo‘sishqlar shular jumlasidandir.

Bastakorning yaratgan ashulalarida maqom yo‘llariga xos ko‘p jihatlar mujassam topganligini ko‘rish mumkin. Uning yaratgan har bir asari respublikamizning turli vohalariga xos musiqiy an‘analar bilan sug‘orilgan. Ularning ohanglari ham albatta meros musiqiy namunalariga xosligi, yaqinligi bilan ajralib turadi. Bastakorning

talqin uslubi esa uning asarlarining o‘ziga xosligini belgilab turadi. Jumladan, Mashrab g‘azaliga bitgan «Sig‘madim» ashulasidir.

«Sig‘madim» ashulasi bastakorning Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llariga xos<sup>1</sup> uslubda va ulardagi hijron ohanglariga yaqin holda yaratgan asarlaridan biridir. Shakllari maqomlarga xos bo‘lgan ushbu asar garchand hijron ohanglarini eslatsa-da, uning tovushqator tizimi sol major tonalligiga asoslangandir. 31-misol:

Sig'madim

Oq qa-dar nur-ga to-lib-man (e) Os - mon-ga sig' - ma-dim  
To - ki ar-shu kur - si-yu lav - hi ja - hon  
- ga sig' - ma - dim

Asarning o‘lchovi to‘rt hissali bo‘lib, o‘ziga zos usul tuzilmasiga egadir (kuy misoliga qarang).

Ashulaning kuy rivoji, ularning tarkibiy qismidan o‘rin olgan daromad, miyonxat, dunasr, avj va furovardlarning maqom yo‘llariga xosligini e’tirof etish lozim. Shu bilan birga asarda maqomlarda keng qo‘llanilgan navo namudining ham ohanglari keng qo‘llanilganligini ko‘rish mumkin. Avjning navo namudi ohanglariga yaqinligi yana bir bor maqom tafakkurining mavjudligidan dalolat beradi.

O‘lmas Rasulov zamonaviy o‘zbek bastakorligida alohida o‘ringa ega bo‘lgan ijodkordir. Yaratgan asarlaridagi o‘ziga xoslik, keng qamrovlilik, shakliy mukammallik, tizimli rivojlanish tamoyillari,

<sup>1</sup> «Sig‘madim» ashulasining boshlanish ohanglari bayoti Sherouziy turkumining IV, ya’ni talqin taronasiga yaqinligini e’tirof etish lozim.

individual uslubini tashkil etuvchi xususiyatlarning barchasi O‘lmas Rasulovning bastakorlik uslubini tashkil etadi.

**Amaliy mashg‘ulot:** Abduhoshim Ismoilov va O‘lmas Rasulov hayoti, sozandalik va bastakorlik ijodini o‘zlashtirish hamda zamonaviy bastakorlar ijodi bilan solishtirish. Bastakorlik va sozandalik ijodlarining alohida ta’rifi, yaratgan asarlarining tahlili. Jumladan, «Nasib bo‘lg‘ay», «Sarvinoz», «Hasta ko‘nglim», «Hamroz qil», «Taraxxum qilmadi», «Yor emas», «Yorima ayting», «Ey, do‘st», «Kerak erdi», «Muvofiq kiydilar», «Ko‘ngil», «G‘unchadek ko‘nglim», «Ko‘rgaymen», «Sig‘madim», «Muhabbatning saroyi» va h.k. Bastakorlik ijodiyotidagi asosiy yo‘nalishlar va janrlar qamrovi. Bastakor ijodida turkumiylilik, ya’ni turkumiyl asarlar shakllanishi. Maqom ijodiyotining ta’siri. Cholg‘u va aytim janrlaridagi asarlari.

### Ahmadjon Dadayev



XXI asrga kelib, ushbu davrda samarali faoliyat olib borayotgan Qahramon Komilov, Rahmatjon Tursunov, Bahrillo Lutfullayev, Baxtiyor Aliyev, Abduhoshim Ismoilov, O‘lmas Rasulov, Shavkat Mirzayev, Tursunboy Jo‘rayev, Ahmadjon Dadayev, Muhammadjon Maraximov kabi bir qator bastakorlarning ijodlari keng ommalashganligi va xalq bastakorlik san’ati turli yo‘nalishlarda o‘zini namoyon etayotganligini kuzatish mumkin. Bastakorlarning zamonga xos yaratayotgan asarlarida yirik kuylar, ashula va qo‘sishqlar, romans, duet va trio kabi professional janrlar ko‘rinishida ijod etish rasm bo‘lmoqda. Bu, albatta, bastakorlik ijodiyotining turlanishi, qo‘sishqchilik san’atining xalqaro miqyosda keng ommalashishidan darak ekanligini e’tirof etish mumkin. Mohir

sozanda va bastakor Ahmadjon Dadayevning ijodi bunga yorqin misoldir.

Ahmadjon Dadayev ijodi negizida o‘zbek xalq mumtoz musiqa an’analarining zamonaviyligi va ko‘p jihatliliklari yotadi. U yaratgan asarlar zamonaviy ijrochilik amaliyotida keng ommalashgan deyish mumkin. O‘zbek mumtoz musiqasi asosida ommaviy janrlarga xos asarlar yaratish bastakorlik an’analarining asosidir. Zero, o‘tmish bastakorlarimizning ushbu uslublarga xos asarlari o‘zining purma’noligi bilan zamonaviy ijrochilik san’atining mumtoz musiqa ana’anlariga mos ravnaq topishiga ta’sir etadi. Eng muhimi, maqom san’atini o‘rganuvchi yosh avlodga xalq professional ijrochilik ko‘nikmalarini shakllantirishda dasturulamal sifatida xizmat qilishi muqarrar.

Bastakor Ahmadjon Dadayev – O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist, mohir sozanda, xushovoz xonanda va bastakor.

Ahmadjon Dadayev Toshkent viloyatining Parkent tumani, Novdanak qishlog‘ida tavallud topgan. Otasi kamtarin inson, san’atsevar havaskor sozanda Shokarim aka, onalari Risqi ona o‘z farzandlarini yoshligidan musiqaga shaydo ekanligini payqab, Qizil tog‘ shaharchasidagi 2-son bolalar musiqa maktabiga o‘qishga berishadi. Musiqa maktabida u milliy g‘ijjak cholg‘usi bo‘yicha o‘qituvchi G. Pinxasov sinfida saboq oladi. 1972–1976-yillari Hamza nomidagi Toshkent davlat musiqa bilim yurtida o‘qishni davom ettiradi. Musiqa bilim yurtida Ahmadjon Sotivoldi Karimov, Murod Toshmuhammedov, Rahim Malikov kabi ustoz sozandalarning sabog‘ini olishga tuyassar bo‘ladi. 1976-yili Ahmadjon Toshkent davlat konservatoriyasining (hozirda O‘zbekiston davlat konservatoriysi) «Sharq musiqasi» kafedrasiga, an’anaviy g‘ijjak ijrochiligi mutaxassisligi bo‘yicha o‘qishga qabul qilinadi. U «Sharq musiqasi» kafedrasida xalqimizning dongdor san’at namoyandalaridan hisoblangan, ustoz san’atkorlar Faxriddin Sodiqov va Mahmudjon Muhammedovlar qo‘lida an’anaviy musiqa

sirlaridan ta’lim oladi. Ushbu ustozlar rahnamoligida Ahmadjon an’anaviy mumtoz musiqa merosi, Maqom ijrochilik san’ati sirlarini qunt bilan o’zlashtiradi.

Ma’lumki, o’zbek bastakorlarining aksariyati aynan g’ijjak sozi mutaxassislari bo’lgan. Jumladan, T. Jalilov, K. Jabborov, G’. Toshmatov, G’. Hojiqulov, N. Hasanov, T. Hasanov, Q. Komilov va h.k. Shu bois bo’lsa kerak, Ahmadjon ustozlari yordamida an’anaviy o’zbek sozandalik san’atida ijro maktabini yaratgan mohir g’ijjakchi ustozlarning ijro uslublarini egallashga harakat qiladi. Davrining keksa san’atkori, betakror sozanda G’ulomjon Hojiqulov bilan yaqindan ustoz-shogird an’analarini tiklaydi. Ijodiy hamkorlik qiladi.

Konservatoriyyada o’qub yurgan kezлari, 1979-yili O’zbekiston radiosи qoshidagi Yu. Rajabiy nomidagi maqomchilar ansambliga ustozlar yonida turib faoliyat olib borish uchun ishga taklif qilinadi. Qolaversa, konservatoriya ta’lim dargohi bo’lsa, maqom ansambli ustozlar sabog‘i va tajriba olish maskani bo’lib xizmat qildi. Chunki, ustozlar davrsasi har doim ziyo maskani sifatida xizmat qilishi muqarrardir. Ahmadjonning peshonasiga ana shunday baxt nasib etdi. U zamonasining eng usta san’atkori, mohir sozanda va xonandalari bilan birga faoliyat ko’rsata boshlaydi. Ushbu dargohda u, eng avvalo, maqom ijrochilik san’atining sir-sinoatlarini o’zlashtiradi. Ustozlarga havas qilib, ular kabi tafakkur qilishga intiladi. Bastakorlik ijodiyotining musiqa merosi bilan bog’liq jihatlarini idroklashga harakat qiladi. Pirovardida, u ustozlarga mehr qo’yib, sekin-asta zamonaga mos qo’shiqlar yarata boshlaydi. Uning ustoz bastakorlar amaliga qiyosiy tarzda yaratgan asarlaridan Habibiy so’zlariga «Gulzori go’zal», «Mehribonimga», «Dillar uchrashuvi», «Bahor», N. Narzullaev so’ziga «Jondan shirin» va «Mening bordur o’z diyorim» kabilar shular jamlasidandir. Uning ilk asarlarida o’zbek qo’shiqchilik san’atining yorqin namunalariga

iqtiboslar mavjudligini ko‘rish mumkin. Lekin, ilk asarlarining o‘zida uning bastakorlik tili shakllanayotganligini ko‘rish mumkin.

Musiqa yaratish sozanda uchun unchalik murakkab emasdek tuyuladi. Lekin musiqiy merosni bilish, ustozlar sabog‘ini olish ijodkor samarasining negizini tashkil etadi. Ahmadjon ana shunday shiddat bilan ustozlarga o‘zining yangi asarlarini namoyish etishga muyassar bo‘ladi. Uning Mashrab g‘azali bilan «Onam» ashulasi va M. Rahimov so‘ziga «Umidim qoldi» asari o‘zining originallik jihatlari bilan o‘zbek bastakorlari orasida yangi ovoz paydo bo‘lganligini elga xabar qilgandek bo‘ldi. Darhaqiqat, bu ikki asar o‘zining janrlik xususiyati va ohanglarining originalligi bilan va ijroda betakror jozibasi bilan xalqimiz musiqa merosiga yangi asarlar sifatida kirib keldi.

Yosh bastakor o‘z ijodini davom ettirar ekan, uning ijodida Uyg‘un so‘ziga «Mehnat bilan», Erkin Vohidov so‘ziga «Rubobim torli ikkidur», A. Oripov so‘ziga «Vafo qilarmisan bahorim», O. Odilxonov so‘ziga «Seni kutgayman», Sh. Dadayev so‘ziga «Dutorim» va «O‘zbekistonim yaxshidir», J. Jabborov she’riga «Gavharim», A. Turon she’riga «Eslarman seni» kabi ashulalar yaratildi va tinglovchilar e’tiboriga havola etildi.

Ahmadjon Dadayev maqom ansamblida faoliyat olib borish bilan birga O‘zbekiston davlat konservatoriyasi va A. Qodiriy nomidagi O‘zbekiston San’at va madaniyat institutida pedagogik faoliyatini davom ettirmoqda. Yoshlar tarbiyasiga, ayniqsa, zamonaviy san’atkorlarni maqom negizida, maqom madaniyati asosida tarbiyalashga alohida e’tibor qaratmoqda. Yoshlarning musiqa merosimizni bexato ijro etishi va an’anaga xos zamonga mos holda munosabat bildirishi uning uchun dasturulamaldir. Chunki har bir asari o‘z xarakteriga ega. Jumladan: «Umidim qoldi» M.Rahmon she’ri, lirik xarakterdagi asari. Farg‘ona vodiysi uslubiga xos bo‘lgan bu asar, o‘zining mungi va originalligini namoyon etib turadi.

«Onam» – Mashrab g‘azaliliga yozgan bu asari mumtoz musiqa uslubida yaratilgan. «Rubobim tori ikkidur» Sh. Dadayev she’riga yozilgan va jo‘shqin hamda ko‘tarinkilik kayfiyatini beradigan asardir. «Dutorim» ham Sh. Dadayev she’riga yozilgan. Faqat xalq yo‘liga xos bo‘lib, soddalik va aniq talaffuz bilan ijro etishni talab etadi. Bastakorning vals uslubida ham yaratgan asarlari mavjud. «Seni kutgayman» qo‘shig‘i aynan shunday xarakterda yozilgan. Ahmadjon Dadaevning ijodida bir qator Vatan madhiga bag‘ishlangan asarlar o‘rin olganligini ham qayd etish joiz. Sh. Dadayev she’riga yozgan «O‘zbekiston yaxshidur» qo‘shig‘i bunga yorqin misoldir. Unda Vatan iqboli, xalq ruhiyati va tabiat yorqin ifodasini topgan.

Ahmadjon Dadayev ayni paytda yosh sozanda va xonandalr uchun ustoz, ijodkorlar uchun rahnamo sifatida faoliyatini davom ettirmoqda. Uning maqom san’ati, bastakorlik ijodiga yanada ulkan hissa qo‘shishi begumondir.

**Tayanch so‘zlar:** bastakor, sozanda, uslub, ustoz, shogird, g‘ijjak, ansambl, saboq, zikr, maqom yo‘llari.

### Nazorat savollari

1. Abduhoshim Ismoilov va O‘lmas Rasulovlar ijodi haqida so‘zlab bering.
2. Har ikki bastakor qanday cholg‘ular uchun asarlar yozganligini aytib, kuy va ashulalarining ohanglaridan kuylab bering.
3. Abduhoshim Ismoilov va O‘lmas Rasulov uslublari qaysi vohaga va qaysi janrga yaqin?

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. *I. Karimov.* Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: «Ma’naviyat», 2008.
2. *A. Navoiy.* Mukammal asarlar to‘plami [20 tomlik]. Majolis un-nafois. 13-j. – T., 1997.
3. *A. Navoiy.* Mukammal asarlar to‘plami [15 tomlik]. Holati Pahlavon Muhammad. 1-tom. – T., 1997.
4. *Zaxiriddin Muhammad Bobur.* Boburnoma. – T., 1960.
5. Среднеазиатский трактат по музыке Дарвеша Али (А. Semyonov tarjimasi). – Т., 1946.
6. *Дильбар Рашидова.* Дарвеш Али Чанги и его трактат о музыке. (Мавераннахр XXI–XVII веков). R-28 INV № 770, Т. 1981. (1–207 перевод трактата, 50 стр. указатели.)
7. *A. Fitrat.* O‘zbek klassik musiqasi va uning tarixi. – Т., 1993.
8. *Mulla Bekjon Rahmon o‘g‘li Muhammad Yusuf Devonzoda.* Xorazm musiqiy tarixchasi. – Т., 1998.
9. *I. Rajabov.* Maqomlar masalasiga doir. – Т., 1963.
10. *I. Rajabov.* Maqomlar. – Т., 2006.
11. *I.Ikromov.* Sarvi gulro‘ kelmedi. 1-kitob. – Т., 1986.
12. *K. Алимбоева, M. Ахмедов.* Народные музыканты Узбекистана. – Т., 1959.
13. *I. Akbarov.* To‘xtasin Jalilov. – Т., 1978.
14. *I. Akbarov.* Musiqa lug‘ati. – Т., 1987.
15. *M. Ahmedov.* Yunus Rajabiy. – Т., 1978.
16. *M. Ahmedov.* Doni Zokirov. – Т., 1978.
17. *I. Ikromov.* Sarvi gulro‘ kelmedi. 1-kitob. – Т., 1986.
18. *I. Ikromov.* Davr-u davronim go‘zal. 2-kitob. – Т., 1987.
19. *A. Jabborov.* O‘zbekiston bastakorlari va musiqashunoslari. – Т., 2004.
20. *I. Sposobin.* Muzika shakli. – Т., 1982.

21. *T. G'ofurbekov*. Saylanma (Bastakorlik ijodiyoti tarixidan). – T., 2009.
22. *O. Matyoqubov*. Maqomot. – T., 2004.
23. *O. Matyoqubov*. Og‘zaki an’anadagi professional musiqa asoslariga kirish. – T., 1983.
24. *R. Yunusov*. Faxriddin Sodiqov. – T., 2005.
25. *Z. Oripov*. Sharq musiqiy manbashunosligi (X–XI asrlar). – T., 2008.
26. *B. Matyoqubov*. Doston navolari. – T., 2009.
27. *K. Otaniyozov*. Uchirdim shunqor qushimni. – T., 1987.
28. *S. Begmatov*. Orifxon Hotamov. – T., 2000.
29. *S. Begmatov*. Hofizlik san’ati. – T., 2007.
30. *S. Begmatov, A. Zokirov*. Muxtorjon Murtazoyev. – T., 2008.
31. *S. Xudoyberganov*. So‘z va soz sohibi. – T., 2007.
32. O‘zbekiston Milliy Yensiklopediyasi. I jild: Bastakor. – T., 2000.
33. O‘zbek musiqasi tarixi. O‘quv qo‘llanma. – T., 1980.
34. Musiqa ijodiyoti masalalari. I to‘plam. – T., 1997.
35. Musiqa ijodiyoti masalalari. II to‘plam. – T., 2001.

## **Ilmiy maqolalar:**

1. *P. Abdullaev*. Фольклор и профессиональная музыка устной традиции. //История узбекской музыки. III том. – Т., 1991.
2. *T. G'ofurbekov*. XX asr o'zbek musiqasi va Yunus Rajabiy. // Musiqa ijodiyoti masalalari. I to'plam. – Т., 1997.
3. *X. G'ofurbekova*. Bastakor Komiljon Jabborov. //Musiqa ijodiyoti masalalari. I to'plam. – Т., 1997.
4. *R. Yunusov*. Faxriddin Sodiqovning ijodiy merosi hozirgi zamon bastakorlik jarayoni kesimida. //Musiqa ijodiyoti masalalari. I to'plam. – Т., 1997.
5. *X. G'ofurbekova*. Bastakor Saidjon Kalonov. //Musiqa ijodiyoti masalalari. I to'plam. – Т., 1997.
6. *T. G'afurbekov*. O'zbek bastakorlik ijodiyotida mualliflik masalalariga doir. // Musiqa ijodiyoti masalalari. 2 to'plam. – Т., 2001.

## MUNDARIJA

Kirish .....	3
<b>I bob. Bastakorlik ijodi tarixi .....</b>	<b>8</b>
1.1. Ilk o‘rta asrlar bastakorligi .....	8
Borbad ijodi .....	10
Abdul Faraj al-Isfahoniyning «Qo‘shiqlar kitobi».....	12
1.2. Rivojlangan o‘rta asrlar bastakorligi .....	14
Alisher Navoiyning «Majolis un-nafois» asari .....	16
Alisher Navoiyning «Holoti Pahlavon Muhammad» asari ...	18
1.3. So‘nggi o‘rta asrlar bastakorlik ijodi	
Darvish Ali Changiyuning «Musiqa risolasi»da bastakorlar siymolari. ....	20
<b>II bob. O‘zbek bastakorligida mahalliy uslublar .....</b>	<b>27</b>
2.1. Buxoro – Samarqand bastakorlik maktabi .....	34
Ota Jalol Nosirov .....	35
Ota G‘iyos Abdug‘ani .....	36
Hoji Abdulaziz Abdurasulov.....	37
2.2. Toshkent – Farg‘ona bastakorlik maktabi .....	40
Imomjon Ikromov .....	40
To‘xtasin Jalilov .....	45
Yunus Rajabiy .....	50
Muxtorjon Murtazoyev .....	56
Jo‘raxon Sultonov .....	62
2.3. Xorazm bastakorlik maktabi .....	65
Qurbannazар Abdullayev .....	66
Komiljon Otaniyozov.....	68

<b>III bob. Bastakorlik ijodi namoyandalari .....</b>	<b>76</b>
3.1. XX asr 30–60-yillari bastakorlik ijodi namoyandalari .....	76
Muhammadjon Mirzayev .....	76
G‘anijon Toshmatov .....	80
Komiljon Jabborov .....	89
Faxriddin Sodiqov .....	95
Saidjon Kalonov .....	99
3.2. XX asr 60–80-yillar bastakorligi namoyandalari .....	105
Fattohxon Mamadaliyev .....	106
Orifxon Hotamov .....	110
3.3. 1980–2000-yillar bastakorligi namoyandalari .....	115
Abduhoshim Ismoilov .....	116
O‘lmas Rasulov .....	126
Ahmadjon Dadayev .....	132
Foydalanilgan adabiyotlar .....	137

*O‘quv nashri*

**Soibjon Begmatov**

## **BASTAKORLIK IJODI**

*Kasb-hunar kollejlari uchun o‘quv qo‘llanma*

Muharrir T. Mirzayev

Rasmlar muharriri J. Gurova

Texnik muharrir D. Salixova

Kompyuterda taylorlovchi T. Abkerimov

Original-maket «NISO POLIGRAF» nashriyotida tayyorlandi.  
Toshkent viloyati, O’rta Chirchiq tumani, «Oq-Ota» QFY,  
Mash’al mahallasi Markaziy ko‘chasi, 1-uy.

Litsenziya raqami AI №265.24.04.2015.  
Bosishga 2017-yil 20-noyabrdi ruxsat etildi. Bichimi  $60 \times 84^{1/16}$ .  
Ofset qog’ozи. «Times New Roman» garniturasi. Kegli 12,5.  
Shartli bosma tabog‘i 9,0. Nashr tabog‘i 8,37.  
Adadi 115 nusxa. 676-sonli buyurtma.

«NISO POLIGRAF» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.  
Toshkent viloyati, O’rta Chirchiq tumani, «Oq-ota» QFY,  
Mash’al mahallasi Markaziy ko‘chasi, 1-uy.

Bastakorlik ijodi[Matn]: o‘quv qo‘llanma/. S. Begmatov.  
B 45 – Toshkent: Niso-Polifraf, 2017. – 144-b.

ISBN 978-9943-4870-8-6

UO‘K 85.313  
KBK 85.313ya721

Original-maket «NISO POLIGRAF» nashriyotida tayyorlandi.  
Toshkent viloyati, O’rta Chirchiq tumani, «Oq-Ota» QFY,  
Mash’al mahallasi Markaziy ko‘chasi, 1-uy.

Litsenziya raqami AI №265.24.04.2015.  
Bosishga 2017-yil 20-noyabrdi ruxsat etildi. Bichimi  $60 \times 84 \frac{1}{16}$ .  
Ofset qog’ozи. «Times New Roman» garniturasi. Kegli 12,5.  
Shartli bosma tabog‘i 9,0. Nashr tabog‘i 8,37.  
Adadi 300 nusxa. 676-sonli buyurtma.

«NISO POLIGRAF» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.  
Toshkent viloyati, O’rta Chirchiq tumani, «Oq-ota» QFY,  
Mash’al mahallasi Markaziy ko‘chasi, 1-uy.